

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

SOATOVA GULBAHOR RASHID QIZINING

MIRMUHSIN ASARLARINING TIL XUSUSIYATLARI

**70230101-Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha Magistr akademik
darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

F.f.d., prof. B.Umurqulov

TERMIZ-2024

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 2-apreldagi №20-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: _____ f.f.d., prof. B.Umurqulov

Kafedra mudiri: _____ f.f.f.d. (PhD) N.Amonturdiyev

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: _____ k.f.f.d(PhD) DAbdurahimov

70230101-Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi Soatova Gulbahor Rashid qizining “Mirmuhsin asarlarining til xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTATSIYASI

Tayanch so‘zlar: Badiiy matn, lingvistik xususiyat, adabiy til, istorizm, arxaizm, barqaror birikma, o‘xshatish, sifatlash, maqol, ibora, idioma

Tadqiqot obyektlari: Yozuvchi Mirmuhsinning “Me‘mor”, “Xo‘jand qal’asi”, “Ilon o‘chi” romanlari, “G‘urbatdagi odam”, “Buvamni sog‘inib” hikoyalar to‘plami.

Tadqiqot predmeti. Mirmuhsin asarlarining o‘ziga xos til xususiyatlari.

Ishning maqsadi: Mirmuhsin asarlarining badiiy matn imkoniyatlarini o‘rganish, uning til uslubiyatini tahlillar asosida dalillash;

lingvistik jihatdan adib asarlari tilining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritish.

Tadqiqot metodlari: tavsiflash, qiyoslash, tahlil hamda tasniflash metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi:

- lingvistik tadqiqotlarga bag‘ishlangan bag‘ishlangan tadqiqotlar ko‘zdan kechirildi;

- Mirmuhsin asarlari qahramonlari nutqining til xususiyatlari o‘rganildi;

- adib asarlarida qo‘llangan tarixiy so‘zla boshqa hodisalar o‘rganildi;

- asar qahramonlari nutqini o‘rganish barobarida adib badiiy nutqining nozik tomonlari tahlil etildi;

- asar qahramonlari nutqi leksik-semantik birliklarning o‘ziga xos jihatlari tadqiq etildi;

- badiiy matndagi ibora va maqollar, idioma, emotsional-ekspressiv imkoniyatlarni ta‘minlashdagi, shuningdek, o‘zbek tilining ekspressivligini oshirishdagi o‘rni va mavqeyi, asar qahramonlari nutqi misolida ochib berildi;

- barqaror birikmalarning asar qahramonlari nutqida stilistik qo‘llanish imkoniga ko‘ra o‘rni belgilandi.

Amaliy ahamiyati: Badiiy asar qahramonlari nutqi tilimiz tabiatiga doir bir qator yangiliklar qilish, shuningdek, Mirmuhsin asarlarining o'ziga xos jihatlari haqida xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi.

Tadbiq etish darajasi: Ishda erishilgan ilmiy va amaliy natijalardan asar qahramonlari nutqini akademik litsey, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarida o'rganish, seminar-treninglar, ma'ruza va muloqot-suhbat darslarini tashkil qilishda qo'shimcha material sifatida foydalanish mumkin.

Qo'llanilish sohasi: Oliy ta'lim va o'rta ta'lim maktablari.

70230101-Linguistics (Uzbek language) master's thesis of Soatova Gulbahor Rashid qizi on the topic "Linguistic features of Mirmukhsin's works"

ANNOTATION

Key words: Literary text, linguistic feature, literary language, historicism, archaism, stable conjunction, simile, adjective, proverb, phrase, idiom

Objects of research: "Me'mor", Xo'jand qal'asi", "ILon O'chi", novels by the writer Mirmuhsin, "G'urbatdagi odam", "Buvamni sog'inib", collection of stories.

The subject of the research is the specific language characteristics of the eras of the writer Mirmuhsin.

The purpose of the work: to study the artistic text possibilities of Mirmukhsin's works, to prove his language methodology based on analysis, to illuminate the specific features of the language of literary works from a linguistic point of view.

Research methods: description, comparison, analysis and classification methods were used.

The results obtained and their novelty:

Studies devoted to linguistic studies were reviewed;

The linguistic characteristics of the speech of the heroes of Mirmukhsin's works were studied;

other events were studied with the historical word used in literary works;

while studying the speech of the heroes of the work, the subtle aspects of the writer's artistic speech were analyzed;

the specific aspects of the lexical-semantic units of the speech of the heroes of the work were studied;

phrases and proverbs in the artistic text, idioms, providing emotional and expressive opportunities, as well as the expressiveness of the Uzbek language

the place and position in the development was revealed by the example of the speech of the heroes of the work;

the place of stable compounds in the speech of the heroes of the work was determined according to the possibility of stylistic use.

Practical significance: the speech of the heroes of the work of art provides an opportunity to make a number of innovations about the nature of our language, as well as draw conclusions about the specific aspects of Mirmukhsin's works.

Level of implementation: using the scientific and practical results obtained in the work as additional material for studying the speech of the heroes of the work in academic lyceums, vocational colleges and higher educational institutions, organizing seminars-trainings, lectures and dialogue-conversation classes possible

Field of application: Higher education and secondary education schools.

MUNDARIJA

KIRISH	5
I BOB. Tilshunoslikda matn tadqiqiga bag‘ishlanga asarlar sharhi...	
1.1. Matn tushunchasi va uning o‘rganilishi.	11
1.2. Badiiy matn va uning tarifi	15
1.3. Tilshunoslikda badiiy matn – badiiy asar tadqiqi masalalari	17
I bob bo‘yicha xulosa.....	26
II BOB Mirmuhsinning lug‘aviy vositalardan foydalanish mahorati..	28
2.1. Mirmuhsin asarlari tilining o‘ziga xos xususiyatlari	28
2.2. Mirmuhsin asarlarida tarixiy hamda arxaik so‘zlarning qo‘llanishi....	37
II bob yuzasidan xulosalar.....	47
III BOB. Mirmuhsin asarlarida o‘xshatish va barqaror	49
birikmalarning lingvistik tahlili	
3.1. Mirmuhsin asarlarida o‘xshatishlarning turli xil shakllari tahlili	49
3.2. Adib asarlarida frazeologik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari	60
III bob yuzasidan xulosalar.....	77
XULOSA	79
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	81

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati

Til insoniyat uchun eng muhim va benazir Alloh tomonidan berilgan buyuk ne'mat hisoblanadi. Shu bilan birga u ijtimoiy hodisa hamdir. Til orqali insonning ruhiy kechinmalari, his-tuyg'ulari, o'y-fikrlari namoyon etiladi. Shu orqali axborot almashiladi. O'zining borliqda mavjudligini isbotlaydigan muhim omildir. Til inson ongi va dunyoqarashining inikosidir shu bilan uning saviyasini o'lchab beruvchi mezon hamdir. Inson ongida sohir bo'lgan mavjudlikni yuzaga chiqaruvchi omil nutq hisoblanadi. Nutqning verbal hamda noverbal shakllari mavjud. Nutq takomillashib bugungi kundagi darajaga yetguncha insoniyat necha ming asrlik mashaqqatli va ibtidoiy jarayonni boshidan o'tkazdi. Shunday ekan so'z va uning qudrati mislsiz ekanligini tassavvur qilishimiz qiyin emas. Necha asrlardan buyon til insonlar aloqa vositasi sifatida xizmat qilib kelmoqda. Uning imkoniyatlaridan qay daraja foydalanish esa shaxs dunyoqarashining ko'zgasidir.

Kishilar har qanday sharoitda va faoliyatning barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik va fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-birlaridan qaysidir ma'noda farq qiladi. Umumxalq til doirasida til vositalarining bunday tanlab olinishi nutqning xilma-xil ko'rinishlarining paydo bo'lishiga olib keladi. Nutqning bu xilma-xil ko'rinishlari nutq stillari deb yuritiladi.

Badiiy adabiyot har bir individga uning idrok etish darajasiga ko'ra turlicha ta'sir etadi va uni o'zicha anglaydi, xulosa qiladi¹ Yozuvchilarni asarlarini o'qish

¹ Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б. 9.

davomida ularning nutqni bayon etish uslubini taniy boshlaymiz. Undagi o‘ziga xos xususiyatlarni boshqa adiblarning yozish uslubidan ajratishni avtomatik tarzda ongda bajaramiz.

Adabiyotimizda o‘zining badiiy matnlarni bayon etish uslubi va yo‘li bo‘lgan adiblarimiz yetarlicha. Ularning asarlarida qo‘llangan so‘z va fikrlarni ifodalash usuli adibning badiiy nutqni tasvirlash yo‘nalishini belgilaydi. Shunday o‘ziga xos yo‘nalishiga ega bo‘lgan adiblarimizdan biri Mirmuhsin Mirsaidovdir. Adib asarlarining tarixiy yoki zamonaviy mavzuda yozilganligiga ko‘ra til uslubini belgilaydigan yozuvchidir. Uning tarixiy romanlarining tili zamonaviy romanlariga qaraganda ancha badiyroq va asar tili bir muncha murakkabroqdirki uni tilshunos sifatida tahlil qilayotgan o‘quvchi uchun yetarli darajada material mavjud. Uning “Me’mor” hamda “Xo‘jand qal’asi” tarixiy romanlari yozuvchi ijodining badiiy bosqichdagi eng yuqori nuqtasiga olib chiqqan. Jahon tilshunosligida XX asr boshlarida lingvopoetik masalalarni o‘rganishga e’tibor kuchaygan bo‘lsa, bu yo‘nalishda ish olib borish o‘zbek tilshunosligida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Lingvopoetik tahlilda tilning lingvokulturalogik, psixolingvistik, matn lingvistikasi, prangmalingvistik va lingvostilistik yo‘nalishlarini qamrab olgan holda tahlil qilish nazarda tutiladi. Mustaqilliok yillarida ayniqsa tilshunoslikda lingvopoetik tahlilga asoslarga yuzlab dissertatsiyalar himoya qilinib, maonografiyalarni nashr etildi. Ushbu tadqiqotlar inson badiiy estetik olamini o‘ziga xos uslub yoki badiiy nutqda yozilganini asoslash maqsadida yaratilib, yozuvchi badiiy tilini va tasviriy vositalarini yanada yorqinroq anglashimiz uchun xizmat qiladi. Shu mazmuni kasb etgan holda O‘zbekiston xalq yozuvchisi Mirmuhsin Mirsaidovning badiiy mahoratini lingvistik xususiyatlarini tahlil etishda betakror adibimizning badiiy matn yaratishda xalqimiz tafakkuri rivojiga qo‘shgan munosib hissasini aniqlash imkonini beradi. Ayni paytda Mirmuhsin asarlarini lingvistik jihatdan tahlil qilishdagi keyingi qadamlar uchun ishonarli material sifatida xizmat qiladi. “Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g‘oya va

ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash’’² tilshunoslikda barcha yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borishni keraklini talab qiladi. Tilni amaliy hamda nazariy jihatdan tahlil qilish natijasida, til sohiblarining dunyoqarashi va lisoniy bilimlarini ortishiga erishilish ko‘zda tutiladi. Mirmuhsin ijodi shu paytgacha lingvistik jihatdan tahlil etilmaganligi tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti. Yozuvchi Mirmuhsinning “Me‘mor”, “Xo‘jand qal‘asi”, “Ilon o‘chi” romanlari, “G‘urbatdagi odam” qissasi va “Buvamni sog‘inib” hikoyalar to‘plami.

Tadqiqot predmeti sifatida yozuvchi Mirmuhsinning roman, qissa va hikoyalarining badiiy nutqi, lingvistik uslubi, asarlarida qo‘llanilgan istorizm va arxaizmlar, turg‘un birikmalar va frazeologik birliklari tanlandi.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek adabiyotining yirik namoyondasi Mirmuhsin Mirsaidov badiiy asarlari tilini lingvistik jihatdan tahlil etish orqali, adibning individual ijodiy manerasiga xos til xususiyatlarni belgilash. Mirmuhsin asarlarini lingvistik xususiyatlarini o‘rganish maqsad qilib olindi.

Tadqiqotning vazifalari:

- Mirmuhsin asarlari qahramonlari nutq birliklarining leksik va lug‘aviy xususiyatlarini yoritib berish;
- Mirmuhsin asarlarida qo‘llanilgan o‘ziga xos leksik birliklar va uning til xususiyatini tahlil qilish;
- adib tarixiy asarlarida qo‘llanilgan tarixiy va arxaik so‘zlarning hozirgi kundagi mazmuni bilan yoritish;
- adib asarlarida qo‘llanilgan tasviriy vositalardan biri bo‘lgan o‘xshatish orqali yozuvchi badiiy nutqining obrazlilik va tasviriy mahoratining individualligini ochib berish;
- Mirmuhsin asarlari badiiyatining yuzag chiqishida badiiy tasviriy vositalarning o‘rnini aniqlash;
- yozuvchi asarlarida qo‘llanilgan xalq maqollarining lingvopetik tahlilini qilish;

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. [www.http://prezident.uz/uz/lists/view/137](http://prezident.uz/uz/lists/view/137)

- yozuvchi qoʻllagan frazeologik birliklarning semantik jihatdan tahlili matn mazmuniga aloqador holda obrazlilikni taminlash usullarini oʻrganish;

- tahlil natijalariga koʻra Mirmuhsinning badiiy ijod jarayonida tildan foydalanishdagi individualligini aniqlash hamda oʻzbek tilining leksik-stilistik taraqqiyotiga qoʻshgan xissasi xususida muayyan xulosalarga kelish;

Tadqiqotning usullari. Mirmuhsin badiiyatini ochishda lingvistik, lingvopoetik, semantik tahlil, tasniflash vaqiyoslash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Oʻzbek nasriy nutqi fondi vakillaridan biri boʻlgan Mirmuhsin asarlarining lingvistik xususiyati va lingvopoetik tahlilida adibga xos boʻlgan badiiy til jihatlari asoslangan.

Mirmuhsin asarlari tilini yuzag chiqishida faol ishtirok etadigan til birliklarining leksik- semantik xususiyatlari ochilgan.

Mirmuhsin tarixiy romanlarida nomlari qayd qilingan, hozirgi kunda oʻzi ham, nomi ham tilimizda isteʼmoldan chiqib ketayotgan predmet nomlarini va ularning lugʻaviy xususiyatlari ochib berilgan.

Mirmuhsin asarlarida qoʻllangan ibora, idioma kabi frazeologik birliklar tarkibidagi soʻzlar va ular ifodalaydigan yangi maʼno bilan yoki koʻchma maʼno xususiyatiga koʻra frazeologik birliklar ibora va idiomaga ajratilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari Mirmuhsin asarlari qahramonlarining nutqi xususiyatlarini oʻrganish, ularning nutqiga xos nutq birliklarini tahlil etish va ifodalash asosiy masala hisoblanadi

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Oʻzbekiston xalq yozuvchisi Mirmuhsin Mirsaidov individual nasriy badiiy xususiyatiga xos boʻlgan til materiallarining lingvistik, semantik, leksikografik hamda lingvopoetik tahlillari asoslab berilgan.

Til birliklarining goʻzal namunalari adib asarlarida qoʻllanilgan shakllarini tahlil qilish asosida oʻzbek tilining tasviriy-ekspressiv imkoniyatlari kengligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Badiiy asar qahramonlari nutqi tilimiz tabiatiga doir bir qancha yangiliklarni va oʻziga xos xususiyatlari haqida xulosalar chiqarish uchun lingvistik maydon hozirlab beradi. Qahramonlar nutqida qoʻllangan soʻzlarning ommalashishi

natijasida yangicha tushuncha yoki tasviriy vositalarning vujudga kelishiga turtki bo‘ladi. Bunday til birliklarini tahlil qilish yozuvchi mahoratini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu ishda yozuvchi asarlarlari til xususiyatini ochib berishda qo‘shimcha material sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi. Badiiy asar nutqi ustida olib borilgan tadqiqotlarning akasariyat qismi XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri kelsada, ammo badiiy asar tili tahlil qilish XX asrning 30-yillaridan keyin bo‘y ko‘rasta boshlagan bo‘lsa-da, bu tadqiqotlarning davomi uzluksiz bo‘lmagani sababli keng ko‘lamdagi ishlar olib borilmagan. O‘tgan asrning ikkinchi yarmida badiiy asar tilini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan tilshunos olimlarimiz safi kengaydi va bu yo‘nalishning rivojlanishi uchun muhim qadam bo‘ldi. Badiiy asar tadqiqiga doir N.Mahmudovning “Abdulla Qahhor hikoyalariga doir”³, R.Normurodovning “Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari”⁴, S.Boymirzayevaning “Oybek prozasining lingvistik tadqiqi”⁵, S.Karimovning “O‘zbek tilining badiiy uslubi”, B.Umurqulovning “Badiiy adabiyotda so‘z”⁶, L.Jalolovning “Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar romanining lingvistik tadqiqi”⁷, B.Umrqulovning “Badiiy nasr jozibasi”, A.Hamidovning “Murod Muhammad Do‘st asarlari lingvopoetikasi”⁸, M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matn lingvopoetikasi”⁹, D.Quronovning “Cho‘lpon nasri poetikasi”¹⁰ kabi ilmiy tadqiqotlar ushbu yo‘nalish rivoji uchun muhim asos bo‘lmoqda. Ular badiiy asar tilining uslubiy tomonlarini, badiiy estetik jihatlari, yozuvchi til uslubiyati, yozuvchi badiiyatida individuallik kabi tomonlarni chuqur o‘rgandilar. Ayniqsa, lingvopoetika rivoji uchun muhim tadqiqotlarni amalga oshirgan tilshunos

³ Махмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвopoетикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. №6. – Б. 34-38.

⁴ Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари. Фил.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

⁵ Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвистик тадқиқи Филолог. Фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент: 2007.

⁶ Умрқулов Б. Бадий адабиётда сўз. – Тошкент, 1993.

⁷ Жалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи Филол.фан.номз.дисс.автореф. – Тошкент, 2007.

⁸ Ҳамидов А. Муроd Муҳаммад Дўст асарлари лингвopoетикаси. – Тошкент, 2021.

⁹ Йўлдошев М. Бадий матн лингвopoетикаси. – Тошкент, 2008.

¹⁰ Қуронов Д. Чўлпон насри poetикаси. – Тошкент, 2004.

olimlarimizdan M.Yo‘ldoshev, N.Mahmudov, B.Umrqulov, I.Qo‘chqortoyev, D.Quronov kabi olimlarimizni alohida e’tirof etishimiz maqsadga muvofiqdir.

Magistrlik ishi tuzilishi va hajmi. Mazkur Magistrlik dissertatsiyasi kirish, 3 bob, 7 fasl, bob bo‘yicha xulosalar, umumiy xulosalar foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, ishning umumiy hajmi 79 sahifadan iborat.

I BOB. TILSHUNOSLIKDA MATN TADQIQIGA BAG‘ISHLANGAN TADQIQOTLAR SHARHI

1.1. Matn tushunchasi va uning o‘rganilishi

O‘tgan asr 60-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab “matn lingvistikasi” degan yo‘nalish katta sur‘at bilan rivojlanish pallasiga kirdi. Yaxlit nutqiy butunlik sifatidagi matn va uning tashkil etuvchi unsurlari, omillari, xususiyatlari turli nuqtayi nazarlardan tadqiq etila boshlandi. Bu soha atrofida o‘ziga xos, aytish mumkin bo‘lsa, juda katta “shov-shuv” paydo bo‘ldi. Hatto ayrim mutaxassislar matn lingvistikasini tilshunoslikning alohida sohasi emas, balki umuman, tilshunoslikning poydevori, bazasi deb hisobladilar. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida matn lingvistikasi bo‘yicha davriy nashrlar va ilmiy to‘plamlar nashr etildi, maxsus ilmiy jamoalar tuzildi, monografiyalar bosildi, darsliklar, hatto maktablar uchun darsliklar chiqarildi¹¹.

Matn nazariyasi, matn lingvistikasining umumiy shakllanishi va rivojida chex (Praga lingvistik to‘garagi vakillari), nemis, frantsuz, ingliz, Amerika, golland, polyak va boshqa tilshunoslik maktablari vakillarining xizmatlari dunyo tilshunosligida e’tirof etilgan va doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlarda tilga olinadi¹².

Rus tilshunosligida ham matn nazariyasi va lingvistikasi muammolari V.V.Odinov, I.R.Galperin, O.I.Maskalskaya, L.M.Loseva, Y.M.Lotman,

¹¹ Николайева Т.М. Лингвистика текста. Современное состояние и перспективы // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.8. Лингвистика текста. – М.: Прогресс, 1978. – С. 5-39.

¹² Новое в зарубежной лингвистике. Вып.8. Лингвистика текста. – М.: Прогресс, 1978; Галперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. – С.5-7; Дейк ван Т.А., Кинч В. Стратегии понимания связного текста // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.23. Когнитивные аспекты языка. – М.: Прогресс, 1988. –Б. 153-211.

Z.Y.Turayeva, N.D.Zarubina, E.V.Sidorov, O.L.Kamenskaya, A.I.Gorshkov, N.S.Valgina kabi ko‘plab tilshunoslar tomonidan o‘rganib kelinadi¹³.

Tilshunoslikdagi bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni atroflicha tahlil qilgan O.I.Maskalskaya o‘tgan asrning 60-70-yillariga kelib matni lingvistik o‘rganishga bo‘lgan qiziqish benihoya ortganligini, dunyo tilshunosligida matn lingvistikasi bo‘yicha misli ko‘rilmagan miqdorda tadqiqotlar yuzaga kelganligini va matn lingvistikasi mustaqil tilshunoslik fani sifatida to‘la e‘tirof etilganligini ta‘kidlar ekan, tadqiqotlardagi bu e‘tirofga tamal bo‘lgan asosiy qoidalarni quyidagicha guruhlarga bo‘lib umumlashtiradi:

1. Nutqning tugallangan fikr bildiradigan asosiy birligi gap emas, balki matndir; gap-fikr esa faqat xususiy holat, matnning alohida turidir. Matn sintaktik sathning oliy birligi hisoblanadi.

2. Konkret nutqiy asarlar – matnlarning asosida matn tuzishning umumiy tamoyillari yotadi; bu tamoyillar nutq sohasiga emas, balki til sistemasiga yoki til vakolatiga daxldordir. Bu jihatlar hisobga olinsa, shulardan kelib chiqilsa matni faqat nutq birligigina emas, balki ayni paytda til birligi deb ham hisoblash kerak.

3. Boshqa til birliklari kabi matn lisoniy belgilar sistemasining qismidir.

4. Matni alohida sathning nutqiy va lisoniy birligi sifatida har tomonlama o‘rganish tilshunoslik doirasidagi maxsus fan – matn lingvistikasini yaratishni taqozo etadi. O.M.Maskalskaya mazkur qoidalar, ayniqsa, birinchi banddagi qoidalar turli shakllarda o‘sha davrdagi tadqiqotlarda takrorlanib, “yangi lingvistik yo‘nalishning jangovar shiori sifatida jaranglagani”ga e‘tiborni qaratadi va g‘arb olimlarining ana shunday fikrlaridan namunalar keltiradi: “Biz odatda alohida so‘zlar bilan emas, gaplar va matnlar bilan gapiramiz” (X.Vaynrix). “Agar biz gapirsak, faqat matnlar bilan gapiramiz” (P.Xartman). “Til faqat matnlar shaklida va matn tuzish vazifasida kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasidir” (P.Xartman). “Biz

¹³ Лотман Й.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970; Лингвистика текста. Материалы научной конференции. Ч. I, III. – М.: 1974; Лосева Л.М. Как строится текст. – М.: Просвещение, 1980; Одиотсов В.В. Стилистика текста. – М.: Наука, 1980; Зарубина Н.Д. Текст: лингвистический и методический аспекты. – М.: Русский язык, 1981; Турайева З.Й. Лингвистика текста. – М.: Просвещение, 1986; Сидоров Э.В. Проблемы речевой системности. – М.: Наука, 1987; Каменская О.Л. Текст и коммуникация. – М.: Наука, 1987; Каменская О.Л. Текст и коммуникация. – М.: Высшая школа, 1990; Горшков А.И. Русская стилистика. – М.: Астрел – АСТ, 2001, - С. 258; Валгина Н.С. Теория текста. – М.: Логос, 2004.

tildan foydalanganimizda asosiy birlik soʻz yoki gap emas, balki matndir” (M.A.K.Xellidey). “Bizning kunlarimizda tilning oliy va eng mustaqil birligi gap emas, balki matn ekanligi umum eʼtirofiga sazovor boʻlib bormoqda” (V.Dressler)¹⁴.

Matn lingvistikasi shu tarzda shakllanib, rivojlanib bormoqda. Ammo rus tilshunosligida matn lingvistikasi oʻzining oʻrganish doirasiga keragidan ortiq koʻp masalalarni qamraganligi, boshqa fan sohalarining muammolariga aralashayotganligi, gap tushunchasini goʻyoki inkor etayotganligi kabi daʼvolar bilan aytilgan tanqidiy fikrlar ham yoʻq emas. Masalan, taniqli rus filologi R.A.Budagov dunyoning bir qator mutaxassislari tomonidan matn lingvistikasi boʻyicha yaratilgan tadqiqotlar jamlangan toʻplamning nashr etilishi¹⁵ munosabati bilan yozgan “Matn lingvistikasi” qay darajada lingvistikadir?” deb nomlangan maqolasida matn lingvistikasi insonning matnni yaratish, tuzish, tushunish, tarkiblash, kompozitsion yaxlitligini idrok etish kabi qobiliyatlarni oʻrganmoqchi boʻladi, holbuki, bu boshqa fanlarning vazifalarini oʻz zimmasiga olish boʻladi qabilida eʼtiroz bildiradi. Matnning hajmini chegaralash masalasida ham bu yoʻnalishning yoʻli toʻgʻri emasligini aytadi¹⁶. U shunday yozadi: “Matn lingvistikasi” yaratuvchilarining ilk niyatlari juda ham ezgu edi. Ilmiy-texnik taraqqiyotga, axborot asri talablariga javob berish. Tilda faqat kichik birliklargina emas, yirik birliklar ham mavjud ekanligini koʻrsatish. Matn oqimida gaplarning qoʻshilish shakllari va vositalarini tadqiq etish. Bularning bari diqqatga sazovor va ularni qoʻllab-quvvatlash kerak. Boshqa narsa – har jihatdan anʼanaviy (deyiladigan) tilshunoslikka oʻxshamaslikka intilish – printsiplial eʼtiroz tugʻdiradi... Yanada qaltis, zaif joyi tilning yirik va kichik birliklarini bir-biriga qarama-qarshi qoʻyishdir. Ayni paytda gapning, soʻz yoki soʻz birikmasining strukturasi nafaqat tadqiq etmasdan, balki hatto u bilan qiziqib koʻrmasdan turib, gaplarning qoʻshilish tamoyillarini oʻrganish mumkin emas...”¹⁷. Bunday eʼtirozlarga qoʻshilib boʻlmaydi, chunki matn lingvistikasi matnni asosiy birlik deb hisoblar ekan, gaplar yoki soʻz

¹⁴ Москальская О.И. Коʻrsatilgan asar: - С. 9.

¹⁵ Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 8. Лингвистика текста. – М.: Прогресс, 1978.

¹⁶ Будагов Р.А. Филология и культура. – М.: МГУ, 1980. – С. 78-80.

¹⁷ Будагов Р.А. Филология и культура. – М.: МГУ, 1980. – С. 85.

birikmalarining mavjudligini, ularning o'ziga xosliklarini, matn tarkibidagi o'rnini, umuman, an'anaviy tilshunoslik yutuqlari sifatida tan olingan qoidalarni aslo inkor etmaydi. Bu e'tiroz va tanqidiy fikrlarni mavjud muammolarga yanada sinchkovlik va hushyorlik bilan yondashish zaruriyatini unutmaslikka da'vat tarzida tushunish maqsadga muvofiq.

Turkiyshunoslikda matn masalasi birinchi marta o'tgan asr 70-yillarining boshida taniqli tatar tilshunosi M.Zakiyev tomonidan qo'yilgan. Dastlab u bog'li nutqni mustaqil gaplar o'rtasidagi aloqani o'rganmasdan tadqiq etib bo'lmasligini, chunki bog'li nutq hamisha turli usullar bilan o'zaro bog'langan gaplar zanjiridan iborat bo'lishini, shunga ko'ra bog'li nutqda gapdan yirik va murakkab bo'lgan "murakkab sintaktik butunlik" deb ataladigan birliklar ajratilishini (ular abzatsning qismi, abzats, yaxlit bob, ba'zan hatto yaxlit asar va sh.k.ga teng bo'lishini) ta'kidlaydi va yozadi: "Bog'li nutqda murakkab sintaktik butunlikni ajratish sof metodik maqsadni nazarda tutadi; u nutqning asosiy birligi bo'la olmaydi va boz ustiga gapga qarama-qarshi qo'yilishi mumkin emas"¹⁸.

1974-yilda nashr etilgan darsligida esa murakkab sintaktik butunliklarni "sintaktik butunliklar" ("sintaksik bōtennōr") deb nomlaydi va quyidagilarni yozadi: "Sintaktik butunliklar, ya'ni mustaqil jumalarning bog'lanishini o'rganish turkiy tillarda hali to'la yo'lga qo'yilgani yo'q. Holbuki, bu masala til ilmi uchungina emas, balki adabiyot ilmi uchun ham juda ahamiyatlidir. Chunki mustaqil jumalarning bog'lanishini bilmasdan turib, matnni, asarni, uning ayrim bo'laklarini, abzatslarini tugal uyushgan bir butun qilib tuzish juda qiyin"¹⁹. 1984-yilda bosilgan o'quv qo'llanmasida olim endi matn lingvistikasi muammolarini atroflicha yoritgan va matnning yaxlit birlik ekanligini e'tirof etgan. Kitobga "Matn sintaksisi" nomi bilan maxsus bo'lim kiritgan va unda matn turlari, matnning mazmuniy, kommunikativ, struktur, grammatik butunligi, matn kompozitsiyasi, matn sintaksisi va lingvistik kategoriyalar kabi masalalar bo'yicha fikrlar bayon qilingan²⁰.

¹⁸ Современный татарский язык. –М.: Наука, 1971. – С. 237.

¹⁹ Закиев М.З. Хэзерге татар әдәби теле (Синтаксис). – Казан, 1974. –С. 257.

²⁰ Закиев М.З. Хэзерге татар әдәби теле синтаксиси хәм пунктуатсиясе. – Казан: Татарстан китап нәшрияти, 1984. – С. 199-226.

Ozarbayjon tilshunosligida matn sintaksisi va uning o‘ziga xosliklari masalasi K.M.Abdullayev tomonidan atroflicha monografik planda tadqiq etilgan. Ozarbayjon tilidagi matn, uning kommunikativ, struktur-semantik xususiyatlari, matn birliklari mavjud qarashlar va original kuzatishlar asosida tahlil etilgan²¹. O‘zbek tilshunosligida ham matn va uning tadqiqi borasida anchamuncha ishlar qilingan. O‘zbek til ilmidagi birinchilardan bo‘lib akademik G‘.Abdurahmonov 1980-yilning 10-12-sentyabrida Toshkentda bo‘lib o‘tgan sobiq Ittifoq turkiyshunoslarining III konferensiyasida matn nazariyasiga bag‘ishlangan ma’ruza qilib, muammoning mohiyati va yechimlari haqida o‘z fikrlarini bildirgan, bir qator matn turlarini ajratib ko‘rsatgan edi²².

Tilshunos olim A.G‘ulomov matnning mohiyati bo‘yicha o‘zining qimmatli fikrlarini bayon qilgan. U dunyo tilshunosligida kechayotgan jarayonlardan muttasil boxabar keng qamrovli olim sifatida “Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis” darsligi (M.Asqarova bilan hamkorlikda)ni qayta ishlab, to‘ldirib, uchinchi nashrini tayyorlar ekan, matn masalasini chetlab o‘tolmaydi, ixcham bir tarzda bo‘lsa-da, matn haqidagi qarashlarini kitobga kiritadi.

1.2. Badiiy matn va uning ta’rifi

Badiiy matn va uning ta’rifi borasida so‘z ketganda tilshunos olim M.Yo‘ldoshevning quyidagi fikrlarini keltirib o‘tmoqchimiz.

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallif ixtiyoriga ko‘ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo‘lganidek qat’iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to‘la-to‘kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta’sirchanlik birinchi planga ko‘tariladi.

²¹ Абдуллаев К.М. Теоретические проблемы синтаксиса азербайджанского языка: Автореф. дис. ...д-ра филол. наук. – Баку, 1984. – С. 33-43.

²² Всесоюзная тюркологическая конференция // Советская тюркология. – Баку, 1981. – С. 93.

Ohangdor, jozibador soʻzlar koʻp qoʻllaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uygʻun bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi.

Insonni ruhan toʻlqinlantirish, yigʻlatish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, oʻyga choʻmdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga oʻrgatish kabi koʻplab imkoniyatlarni oʻzida mujassam qilgan.

Badiiy matn, maʼlumki, badiiy uslub talablari, qoliplari asosida shakllantiriladi, shuning uchun unda poetik, romantik, tantanavor ifoda shakllaridan keng foydalaniladi. Soʻzlarning tanlanishi, gap tuzilishi, leksik-semantik, ritmik-intonatsion birliklarning qoʻllanishi ham mazkur uslub talablaridan kelib chiqadi. Badiiy matnning lisoniy xususiyatlaridan eng muhimi ham shundaki, unda emotsional boʻyoqdor soʻzlarga, sheva soʻzlariga, tarixiy va arxaik soʻzlarga, jargon va argolarga, koʻchma maʼnoli soʻzlarga, maʼnodosh, shakldosh, oʻxshash talaffuzli va zid maʼnoli soʻzlarga, shuningdek ibora, maqol, matal va aforizm kabi birliklarga keng oʻrin beriladi.

Shuni alohida taʼkidlash kerakki, har qanday matn oʻziga xos sistemadir. Buni oʻzaro bir-birini taqazo qiladigan halqalar majmuiga oʻxshatish mumkin: tovush(harf)lar – soʻzlar – iboralar – gaplar – abzats – boʻlim, qism, boblar.

Matn tarkibidagi bu uzvlarning oʻzaro munosabati gapdagi soʻzlarning bir-biri bilan boʻlgan munosabatiga oʻxshaydi. Lekin matnning tarkiblanishi gapdagi tarkiblanishdan tubdan farq qiladi. Gapning sintaktik qolipi turgʻunlashgan, asrlar davomida shakllangan, hamma uchun qulay foydalaniladigan va deyarli oʻzgarmas boʻladi. Soʻzlovchi yoki muallif oʻz niyatiga koʻra mazkur qoliplardan ixtiyoriy ravishda foydalanaveradi. Matndagi holat bundan boshqacharoq. Matnda soʻzlar orasidagi munosabatdan koʻra gaplar oʻrtasidagi aloqadorlik muhim hisoblanadi. Agar gaplararo ham mazmunan, ham shaklan aloqadorlik mavjud boʻlmasa, matn butunligi haqida ham gapirish mumkin emas. Badiiy matndagi kompozitsion butunlik tushunchasi makon va zamon muvofiqligi, ifoda va qolip uygʻunligi hamda motivatsion yaxlitlik tushunchalari bilan uzviy bogʻliq. Badiiy matnni lisoniy taxlil qilish jarayonida bunday bogʻliqliklarga alohida eʼtibor qaratish lozim.

O'zbek tilshunosligida badiiy matn tahliliga oid tadqiqotlarni xususiyatiga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin. Mumtoz asarlar tili va uslubini o'rganishga oid tadqiqotlar (A.Shomaqsudov, A.Ahmedov, X.Mamatov, A.Karimov, Z.Hamidov, X.Bektemirov, M.Rustamov, Z.Xolmonova, T.Jumayev, M.Tojiyeva, R.Zohidov, I.Nosirov, X. Usmonov, B.Abdushukurov), she'riy asarlarning tili va uslubini o'rganishga oid tadqiqotlar (X.Nazarova, B.Choriyev, B.Yoriyev, S.Karimov, B.Umurqulov, S.Boboyeva, G.Keldiyorova, S.Normamatov), nasriy asarlar tadqiqiga oid ishlar (I.Qo'chqortoyev, Q.Samadov, E.Qilichev, F.Nasriddinov, B.Fayzullayev, U.Nosirov, H.Shamsiddinov, M.To'ychiyev, B.Yo'ldoshev, M.Yo'ldoshev, R.Normurodov, Y.Saidov, S.Boymirzayeva, M.Qambarov, M.Qosimova, L.Jalolova, A.Hasanov, A.Abdullayeva), dramatik asarlarning til xususiyatlari o'rganilgan tadqiqotlar (E.Abdiyev, Sh.Kazakov, F.Bobojonova), folklor asarlari til xususiyatlari o'rganilgan tadqiqotlar (Sh.Shoabdurahmonov, S.Tursunov, G.Jumanazarova), badiiy matn lingvopoetik asosda tahlil qilingan tadqiqotlar (I.Mirzayev, G.Muhammadjonova, D.Shodiyeva, M.Yakubbekova, Sh.Toshxo'jayeva, D.Shodmonova) badiiy matn tahlilining umumiy xususiyatlari haqida baxs yurituvchi nazariy xarakterdagi tadqiqotlar (R.Qo'ng'urov, I.Qo'chqortoyev, S.Karimov, B.Yo'ldoshev, M.Yo'ldoshev), badiiy matn antropotsentrik talqinda tadqiq etilgan tadqiqotlar (D.Xudoyberganova, Sh.Maxmaraimova)²³.

1.3. Tilshunoslikda badiiy matn – badiiy asar tadqiqi masalalari

Badiiy adabiyot tilini o'rganish, yozuvchining tili va uslubini o'rganish bugungi kunning dolzarb mavzularidan biri bo'lib qolmoqda. Chunki bu sohaga qiziqish va badiiy asarlar tilini tahlil qilishga mutaxassislar tomonidan katta e'tibor berib kelinmoqda. Badiiy asar tilini o'rganishda, avvalo, badiiy asarning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari asosida til materiallarini tahlil qilishga alohida ahamiyat

²³ Умуркулов Б. Ўзбек бадий насрининг лингво-услибий шаклланиш асослари. Фил.фан.док (DSc). дисс. – Тошкент, 2020.

berilmoqda. Shuningdek, yozuvchi asarlarida tildan foydalanish mahorati va yozuvchi uslubi kabi masalalarga ham alohida e'tibor berilgan holda yozuvchi asarlari tili o'rganilmoqda.

Badiiy asar tili tadqiqotchilari V.V.Vinogradov, G.O.Vinokur, A.I.Efimov, V.Grigoryev kabi olimlarning tadqiqotlari shu yo'nalishdagi tadqiqotlarni kuchaytirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi²⁴. Ushbu tadqiqotlarda badiiy adabiyot tiliga badiiy ta'sir etish vositasi sifatida yondoshilib, badiiy asarlar tilini ta'sirchanligi jihatidan tahlil qilishga alohida e'tibor qaratildi.

Badiiy adabiyot tilini o'rganish masalasi murakkab masalalardan biri bo'lib, bu masalalar adabiyotshunoslar tomonidan o'z yo'nalishlariga mos holda, tilshunoslar tomonidan esa til xususiyatlari jihatidan o'rganilib kelinmoqda. Badiiy asar tili xususida fikr yuritilar ekan, bu sohada tilshunosligimizda ko'plab ishlar amalga oshirilganligini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi.

Bu sohadagi tadqiqotlar asosan dissertatsiyalar bo'lib ko'pgina dissertatsiyalarda badiiy asar tili yozuvchining tili va uslubi yo'nalishida o'rganilgan. Shuningdek, badiiy asar tiliga oid bir qator maqolalar ham mavjud bo'lib, bu masalalarda badiiy til xususiyatlari, yozuvchining umumxalq tilidan foydalanishdagi mahoratlari haqida fikr yuritilgan.

Ushbu o'rinda badiiy asar tili haqidagi bir qator tadqiqot ishlariga o'z munosabatlarimizni bildirmoqchimiz. Shunday tadqiqotlardan biri B.Choriyevning G'.G'ulom poeziyasi tiliga bag'ishlangan dissertatsiyasidir²⁵. Bu tadqiqot o'zbek tilshunosligida yozuvchi asarlari tilini tahliliga bag'ishlangan ilk tadqiqotlardandir. Unda yozuvchi asarlari tili so'zlarning kelib chiqishi nuqtayi nazaridan o'rganiladi. Shuning uchun tadqiqotda ko'proq o'zbekcha so'zlar, fors-tojikcha, arabcha so'zlar, ruscha-internatsional so'zlar kabi lug'aviy vositalar qatlamlarga bo'lingan holda tahlil qilingan va har bir qatlamga oid so'zlardan shoirning foydalanish mahorati haqida fikr mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, tadqiqotda G'.G'ulom poeziyasi

²⁴ Виноградов. В.О. О языке художественной литературы. – М.: 1959; Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М.: 1991; Ефимов А.О языке художественных произведений. – М.: 1962; Стилистика художественной речи. – М.: 1961; Григорьев В. Поэтика слова. – М.:1979.

²⁵ Чориев Б Некоторые вопросы лексики поэзии Г.Гуляма, Афтореф. канд.дисс... – Ташкент, 1972.

tilidagi faol va nafaol bo‘lgan lug‘aviy vositalar shoirning ko‘pma’noli so‘zlardan, sinonim, omonim va antonimlardan foydalanish mahoratlari ham chuqur tahlil etilgan. Bu vositalarning badiiy adabiyot tilida tutgan o‘rni xususida o‘z qarashlari bayon etilgan.

Badiiy asar tilini o‘rganish sohasidagi tadqiqotlar orasida yozuvchining tili va individual uslubini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar alohida o‘rin tutadi. Shunday tadqiqotlardan biri B.Yorievning Shayxzoda asalari tiliga bag‘ishlangan tadqiqotidir²⁶. Bu tadqiqot iste’dodli o‘zbek shoiri M.Shayxzoda asarlarining til xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda badiiy adabiyot tili sohasini o‘rganishda she’riyatda so‘zning o‘rni va mohiyati nimadan iboratligini his etgan holda yondoshish lozimligi e’tirof etiladi²⁷.

Tadqiqotchi shoir asarlarining til xususiyatlarini o‘rganar ekan, badiiy asar jozibadorligi, ta’sirchanligi, g‘oyaviy yorqinligi va badiiy tiniqligini ta’minlashda lug‘aviy vositalardan foydalanishning o‘rni muhim ekanligini ta’kidlaydi va shu nuqtayi nazardan yondoshgan shoir asarlari tilini tadqiq qiladi.

Ushbu ishda Maqsud Shayxzoda asarlari tilida maxsus lug‘aviy vositalardan foydalanish mahoratini tahlil qilishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu o‘rinda shoirning sinonim so‘zlarni qo‘llashdagi mahoratiga diqqatimizni jalb etadi. Tadqiqotchi sinonimlarni ma’no va uslub jihatidan o‘ziga xosligini, uslubiy bo‘yoqqa ega ekanligini ta’kidlar ekan, bu holat tasvirlanayotgan voqeani aks ettirishda ijodkorga qo‘l kelishini e’tirof etadi. Shu nuqtayi nazardan Maqsud Shayxzoda ijodi tahlil qilinarkan, shoirning sinonimlardan foydalanish imkoniyatlarining cheksiz ekanligi faktik materiallar asosida talqin etib beriladi.

Shoir ijodini lug‘aviy jihatdan kuzatgan tadqiqotchi uning yangi paydo bo‘lgan so‘zlardan ham mahorat bilan foydalanganligini tahlil qiladi. Bunday so‘zlarni qo‘llash orqali shoirning yangi hayotni, yangicha qarash va yangi munosabatlarni o‘z ijodida aks ettirganligini ko‘rsatib beradi.

²⁶ Ёриев Б. Бадий асар тилини ўрганиш. – Термиз. 1999.

²⁷ Ёриев Б. Ко‘рсатилган асар: - Б. 4.

Shuningdek, tadqiqotda shoir asarlarida eskirgan soʻzlarning qoʻllanilishi, antonimlarning, omonimlarning, frazeologizmlarning qoʻllanilishi haqida ham fikr-mulohazalar bildirib oʻtadi.

Shu asosda tadqiqotchi Shayxzoda ijodida maxsus lugʻaviy vositalarning tutgan oʻrnini izohlab beradi.

Ishda soʻz turkumlarining uslubiy qoʻllanilishiga ham alohida eʼtibor beriladi. Shoir ijodida atoqli va turdosh otlarning qoʻllanilishi, ulardan foydalanilganda mazmunning aniq ifodalanishi, fikrning yorqinligini taʼminlashga ham ahamiyat beriladi. Shuningdek, shoir sheʼriyatida ishlatilgan yangi soʻzlarning tahlili oʻziga xoslik kasb etgan. Bunday soʻzlar ishda okkazional soʻzlar sifatida talqin va tahlil qilingan.

Badiiy adabiyot tilini tahlil etishning usul va yoʻllari har xil ekanligi yuqorida qayd etib oʻtilgan tadqiqotlarda yaqqol koʻrinadi. Shu boisdan ham badiiy asar tilini oʻrganishda uni ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik yoʻnalishida oʻrganishga boʻlgan harakat ancha kuchli boʻlgan. Xususan, X.Doniyorov, B.Yoʻldoshevlarning “Adabiy til va badiiy stil” nomli asari ana shu yoʻnalishdagi tadqiqotlardandir²⁸.

Bu ishda oʻzbek yozuvchilaridan Gʻ.Gʻulom, H.Olimjon va boshqa ijodkorlarning tildan foydalanishdagi mahoratlari soʻz qoʻllash va obraz yaratish bilan bogʻliq ravishda ochib berilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga P.Qodirov, S.Toʻrabekova, I.Qoʻchqortoyev, E.Qilichev, Q.Samadov²⁹ kabi tadqiqotchilarning ishlarini kiritish mumkin. P.Qodirov oʻz tadqiqotida prozaik asarlarda xalq tilidan foydalanish asosida badiiy taʼsirchanlik va obrazlilikni taʼminlash haqida fikr yuritgan boʻlsa, S.Toʻrabekova shoir Gʻ.Gʻulom asarlarining tilini tahlilga tortar ekan, uning til orqali oʻzining uslubini yaratganligini qayd qilib oʻtadi. Prof. I.Qoʻchqortoyevning tadqiqoti umumiyroq. Unda badiiy nutq uning oʻziga xosligi talqin etilib, bu nutq turida uslub yaratuvchi muhim vosita soʻz ekanligi xususida fikr yuritiladi. Prof. R.Qoʻngʻurov oʻz tadqiqotida badiiy asar uchun muhim boʻlgan

²⁸ Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадий стил. – Тошкент: Фан, 1980.

²⁹ Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: 1973; Тўрабекова С. Тил ва услуб. – Тошкент: 1963; Қўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент, 1982; Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент, 1977; Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент, 1982; Саматов Қ. Ойбек сўз санъаткори. – Тошкент, 1965.

masalaga alohida ahamiyat berdi. Unda badiiy tilning tasviriy vositalari poeziya materiallari asosida talqin etildi va bu vositalarning badiiy nutq jarayonida tutgan o'rni faktik materiallar asosida ochib berildi. Natijada ushbu tadqiqotdan keyin badiiy asar tilini o'rganuvchilar badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishiga alohida e'tibor bera boshladilar. Chunki, badiiy asarda fikr va mazmunning ifodalanishi so'z bilan bog'liq bo'lsa, asar badiyatining kuchayishi obrazli vositalarning qo'llanilishi bilan bog'liq ravishda vujudga keladi. Shuning uchun tadqiqotchi o'z asarida badiiy nutqda metafora, sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, takror, parallelizm va boshqa ko'plab uslubiy vositalarning tutgan o'rnini bu tadqiqotda izohlab berdi va bu bilan tadqiqotchilar diqqatini yangi yo'nalishdagi o'rganish obyektiga tortdi. E.Qilichev tadqiqoti ham mohiyati jihatidan R.Qo'ng'urov ishiga yaqin. Unda yozuvchilarning lug'aviy vositalardan foydalanish bilan birgalikda tasviriy vositalarni qo'llash mahorati haqida fikr yuritiladi.

Ushbu tadqiqotlar keyingi yillarda yozuvchi asarlari tilini o'rganish sohasidagi harakatlarni yanada kuchaytirib yubordi. Dastlab yozuvchi asarlari tili faqat lug'aviy jihatdan o'rganilib, unda ijodkorning sinonim, omonim, antonimlardan, eskirgan so'zlardan, dialektal so'zlardan foydalanish mahoratlari haqida fikrlar bildirilgan bo'lsa, so'nggi yillarda bu yo'nalishdagi ishlarning tadqiq maydoni kengaydi. Keyinchalik paydo bo'lgan tadqiqotlarda yozuvchi uslubini yaratish uchun xizmat qiladigan barcha lug'aviy vositalarni tahlil qilishga e'tibor kuchaydi. Badiiy nasr tilining ilk tadqiqotchilaridan biri prof. I.Qo'chqortoyev³⁰ o'zbek tilshunosligida birinchilardan bo'lib A.Qahhor asrlari tilining frazeologik xususiyatlarini tadqiq qildi. Badiiy asar tilida yozuvchining so'z qo'llash mahorati bilan bog'liq ravishda tahlil qilingan ilk tadqiqotlardan yana biri Q.Samadovning³¹ Oybek asrlari tilining tadqiqiga bag'ishlangan nomzodlik ishidir. Olim ushbu ishida yozuvchining til birliklaridan foydalanish mahoratini, xalq tilining bitmas-tuganmas xazina ekanligini ko'rsatish uchun til vositalarini tanlab asrlarda qanday ishlatganligini

³⁰ Кучкартаев И. Фразеологическое новаторство А. Каххара. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент,1965.

³¹ Самадов К. Некоторые вопросы языкового мастерства Айбека. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967.

misollar bilan tahlil qilib bergan. B.Yo‘ldoshevning Said Ahmad asarlari tili va uslubini tahlil qilishga bag‘ishlangan dissertatsiyasi uslubini tahlil qilishga bag‘ishlangan dissertatsiyasi ham shunday tadqiqotlardan biridir³². Ushbu tadqiqotlardan keyin o‘zbek tilshunosligida uzoq yillar badiiy asar tilining tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlar amalga oshirilmadi.

Mustaqillik yillarida esa badiiy adabiyot tili, xususan, badiiy nasr tili tadqiqi bilan shug‘ullanish yana kuchayib ketdi. Bu sohada bir qator dissertatsiya va monografiya xarakteridagi tadqiqotlar vujudga keldi. Prof. S.Karimovning “O‘zbek tilining badiiy uslubi” monografiyasi badiiy uslubni lingvistik tadqiq qilishdagi dastlabki tadqiqotlardan biridir³³. Mazkur monografiyada funksional uslublar doirasida badiiy uslubning o‘rni, bu uslubni vujudga keltiruvchi vositalar xususida fikr yuritilib, badiiy uslubning o‘rganilishi tahlil qilingan. Tadqiqotchi badiiy uslub haqida fikr yuritar ekan: “Badiiy uslubni to‘laqonli tasavvur qilishimiz uchun zarur bo‘lgan yana bir muhim tomon uning shakllanishidagi yozuvchi shaxs masalasidir. Yozuvchining so‘z ustida ishlashi – bu uning ijod jarayonida matnni qayta-qayta ko‘zdan kechirishi, syujetning, obrazning tasvir va bayonning ta’sirli bo‘lishi uchun mehnat qilishidir”, deb yozadi. Ko‘rinadiki, badiiy uslubni vujudga keltiruvchi muhim vositalardan biri yozuvchining so‘z ustida ishlashi, til vositalaridan mahorat bilan foydalanishidir³⁴.

Ayniqsa, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish asosida nutqiy imkoniyatlarni vujudga keltirishga alohida e’tibor qaratildi. Bunday tadqiqotlar yozuvchining tildan foydalanish mahoratini to‘laqonli yoritib berish imkoniyatini yanada kuchaytirdi. Ana shunday tadqiqot ishlaridan biri R.Normurodovning “Shukur Xolmirzayevning badiiy mahorati” nomli monografik tadqiqotidir³⁵.

Ushbu ishda yozuvchi asarlari tilini lug‘aviy aspektda o‘rganishga alohida ahamiyat berilgan. Shu boisdan ham yozuvchi asarlari leksikasi tarkibiga ko‘ra tahlil qilinadi. Ma’lumki, lug‘aviy vositalar, badiiy vositalar badiiy asar tilining uzviy

³² Юлдашев Б. Язык и стиль произведений Саида Ахмада. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1979.

³³ Каримов С. Ўзбек тилининг бадий услуби. Филол. фанлари док. дисс. ... автореф. – Тошкент, 1993.

³⁴ Ҳамидов А. Мурод Муҳаммад Дўст асарлари лингвопоетикаси. – Тошкент, 2021.

³⁵ Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари. фил. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2001.

qismi bo‘lib, ular yordamida yozuvchining g‘oyasi ifodalanadi, asar mazmuni ochib beriladi. Biroq, lug‘aviy vositalarning vazifasi shu bilan chegaralanib qolmaydi. Badiiy asarlarda lug‘aviy vositalar badiiy tasvirni vujudga keltiruvchi, qahramonlarning boshqalarga munosabatlarini ifodalovchi, asar ta‘sirchanligi va obrazlilikini namoyon qiluvchi asosiy vositadir. Shu boisdan ijodkorlarning tildan foydalanish mahorati haqida fikr yuritiladigan bo‘lsa so‘z qo‘llash masalalariga alohida ahamiyat beriladi. Ushbu tadqiqotda ham yozuvchining so‘z qo‘llash mahorati alohida tekshirish obyekti sifatida tanlangan. Ishda yozuvchining so‘zdan to‘g‘ri va unumli foydalanishi natijasida so‘zning ta‘sir kuchini oshirilishi jarayonlari alohida o‘rganilgan.

Bu holat avvalo, yozuvchi ijodida so‘zning o‘z va ko‘chma ma‘nolarda qo‘llanilishi asosida tahlil qilingan.

Tadqiqotda lug‘aviy vositalarning uslubiy xususiyatlariga ham e‘tibor qaratilgan va yozuvchining sinonimlardan so‘zning ko‘pma‘noliligidan uslubiy vosita sifatida mahorat bilan foydalanishi faktik materiallar asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning ikkinchi bobi “Yozuvchining til tasviriy vositalaridan foydalanish mahorati” deb nomlangan bo‘lib, unda keyingi paytlarda badiiy asar tilining keng o‘rganilayotgan masalalaridan biri – tasviriy vositalarning asar tilining ta‘sirchanligini uyushtirish jarayonlari ko‘rsatilgan. Ayniqsa, Sh.Xolmirzayev asarlari tiliga xos perefrazalarni tahlil etilganligi ushbu ishni o‘ziga xosligini belgilaydi. Perefraza narsa va predmetlarni qayta nomlaydi. Odatda, bunday atashda narsa va predmet obrazli ifodalanadi. Shu boisdan ham perefrazalar badiiy asar tilining obrazlilikini, ta‘sirchanligini ta‘minlovchi vositalardir.

Badiiy asar tilining ta‘sirchanligini ta‘minlovchi o‘xshatish, metafora, epitet, sarkazm kabi badiiy til vositalari ham yozuvchi asarlari misolida tahlil etib berilgan.

Ushbu tadqiqotning o‘ziga xos yana bir jihati unda noadabiy til vositalaridan uslubiy imkoniyatlarni yaratish maqsadida foydalanilganligining tahlil qilinishidir. Ishning bu qismida yozuvchining dialektizmlardan, og‘zaki nutqqa xos so‘zlardan foydalanish mahorati ochib berilgan. Shuningdek, yozuvchi asarlari tiliga xos okkozional so‘zlar xususida ham fikr bildiriladi. Bu lug‘aviy vositalardan

yozuvchining mahorat bilan foydalanganligi tahlil qilinadi. Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, yozuvchi asarlari tilini o‘rganishga turlicha yondoshilgan.

Tadqiqotlarning ko‘pchiligida ijodkorning lug‘aviy vositalardan foydalanish mahoratini talqin qilish ancha ustun turadi. Zero, til vositalari yozuvchi uchun fikrni bayon etish quroli ekan, bevosita ijodkor mahoratini namoyon etish vositasi hamdir. Shu sababli tadqiqotlarda ko‘proq badiiy asar tilining shu xususiyatlariga alohida ahamiyat berilgan. Shu bilan birgalikda so‘zlardagi ko‘pma’nolilik, sinonim, omonim, antonimlik xususiyatlari ham ijodkorning fikr ifodalash uchun muhim vositasidir. Shunga ko‘ra bu tipdagi lug‘aviy vositalar ham yozuvchi mahoratini belgilovchi omillardan biriga aylanadi. Badiiy asarlarda ta’sirchanlik obrazli vositalarni qo‘llash asosida kuchayadi. Shuningdek, badiiy asarda ma’lum joyga xoslikni ifodalash maqsadida dialektizmlardan, og‘zaki nutqqa xos so‘zlardan ham foydalaniladi.

Shunga ko‘ra badiiy asar tili tadqiqotchilari asar tilini va uslubini o‘rganar ekan, ana shu vositalarga alohida diqqatini jalb etadi.

Badiiy asar tilini o‘rganishda obyektни to‘g‘ri tanlashning ahamiyati katta. Adabiyotda katta salmoqqa ega bo‘lgan asarlar yaratib, el-u xalq diliga, tiliga tushgan ijodkorlarning asarlari tilini o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanib, aynan shunday ijodkorlarning tildan foydalanish mahoratini yoritish orqali muayyan xulosalarga kelinadi. Darvoqe, badiiy asr tili badiyatini o‘rganish o‘zbek tilshunosligining ham o‘tmishi, ham bugungi kuni bilan bevosita aloqador bo‘lib, bu narsa, shubhasiz, mazkur sohaning tilshunoslik uchun muhim va zarur ekanligini ko‘rsatadi. Qolaversa, badiiy asar tilini o‘rganish hayotni, jamiyatni, inson ruhiy kechinmalarini his etishni namoyon qilish demakdir. Ayni zamonda har bir ijod ahlining talant va mahoratini belgilash, uning til vositalaridan foydalanish borasidagi mohirlik va iqtidorini aniqlashni bevosita ifoda etadi. Ana shunday ijodkorlardan biri Mirmuhsindir.

Mirmuhsin o‘zbek adabiyotining o‘rta bo‘g‘iniga to‘g‘ri keladigan ijodkor bo‘lib, bugungi kunda xalqimiz sevib o‘qiydigan ko‘pgina asarlar yaratdi. Uning asarlari kitobxonlarning sevimli asarlariga aylanib qoldi.

Mirmuhsin ijodkor sifatida tilni juda qadrllovchi, til vositalariga alohida e'tibor bilan qaragan holda, undan o'z asarlarida foydalana olgan ijodkordir. Uning asarlari o'zbek tilining jilodorligini, ta'sirchan vositalarga boyligini, shuningdek, uslubiy jihatdan rang-barangligini ko'rsata olgan asarlardir. Har bir ijodkorning o'z so'zi, o'z ovozi bo'lganidek, Mirmuhsin asarlarida ham boshqalarga xos bo'lmagan ifoda vositalari, badiiy tashbehtar ko'plab uchraydi. Shu boisdan tadqiqot mavzusi sifatida Mirmuhsin asarlari tilini ishlashni maqsad qilib oldik.

Badiiy asar uchun so'z asosiy oзуqa manbayi hisoblanadi. So'z badiiy asarni jonlantiradigan, unga jilva beradigan, rang-barang manzara hosil qiladigan bezakdir. So'z va uning badiiy matndagi o'rni hamda badiiy asrga yangicha mazmun baxshida etishi ko'plab tilshunos olimlar izlanishlarida o'z ifodasini topgan. Umuman olganda, so'zdan nechog'lik yoki qay yo'sinda foydalanish badiiy asar uchun bitmas-tuganmas boyluk hisoblanadi. Mirmuhsin so'z ijodkori sifatida har bir so'zdan unumli va o'rinli foydalanadi, nima demoqchi bo'lsa, albatta, o'z fikrini so'z vositasida bayon eta oladi. Shuning uchun ham yozuvchining har bir asarini tili puxta, sodda, ravon hamda o'qilishi tushunarligi bilan xarakterlanadi. Mirmuhsin asarlari tiliga nazar tashlar ekanmiz, birinchi navbatda yozuvchining aytayotgan fikrini qisqa, ixcham, lo'nda bayon etayotganligiga guvoh bo'lamiz. Qisqalik esa asarning yanada mazmuniyiligini oshiradi, o'quvchini ko'proq mushohada yuritishga majbur qiladi. Ikkinchidan, asar tilida ishlatiladigan har bir so'zni o'z o'rnida qo'llay biladi, unga turlicha bezak berib asar tilining ohangdor, jozibador bo'lishiga erishadi. Pirovardida o'quvchi asar mazmunini o'z-o'ziga singdirib olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mirmuhsin o'ta nozik didli yozuvchidir. U har bir so'zni nozik did, kuzatuvchilik bilan tanlaydi. Shuning uchun ham ijodkorning tili ohangdor va jozibadordi. Zero, yozuvchi asrlari tili sodda, ravon bo'lishi bilan birga ixcham ekanligi borasida yuqorida ham fikr yuritdik. Bu o'z navbatida Mirmuhsinning jahon adabiyoti an'alariga amal qilganligidan dalolat beradi. Xullas, yozuvchining ijodi serqirra va serbo'yoqdir. Shunga ko'ra yozuvchi asrlari tili o'ziga xos ohangda ifoda etilganlik nuqtayi nazaridan ham ajralib turadi.

Badiiy asar tilini o‘rganish ijodkorning o‘ziga xos badiiy til vositalarini tanlay bilishi, undan o‘rinli va unumli foydalana olishini taqozo etadi. Shubhasiz, tadqiqotchi yozuvchining badiiy mahoratini, o‘ziga xos uslubini o‘rganish borasida masalaning shu tomoniga diqqat-e’tiborini qaratmog‘i lozim bo‘ladi.

Mirmuhsin ijodini o‘rganish jarayonida yozuvchining o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan lug‘aviy va uslubiy vositalardan foydalanish imkoniyatlarini baholashimiz mumkin bo‘ladi. Ta’kidlash joizki, yozuvchi umumxalq tilida mavjud bo‘lgan barcha lug‘aviy va uslubiy vositalardan mohirlik bilan foydalangan. Ayniqsa, uning badiiy til tasvir vositalaridan foydalanishi, og‘zaki nutqqa xos so‘zlarni ishlatishida topqir va zukkoligi, yangi so‘zlarni ishlatishi, shuningdek, frazemalardan foydalanish mahorati xarakterlidir. Xullas, yozuvchi asarlarida so‘z asosiy vosita sifatida ishlatiladi. Mazkur tadqiqotimizda yozuvchining tildan foydalanish mahoratini asosan ikki yo‘nalishda, ya’ni yozuvchining so‘z qo‘llash mahoratini o‘rganish va sinonimlardan foydalanish jarayonlarini tahlil qilishga asosiy e’tiborni qaratdik.

Bob bo‘yicha xulosa

1. O‘tgan asr 60-yillarining ikkinchi yarmidan boshlab “matn lingvistikasi” degan yo‘nalish katta sur‘at bilan rivojlanish pallasiga kirdi. Yaxlit nutqiy butunlik sifatidagi matn va uning tashkil etuvchi unsurlari, omillari, xususiyatlari turli nuqtayi nazarlardan tadqiq etila boshlandi. Bu soha atrofida o‘ziga xos, aytish mumkin bo‘lsa, juda katta “shov-shuv” paydo bo‘ldi. Hatto ayrim mutaxassislar matn lingvistikasini tilshunoslikning alohida sohasi emas, balki umuman, tilshunoslikning poydevori, bazasi deb hisobladi.

2. Turkiyshunoslikda matn masalasi birinchi marta o‘tgan asr 70-yillarining boshida taniqli tatar tilshunosi M.Zakiyev tomonidan qo‘yilgan. Dastlab u bog‘li nutqni mustaqil gaplar o‘rtasidagi aloqani o‘rganmasdan tadqiq etib bo‘lmasligini, chunki bog‘li nutq hamisha turli usullar bilan o‘zaro bog‘langan gaplar zanjiridan iborat bo‘lishini, shunga ko‘ra bog‘li nutqda gapdan yirik va murakkab bo‘lgan “murakkab sintaktik butunlik” deb ataladigan birliklar ajratilishini ta’kidlaydi;

3. Badiiy adabiyot tilini o‘rganish masalasi murakkab masalalardan biri bo‘lib, bu masalalar adabiyotshunoslar tomonidan o‘z yo‘nalishlariga mos holda, tilshunoslar tomonidan esa til xususiyatlari jihatidan o‘rganilib kelinmoqda. Badiiy asar tili xususida fikr yuritilar ekan, bu sohada tilshunosligimizda ko‘plab ishlar amalga oshirilganligini alohida ta’kidlash lozim bo‘ladi;

4. Badiiy asar tilini o‘rganishda obyektning to‘g‘ri tanlashning ahamiyati katta. Adabiyotda katta salmoqqa ega bo‘lgan asarlar yaratib, el-u xalq diliga, tiliga tushgan ijodkorlarning asarlari tilini o‘rganish maqsadga muvofiq hisoblanib, aynan shunday ijodkorlarning tildan foydalanish mahoratini yoritish orqali muayyan xulosalarga kelinadi.

II BOB. MIRMUHSINNING LUG‘AVIY VOSITALARDAN FOYDALANISH MAHORATI

2.1. Mirmuhsin asarlari tilining o‘ziga xos xususiyatlari

Badiiy matnning lingvistik tahlilini hozirgi tilshunosligimizda jadal o‘shib borayotgan yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etsak arziydi. Badiiy matnning har qanday shaklida ham inson va insoniylik tuyg‘ularini targ‘ib qiluvchi g‘oyalar yotadi. Badiiy matnlar xalq turmush tarzidan, o‘y tashvishidan, kechmishlaridan olinib ifodalanadi va xalqning boshqa qismiga uzatiladi. Shuning uchun ham u necha asralrdan buyon xalq uchun sevimliligicha qolmoqda. Badiiy adabiyotning vazifasi faqat go‘zal so‘zlar qo‘llay olish mahoratini ko‘rsatish emas, u inson qalbini ezgulikka to‘ldirib, yovuzlikdan yiroqlashtirishi lozim. Shu bilan birga jamiyat hayotini ma‘lum taqdirlar asosida ochib berish vazifasi uning bo‘ynidadir.

Istiqlol yillarida o‘zbek tilshunosligida badiiy matnni lingvistik jihatdan o‘rganishning yangi davri boshlandi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalq tarixi, adabiyoti, tilinin keng miqyosda o‘rganishga alohida ahamiyat berib borilmoqda, Ilmiy tadqiqotlarda badiiy asar tilini, yozuvchining tili va uslubini o‘rganishga, badiiy matnlarda lingvistik vositalarning barcha jihatlari asosida tahlil qilishga e’tibor kuchaydi. Badiiy matnni tadqiq qilishning yangi metodlari maydonga keldi³⁶.

Ma‘lum yozuvchining asarlari til xususiyatlarini o‘rganishda, yozuvchining til imkoniyatlaridan unumli foydalanish, so‘zlarni ifodalashda badiiy, estetik, tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini inobatga olish, har bir elementlari, voqealar rivojining tasvirlanishidagi so‘z qo‘llash mahorati, tilda mavjud leksemalarni o‘rinli qo‘llay olish kabi elementlariga e’tibor qaratib, asarlarini tahlil qilish talab etiladi. Shunga ko‘ra Mirmuhsin Mirsaidov ijodini lingvistik jihatdan tahlil

³⁶ Хамидов А. Мурод Мухаммад Дўст асарлари лингвопоетикаси. – Тошкент, 2021 – Б. 5.

qilayotganimizda yuqoridagi talab va ehtiyojlarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Adib Mirmuhsin Mirsaidov soʻzlardan foydalanishda har bir detalga manzaraga va albatta, ruhiyat va holatga alohida eʼtibor beradi. Koʻngil kishilarini taʼriflayotganda nozik qochirimli soʻzlardan foydalanishga urinsa, salbiy qahramonlarni taʼriflayotganda esa ularning xarakteriga mos boʻlgan dagʻalroq soʻzlarni keltirishdan bosh tortmaydi. Masalan: *Xuroson yoshlari mavlononing billurdek tiniq, bahordek teran turkiy gʻazallarini benihoya sevishardi* (Meʼmor).

Ushbu misolda *bahrday teran* jumlasida qoʻllangan bahr soʻzi “*degiz okean*” maʼnosini beradi. Koʻchma maʼnoda qoʻllanganda esa “*tugʻyon va toʻfon*” maʼnolarida qoʻllaniladi, ammo bu misolda oʻz maʼnosida qoʻllanilgan. Teran soʻzi esa “*Chuqur, choʻnqur*” degan maʼnoni anglatadi ular koʻchma maʼnoda ishlatilganda mazmun mohiyat jixatdan keng qamrovli, chuqur, kuchli degan maʼnoni ifodalashda ishlatiladi. Demak, “*bahrday teran*” birikmasi “*okean singari keng va chuqur mazmunga boy*” degan mazmunda ishlatilgan.

Mavlono Lutfiy shirin zabon dilbar odam ekanligi meʼmor-u muhandislar orasida maʼlum edi (Meʼmor). Ushbu sifatlash mavlono Lutfiy hazratlariga qaratilgan boʻlib unda shoirga nisbatan “*shirin zabon*” va “*dilbar*” kabi tavsiflar keltiriladi. Shirin zabon va dilbar soʻzlari ona tilimizda tojik tilidan kirib kelib, asosan, badiiy uslubdagi manbalarda qoʻllanilib odatda soʻzlasuv uslubida juda kam foydalaniladi. Chunki bu soʻzlar bizga badiiy adabiyotda, asosan, ayollarni tariflashda qoʻllanilgan. Ammo ustoz bu soʻzni shoir Lutfiy taʼrifiga nisbatan qoʻllab ul zotning koʻngli va ruhiy kayfiyatini ochib berish uchun foydalangan. Dilbar soʻzi tojikcha “koʻngilni oʻziga maftun etuvchi, jozibali” maʼnosini anglatadi. Lutfiy hazratlarining ham dil-u qalbi samimiyatga boyligini ushbu sifatlashlar bilan bezaydi. Yaxshi amallarni koʻp qiladigan insonlarga nisbatan “serfazilat” yomon xulqli insonlarga nisbatan esa “badkirdor” soʻzlarini qoʻllaydi. Masalan: *Baʼzan serfazilat kishi boshiga ish tushmaguncha, atrofidagi odamlarning fazilati uncha yarqirab koʻrinmas ekan. Aksincha, baʼzan serfazilat koʻringan kishilar dard-u alam bilan panoh tilab qolishgan kunlarda fazilat u yoqda tursin, tadbirkor odam*

ekanligi ham namoyon bo'lib qoldi. Darhaqiqat ijobiy xislat yaxshi xulq va xususiyatga nisbatan biz fazilat atamasini qo'llaymiz. **“Serfazilat”** so'zini esa shunday ezgu xislatning juda ko'pini o'zida mujassam etgan komil inson darajasidagi kishilarga nisbatan ishlatilishi to'g'riroqdir. **“Badkirdor”** leksemasi esa yomon ishlarni bajarishni o'ziga o'zi kasb qilib olgan qabih yumushlardan tab tortmaydigan yaramas odamlarga nisbatan ishlatiladi. Adibning yutug'i shundaki bu ikki so'z orqali inson shaxsiyati va xarakterini ochib bera oladi. Bundan tashqari ustoz **“xarakter”** so'zi o'rnida bir necha o'rinlarda **“tabiat”** so'zini qo'llaydi. Masalan. **“Har bir harakatini diqqat bilan kuzatib turgan Mirhaydar uning o'ziga yarasha rind tabiatli kishi ekanini payqadi”**. Adibning **“Tungi chaqmoqlar”** asaridan olingan bu parchada **“rind tabiatli”** so'zi cho'rtkesar, tez qaror qabul qilishdan cho'chimaydigan, xarakterdagi kishi ma'nosini ifodalab kelgan. Boshqa bir o'rinda, ya'ni **“Me'mor”** romanida esa:

“...sipoh tabiat, rind yigitlar o'zlarining chopqir, go'zal otlarini yasatib yo'rg'aligini, tez chopishini namoyish qildilar (Me'mor) kabi qo'llangan o'rinlarni ko'rishimiz mumkin.

So'zlarini qo'llashdagi o'rinlilik, tasirlilik, jonlilik, mazmunan boylik asar qimmatini belgilaydi va bu asarning umrini uzaytiradi. Mirmuhsinning **“Sozanda”** nomli hikoyasida bosh qahramon Sirojiddinning **“Navo”**ni chalganida yig'ilganlarda kuy quydagicha taassurot uyg'otadi:

*O'sha bazm kechasi usta Sirojiddin ko'zini yumib olgani holda **“Navo”**ni shunday bir zavq bilan chertdiki, torlar tilga kirdi, dam qah-qah urib, dam noz etib, dam **erkalanib yig'lab**, dam **sho'xlikdan silkinib**, dam skut saqlab, jilmayib dam **shalolalardek tog'-u toshni qulatib**, dam ohista mavj urib, butun bir ulkan dalani, yuzlab mehmonlarni chulg'ab oldi.*

Yuqoridagi parchadagi **“sho'xlikdan silkinib, erkanlab yig'lab, shaloladek tog'-u toshni qulatib”** kabi tasviriy ifodalar adib badiiy nutqining o'ziga xos xususiyatini ochib berish uchun xizmat qilmoqda, va matnga noodatiy go'zal tashbehtar o'zgacha obraz va jo'shqinlik baxsh etmoqda. Ushbu satrlarni o'qir ekansiz beixtiyor o'zga dunyoga tushgandek bo'lasiz, go'yo navo haqida emas

go‘zal qizning tarifi haqida uning chalgan kuyiga jon kirib go‘yo qizga aylanib qolgandek uning qah-qah kulgusi yosh boladek erkali tog‘- u toshni chulg‘ab olgan sho‘xliklari “deya tasvirlanayotgan navoni o‘qiyotganingizda ko‘nglingiz o‘sha beg‘uborlik va samimiylikdan bir entikmasligining iloji yo‘q. Haqiqiy yozuvchi shunday jonbaxsh bo‘lishi kerakki u mudragan qalblarni uyg‘ota olishi va yangi umidlarni qalbdagi kurtaklashi uchun turtki bo‘lishi lozim. Adib so‘zlardan foydalanayotganda unda faqat jimjimador so‘zlarnigina ishlatmaydi. “Yashiringan kuch” hikoyasida shunday jumlaning ishlatiladi. *“Arslon chiroyli kastyumlarini gardirobga ilib kambinzon kiyib universal mindi. Dala oftobidan yangi hammomdan chiqqan odamdek a‘zoyi badani so‘lqillab ishga tushib ketdi”*.

Aslida yozuvchi bu parchada ham o‘xshatishning ajoyib namunasini keltirgan ammo shu o‘xshatishga yana ham jon berib turgan so‘z “So‘lqillab”so‘zi nazarimda ushbu so‘z, asosan, o‘zbek tilida har qanday kamchiliklardan holi va o‘zining mukammal darajasiga yetgan narsa bazan inson uchun ishlatiladi. Masalan, *“So‘lqillab pishgan non”* yoki *“So‘lqillagan chollar”* kabi jummalarga duch kelamiz. Mirmuhsin hikoyasidagi Arslon ham dalaga chiqib o‘zining bor g‘uborlaridan toza bo‘lgandek o‘zining aslini ko‘rsatishdan baxtiyor etib tasvirlangan. Adibning “Qulamas qoya” hikoyasida esa keksa professor Jo‘rabekning tilidan keltirilgan hayot haqiqatlarini keltiradi. Unda yozuvchi go‘yo o‘zini, o‘zining o‘limidan keyingi hayotini ko‘ra bilgandek:

“Men o‘lmayman, men tuproqqa qo‘shilganimda ham yana gullar tomirida ko‘tarilib, g‘uncha yozaman, umr bo‘yi boqib o‘rganganim quyoshimni ko‘raman. Men- bahor tomchilarida yana yerga tushaman, yana giyohlar tomiridan yuqoriga ko‘tarilib yorug‘ dunyoga qarayman ha men hech yo‘qolib ketmayman”.

Adibning ushbu so‘zlarida aslida ko‘chma ma‘no yashiringan. Uning asarlari, sherlari, so‘zlari abadul abad kelgusi avlodlarning yo‘ldoshi bo‘lishini, u anglagan haqiqatlarni farzandlari ham anglashi uchun xizmat qilishi, uning umr bo‘yi qilgan zalvorli mehnati uning hech ham yo‘qolib ketmasligining kafolatidir, *tomirdagi quyosh nuri* bu yosh keksa professor va gullar esa yosh avalodlardir, ular orqali u yana va yana dunyoni qayta ko‘raveradi.

Badiiy asarda har bir soʻz, qochirim, yoki tag maʼno ifodalovchi soʻzlar ham oʻzining alohida oʻrni bor. Ular oʻquvchiga estetik zavq hissiy ekspressivlik bahsh etadi. “Meʼmor” asari ogʻir va jiddiy mavzudagi, ziddiyatli vaziyatlar, halokatli taqdirilar koʻp boʻlishiga qaramasdan, unga badiiy rango-ranglik ulashish uchun adib qochirim va ajoyib oʻxshatish namunalarini keltiradi. Masalan;

- *Nima siz menga ota edingizmiki.*

– *Boʻlmasa bilganingizni qiling, eʼtibor qilmaganim boʻlsin.*

– *Eʼtibor qilganingiz bilan koʻrolmaysiz Nishopuriy.*

Badia va unga akasidek boʻlib qolgan Nishopuriy dialogiga eʼtibor qaratsak, yanada ayonlashadi. Nishopuriy personaji ochiqkoʻngil yigit sifatida taʼriflangan boʻlib, uning koʻzida qusuri bor edi. “*Eʼtibor qilganingiz bilan koʻrolmaysiz*” deganda esa Badia nutqi orqali ana shu kamchiligi nazarda tutilgan. Shunga koʻra ustoz M.Yoʻldoshevning “Badiiy matn lingvopoetikasi” asarida asar tili va uni anglash haqida quyidagicha fikrlar keltirilgan. “Badiiy asarda mutlaqo oʻziga xos, goh ochiq, goh yashirin, turli ishoralar, tag maʼnolar, kosa tagida nim kosalar bilan shamoyil topgan mazmunning maʼnosini toʻgʻri anglash maʼnaviy- madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy estetik faoliyat natijasida mumkin boʻladi³⁷. Olim fikriga koʻra badiiy matn tilini idrok etishning murakkabligi unda qoʻllangan til vositalari ochiq yoki yashirin tarzda bayon etilishini nazarda tutadi. Chunki badiiy asarlarda til vositalarining turli tumanligi, koʻchma maʼnoli va koʻchma maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlarning qoʻllanishi, maʼnodosh soʻzlar qoʻllash orqali nozik maʼnoli ifodalarni keltirish matnning asl mazmuni koʻpgina hollarda yaqqol oydin anglanmasligiga sabab boʻladi. Bu holat esa matn mazmunining toʻgʻri tushunilishiga, unda qoʻllangan soʻz maʼnolarini toʻliq anglashga toʻsqinlik qiladi³⁸. Yozuvchi Mirmuhsin asarlarida shunday misollarni yana kuzatishimiz mumkin. Masalan;

Qoʻchqorning irkit shohidan oʻpdim, mana endi tomogʻim ogʻriyapti, - dedi uning gapini boʻlib Zulfiqor.

³⁷ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоетикаси. – Тошкент. – Б. 27.

³⁸ Ҳамидов А. Мурод Муҳаммад Дўст асарлари лингвопоетикаси. – Тошкент. 2021. – Б. 58.

– *So‘yilgan qo‘chqormikin yoki **kalla solishib** o‘lgan qo‘chqormikin*”.
Gapidagi “kalla solishib” birikmasi Asar qahramoni Zulfiqorning raqibi bo‘lgan Xudododbekning qo‘chqor urishtirib yurishiga ishora edi. Yozuvchi shunday kesatq va kinoyali gaplar orqali ham qahramonlarning bir-biriga ochiq yoki yashirin tarzda munosabatini ifodalaydi. Bunday ifodalarning asarda mavjud bo‘lishi, tilimizda bunday so‘zlarning mavjudligi kabi tabiiydir. Va ular asarga tabiiylik va zavq baxsh etadi.

Umuman olganda har bir yozuvchining so‘z qo‘llashda o‘z usuli mavjud bo‘ladi. So‘zni tanlashda ham huddi shunday. Badiiy matn yaratilayotgan u, albatta, og‘zaki nutq shaklidagi matnlardan ham mazmuniy ham mantiqiyli, qurilish strukturasi ko‘ra farq qilishi lozim. Badiiy matndagi ma‘nodosh so‘zlar. Qarama-qarshi ma‘noli so‘zlar, yoki ikki bir biriga ma‘no jihatdan yaqin kelmaydigan so‘zlarni yonma yon qo‘llash orqali yangicha ma‘no hosil qilish, yoki tilimizda yo‘q so‘zlarni hosil qilish yozuvchi lingvistik xususiyatini ochib berishga xizmat qiladigan asosiy omillardan biridir. Albatta, siz asar o‘qish davomida avval hech uchratmagan lekema yoki leksik birikmani uchratasiz. Chunki bunda y so‘zlar nafaqat yozuvchilar tilida balki har bir individning ham nutqida ham kuzatilishi mumkin. Masalan:

*Yo‘q – dedi keskin e’tiroz bildirib Badia, - Men u hazratlar, **kalla-sallaliklar** bilan borishni istamayman.* Aslida bu gapda qo‘llangan *kalla sallaliklar* so‘zi yangi leksik ma‘no hosil qilinmoqda. Ushbu birikma orqali *salla* kiyib yuradigan yoshi ulug‘ kimsa degan semantik ma‘no ifodalangan. “Kalla sallaliklar” deya ta’rif berilayotgan personaj Badianing otasi Najmiddin Buxoriy va uning do‘stlari ustod Qavom, Tabriziy Andugoniy kabi ulug‘ peshvolardir. Ammo Badia yosh va ko‘ngli zavqqa to‘la qiz sifatida tasvirlangan va yozuvchi uning nutqiga shunday birliklarni o‘rinli tarzda kiritadi. Bunda aslida samimiy quvlik va yosh bolalarcha sho‘xlik tasvirlangan.

Yozuvchi o‘z qahramonlarining fe‘l atvori va xarakterini ularni qanday tasvirlashni ham o‘zi istagan va mos tarzda ifodalaydi. Bunda quyidagi misolga

e'tibor bersak. Masalan; *Usta Abdug'afur ham «Korfarmo axlatdan munchoq topdilar» - deb qo'ya qolardi.* (Me'mor).

Karfarmo obrazi pul va obro' istagida hech qanday pastkashlikdan qaytmaydigan shaxs. Avval arzimagan chaqalar uchun xizmat qilib yurgan bu insonga to'satdan mansabtegib korfarmo lavozimini egallaydi. Shu xususiyatlaridan kelib chiqqan holda adib unga shunday ta'rifni munosib ko'radi. Chunki bu vaziyatda **“Ko'rmaganning ko'rgani qursin”** iborasini ishlatish korfarmoning salbiy xususiyatlarini to'liq ochib berishga mazmunan “kambag'alroq” edi. Yoki boshqa o'rinda unga nisbatan yana “siylov” ni tortiq qilgan. *“Me'mor zehni po'stak korfarmodan xafa bo'lmay, ichida kuldi, chunki kishi dono odamlardan xafa bo'ladi. “Nodondan xafa bo'lmoq – eshakni munajjim deyish bilan barobar”, –dedi ichida o'ziga –o'zi”.*

Avvalo *zehni po'stak* birikmasiga e'tibor qaratsak. Zehn va po'stak so'zi o'rtasida bir qarshda mutlaqo ma'noviy yaqinlik yo'q. Ammo adib ularni yonmayon qo'llash orqali ajoyib nutq birligi, yangi obraz va original o'xshatish namunasini keltira olgan. **“eshakni munajjim deyish bilan barobar”** leksik birikmasidan esa nodon kimsa hech bir so'zni o'ylab yoki tahlil qilib gapirmasligini uning gaplaridan xafa bo'lish esa uni ulug'lash bilan barobar ekanligini ajoyib namuna orqali keltirgan.

Badiiy asar nutqida siz avval uchratmagan so'zga ko'zingiz tushushi mumkin. Bunday so'zlar odatda yozuvchi o'z nutqida hosil b'lgan bo'ladi. *Sabab Mirzo katta lashkar bilan Farg'ona ustiga borgani, Ahmad Mirzoning nomunosib harakati sababli Xo'qand, Axsikent, Andijon raiyati ustiga tushadigan sho'rish u zotning diliga alam berdi.* Gapda berilgan *“sho'rish”* so'zi yozuvchi tomomidan yaratilgan so'z deyolmaymiz. Ammo bu so'z kam iste'moldagi so'z hisoblanadi. So'zning ma'nosini ifodalaganimizda uni ayni mazmunini bera oladigan muqobil boshqa variant yo'q, ammo yomon kun, g'urbat, dar va sitam kabi mazmunni beradi. Ammo matn ichidagi so'z kabi.

Badiiy adabiyotda emotsional-ekspressiv vositalardan foydalanish muhimdir. Bunda og'zaki nutqga xos emotsional-ekspressiv vositalar, avvalo, personajlarni

xarakterlash, yozuvchining shaxsiy munosabatini bildirish, o'quvchida tasvirlanayotgan qahramonga nisbatan salbiy yoki ijobiy munosabatni uyg'otish kabi vazifalarni bajaradi. Og'zaki nutqga xos vazifalar, shaxsiy bo'lishi ham mumkin va bunday so'zlar nafaqat umumiste'molda, balki boshqa biror kishining nutqida ham uchramasligi mumkin. Ammo bunday so'zlar adabiyot uchun alohida o'rin tutadi. Ular ham tilimizning bir qismi hisoblanadi. Mirmuhsin ijodida ham shunday so'zlarga duch kelishimiz mumkin chunki asardagi qahramonlarning har birining o'z nutqi o'z dunyoqarashi mavjud. Misol uchun *"Ich kel"*. *"icha qil"*, *"menga ham quy"*. *"Bu kekiroq chollaring menga aql o'rgataman demoqda"*. (Xo'jand qal'asi). Ushbu parcha Muhammad Xorazmshoh nutqidan olingan bo'lib bunda **kekiroq** so'zi chollarning bekorchilikdan to'yib ovqat yeb kekirib o'tirishdan boshqa ishi yo'q chollar degan mazmunni ifodalash ushuni qo'llangan. Bu so'z "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham yo'q. demak, bu kabi so'zlar adib hosil qilgan yangicha mazmunni ifodalash uchun xizmat qilgan so'z. Bu birgina so'z orqali adib ifodalamoqchi bo'lgan maqsadiga erisha olgan. Navbatdagi nutq birligida gapi keltirilgan. Junbushga kirdi so'zi jonlandi, tiklandi, mazmunini ifodalash uchun qo'llanilgan. Aslida yozuvchi ushbu so'larni o'zi bilan ham qo'llashi mumkin edi, ammo **"junbushga kirdi"** birikmasi holatni yanada oydinlashtirish uchun Jayhuniy otaning holati jonlanishdan ko'ra kuchliroq holatga tushganligini ifodalash uchun xizmat qiladi. Yozuvchi asarlarida badiiy nutqning muximjixatlarini ochib beruvchi lug'aviy vositalar hisoblangan badiiy kitobiy so'larning o'rinli qo'llanishi o'sha tasvirning jozibaligini oshirish uchun xizmat qilibgina qolmay, o'quvchini o'z badiiy nutqiga mahliyo qilib, so'zlarni zargardek ehtiyotkorlik bilan chevardek bir-biriga mos tartibda qo'llash orqali nutqning go'zalligini isbotlaydi. Masalan: *Yurtga og'ir bo'ldi, shu yarim oy ichi qamar ham bahri falakda kemadek qalqib, chalqancha yastanib yotibdi* (Xo'jand qal'asi). Ushbu gapda osmon sohibjamoli bo'lgan oyning holatini tasvirlayotgan adib uni kemaga qiyoslaydi. E'tiborlisi shundaki, ushbu gapda shunchaki tasvirlabgina qolmayunga **"bahri falak"**, **"qamar"** chalqancha yastanib yotmoq leksema va birikmalari orqali oyning holati go'zal ta'riflangan. Bahri falak osmon dengizida xuddi kemadek uning ko'kda

teskari turishi esa bir qalqib chalqancha bo'lgan kemaga qiyoslaydi. Oyning erkaligini yastanib yotgan leksik birikmasi bilango'zal tasnif etdi. Adibning nafaqar tarixiy asarlarida balki uning zamonaviy asarlari ham uning til xususiyatini ochib berish uchun xizmat qila oladigan lesik birliklar talaygina. "Memor" romanida yozuvchi "**pilni achchiq chaynab**" iborasini iborasini qo'llaydi. "*Me'mor xotini va qizining bir necha bor takroriy uqtirishlari natijasida pulni achchiq chaynab, uch soyabon arava, olti otni kiraga olib, katta karvon ketidan yurishni va yo'lda sarbondan tashqari bir qadar mustaqilroq bo'lishni gaplashishdi*". Keltirilgan parchada "pulni achchiq chaynab" iborasini yozuvchi qahramanning iqtisodiy jihatdan unchalik barqaror emas ekanligi haqida semantik ma'no ifodalamoqda, shuning uchun tejab ishlatish lozimligini ifodalash uchun qo'llagan. Ushbu ibora keng iste'moldagi iboralardan hisoblanmaydi. Aksariyat hollarda Mirmuhsin ijodida so'z qo'llashga bo'lgan talabchanlik yoki qaysidir ma'noda ehtiyotkorlikni kuzatishimiz mumkin. Yozuvchi so'z qo'llashda so'zning eng dilbarlarini qo'llashga urinadi. Ayniqsa uning go'zal badiiy tasvirlarini o'qiganingizda so'zlarning ham mazmunan ham shaklan va mantiqan bog'lashdagi mahorat vatajriba darajasini anglamaslikning imkoni yo'q. Bundan tashqari adib ko'proq so'zlarni adabiy shaklini ko'proq qo'llaydi. Masalan, "yedi" so'zining o'rniga **tanavul qildi**, "dam oldi"ning o'rniga **hordiq chiqardi** kabi:

Ikki me'mor allavaqtgacha shirin suhbatlashib o'tirishdi. Ular yaqin ancha vaqtdan beri bunday ko'ngilli va dibar suhbatda bo'lmagan edilar. Ular Zulfiqorolib kirgan taomdan tanovul etishdi, Ammo mayga rujun qilishmadi, sabab ertangi ravoch sayli bemay o'tmasdi" (Me'mor).

Berilgan parchadagi **shirin suhbat, ko'ngilli suhbat, tanovul etmoq, ruju qilmoq, bemay** kabi leksik birlik va leksemalarni qo'llaydi. Aslida shirin suhbat leksik birikmasini ikki sevishganning suhbatiga nisbatan ko'proq ishlatiladi. Ammo adibning ikki do'st suhbatiga nisbatan qo'llagani suhbat mazmunan juda ajoyib bo'lganligini ifodalash uchun foydalanilgan. "**ko'ngilli suhabat**" birligi esa samimiy semantikasini ifodalamoqda. "**Ruju qilmoq**" esa harakat qilmoq, urinmoq kabi mazmun ifodalamoqda. So'zning bunday shakli badiiy matnlarning eng

saralangan soʻzlar foydalanilgan shakllarida qoʻllaniladi. **“Bemay”** soʻzi aksariyat hollarda maysiz shaklida ishlatiladi. Mirmuhsinning kichik matnlar uchun soʻz ishlatishdagi noziktaʼbligi yuqoridagi fikrlarning dalilidir.

2.2. Mirmuhsin asarlarida tarixiy hamda arxaik soʻzlarning qoʻllanishi

Bizga maʼlumki Mirmuhsin asarlarining aksariyat qismi tarixiy mavzularga va shaxslarga asoslangan. Bundan kelib chiqadiki unda tarixiy soʻzlarning mavjud boʻlishi tabiiy holdir. Badiiy asarni lingvistik jihatdan tahlil qilishda asarda uchraydigan soʻzlarning tarkibi, qoʻllanishi, maʼno anglatishi, tushunarlilik darajasi, estetik taʼsiri, ruhiy taʼsiri kabi bir necha kategoriyalarda oʻzini oqlashi lozim. Bundan tashqari asarda qoʻllanilayotgan soʻzlar maʼlum uslubda boʻlishi shart degan qarash ham mavjud emas. Bu yozuvchi imkoniyatini yanada kengayishining dalolatidir. Keng isteʼmoldagi soʻzlar yozuvchi uchun ham oʻquvchi uchun ham qulay. Ammo tarixiy asar va uning tili mukammal ish va maʼsuliyatli vazifadir. Asardagi tasvirlar, har bir buyum, kiyim-kechak, joy nomlari, soʻzlar davrga mos va munosib boʻlishi shartdir.

Bizga maʼlumki soʻzlar ikki turga tarixiy hamda arxaik soʻzlarga boʻlinadi. Tarixiy soʻzlar bu oʻzi ifodalagan maʼno bilan birga isteʼmoldan chiqadi. Masalan; *oʻlpon, qozi, ulus, jadid mudarris* va h.k Arxaizmlar esa soʻz qoʻllanmay qolsa-da mazmun saqlanib qoladi. Masalan; *sipoh – askar, saltanat – mamlakat, cherik – qoʻshin, raiyat – xalq, dorugʻa – shahar hokimi* kabi. Bundan tashqari tarixiy soʻzlarni istiorizmlar deb ham atash mumkin.

Zamon va jamiyat oʻzgargan sari, undagi insonlar, insonlar dunyoqarashi, ijtimoiy – iqtisodiy muhit, ijtimoiy munosabat, itimoiy hayot, ijtimoiy til oʻzgarib borishi bilan birga undagi madaniy - maʼnaviy hayotdagi munosabatlar va tushunchalar ham oʻzgaradi. Biz xohlaymizmi yoʻqmi baʼzi tushuncha, predmet, anʼana yoki marosimlar, kiyim-kechaklar va ularni atab kelayotgan leksema ham eskiradi. Sekinlik bilan muomala isteʼmolidan chiqib keta boshlaydi. Bunday jarayon insoniyat paydo boʻlgandan beri sodir boʻlib kelmoqda. Uni toʻxtatish yoki

o'zgartirish esa ko'pincha besamar yakunlanishi mumkin. Chunki til va jamiyat doim yonma-yon kelgan. Tilning jamiyatdan uzilishi esa tilning halokati demakdir. Shuning uchun undagi o'zgarishlarni biz tabiiy qabul qilishimiz kerak.

Tarixiy mavzudagi asarlarni yozishda, yozuvchi o'sha davr muhiti, tili, ijtimoiy vaziyatini ochib berishda istiorizmlarga murojaat qilganda, asar tili ta'siri yanada kuchayadi va jonli chiqadi. Bundan tashqari tarixda foydalanilgan buyumlarning o'sha davrdagi nomi bilan nomlash ham muhimdir. Ayniqsa, arxaizmlarning vazaifasi buda istiorizmga qaraganda ham ma'suliyatliroqdir. Chunki hozirda ushbu so'zning muqobili bor, va yozuvchi uchun esa uning hozirgi kundagi variantini qo'llash qulayroq bo'ladi. Shunda vaziyatda esa u qulay yo'lni emas mashaqqatli yo'lni tanlashi lozim. Davr ruhi va qahramon tabiiyatini ochib berish uchun ham arxaik hamda tarixiy so'zlarning asarda cheksiz o'rni bor. Aslida biz ularni izlab tarixiy asarlarga murojaat qilishimiz shart emas. Chunki o'tgan asr boshlarida yozilgan asarlar ichidan ham hozirgi kunda bizga ma'nosi notanish so'zlar talaygina.

Adibning "Xo'jand qal'asi" romani buyuk tarixiy shaxs Temur Malik va uning vatani Movaraunnahrga bostirib kelgan mo'g'ullarga qarshi kurashdagi ko'rsatgan jasorati, vatanparvarlig va inson sifatidagi iztirob va anduhlari haqidadir. Asarda nafaqat eski so'zlar, balki biz mazmuniga tushunishimiz qiyin bo'lgan yozuvchining individual nutqiga xos leksik birliklar ham mavjud. Bu so'zlarni tasnif va ta'rifini keltirib izohlash tilshunos lingvistlarning vazifasidir.

Romandan olingan ushbu parchaga e'tibor qaratsak:

Qo'shindagi sigir terisidan choriq tiktirib, benag'al taq-tuqsiz yuradigan tog'liklar tezda etik sotib olishdi.

Parchadagi **choriq** va **nag'al** so'zlari, asosan, oyoq kiyimga bog'liq so'zlar bo'lib, **choriq** qattiq xom teridan tikiladigan, ko'pincha tog'lik hudud aholisi orasida rusum bo'lgan oyoq kiyim turi bo'lsa, **nag'al** esa oyoq kiyimning poshnasiga yoki tagcham tovon qismiga qoqiladigan temirdan yasaladiga taqacha bo'lib yurganda ovoz chiqarib turgan. Ushbu so'zlar hozirda ushbu buyumlarning ishlatilmay qolganligi munosabati bilan tilimizda muomildan chiqib ketmoqda. Aslida bugungi

kunda oyoq kiyimlarning turlari va ularning o‘zbekcha bo‘lmagan nomlarining ko‘pligini hisobga olsak, bunday so‘zlarga hozirgi kunda tilimiz juda muhtoj. Bu so‘zlarga eski so‘zlar sifatida qarash emas balki ularni qaytadan jonlantirishimiz zarur.

Chol ustidagi kiyimlarni tartibga solib, hujra qozig‘idagi kulohga o‘rog‘liq tayyor sallani boshiga qo‘yib, karvonsaroy hovlisiga chiqdi.

Yuqoridagi misolda berilgan **“kuloh”** so‘zi tepa qismi ingichkalashib chiqqan qalpoq, bosh kiyim hisoblanadi. Asosan, qalandar va darvesh yoki oddiy xalqning quyi qatlami yolg‘iz o‘zini kiyib yurishi rusum bo‘lgan. Zamonlar va davrlar o‘tgani sari bunday turdagi bosh kiyimlardan foydalanish ham kamayib bordi. Bundan tashqari **hujra qozig‘i** birligi ham o‘z davridagi uy-ro‘zg‘or jihozi sifatida xizmat qilgan. U hozirgi kunda biz hayvonlarni bog‘lash yoki boshqa maqsadda foydalanadigan qoziqdan farqlidir. Hozirgi kunda biz uning o‘rniga turli takomillashgan kiyim ilgaklardan foydalanayapmiz. Adib ushbu so‘zni frazeolgik birlik tarkibida ham qo‘llagan:

Ularning birinchisi Ahmad Chalabiy bo‘ladi. U endi kulohini osmonga otib quvonadi, jirttak uradi.

Shu o‘rinda adibning “Me‘mor” romanidan olingan quyidagi parchaga diqqat qilsak:

Ba‘zida u peshmati yonidan toshqalam-u daftarni olib aravaning chayqalib, qalqib ketayotganiga qaramay nimalarnidir chizib, yozib qo‘yardi.

Parchada **“peshmat”**, **“toshqalam”** so‘zlarini olishimiz mumkin.

Peshmat so‘zi ham ustki kiyim bosh turlaridan biri bo‘lib uzunligi tizzagacha tushib, bel qismi tor qilib kiyiladigan kiyim hisoblangan. **Toshqalam** esa yozish uchun foydalanilgan tabiiy tosh bo‘lib qalam vazifasini o‘tagan. Yoki *“Temur Malik etigini, cholvorini yechib, ishtoni bilan pastga tushib, suvga o‘zini otdi”* gapida qo‘llangan **“cholvor”** so‘zi ham kiyim-kechak nomi hisoblanadi. Bu so‘zning hozirgi kundagi muomiladagi variant *shalvar* so‘zidir, asosan, shim o‘rnida kiyiladigan kiyim bo‘lib o‘tmishda bu nomdagi kiyim erkaklar uchun bo‘lgan bo‘lsa, hozirda shalvar asosan ayollar kiyimi hisoblanadi. Yana bir hozirda arxaik so‘z

sifatida olishimiz mumkin bo'lgan so'z *tumoq* so'zidir. Bu so'z bosh kiyim nomini atab keluvchi so'z bo'lib ikki yoni quloqli bosh kiyimlarga nisbatan aytiladi. Masalan: *Tumoqning orqa tomonida osilib turgan "dumi" fidoyilikni bildirardi.*

Ilgari bunday tumoqlar hayvonlar terisidan tikilgan va ba'zan ularning dumlari ham bezak, ham biror narsaning ramzi sifatida tumoqlarga qo'shib tikilgan. Keyingi o'rinda esa toqiya so'zi ham bosh kiyim ma'nosida ishlatilgan.

Badia yana erkakcha kiyindi, oyog'ida akasining etigi, qo'njida ikki xanjar, boshida toqiya ustidan chiroyli qilib salla o'rab olgan. Toqiya tepa qismi salgina uchliroq do'ppiga o'xshash bosh kiyim hozirda uni Qoraqalpoq hududida *taqiya* deya ataladi. Yana misollarga yuzlansak:

Me'morning hayolidan yalt etib Masuma bekaning oltin baldoqlari, yombilari, bo'ynidagi to'rt shoda duri o'tdi (Me'mor).

Ba'zi oytovoqlar og'zini tilla tishga to'ldirib, boshini parcha bilan tang'ib olar, qulog'ida oybaldoq, bilakda yombi (Ilon o'chi).

Ikkala parchada qo'llangan yombi so'zi hozirgi kunda hammaga ham ma'lum so'z deya olmaymiz. Bu so'zning ko'pchilikka ma'lum shakllaridan biri bilakuzuk ham deyish mumkin. Chunki yombi so'zi adib asarlarida qo'lning kaftdan yuqori qismiga taqiladigan tillo yoki boshqa metallardan tayyorlanadigan zargarlik buyumisifatida qo'llangan.

Albatta, har bir asarning zamirida yozuvchi individuali yotadi. Bundan ma'lum bo'ladiki uning asarlari qahramonlari tomonlaridan qo'llangan nutqda yozuvchining individ nutqining ta'siri sezilmasligining iloji yuq. Masalan, "**yalvillab**" leksemasi badiiy adabiyotlarda ham unumdor so'z hisoblanmaydi. Mirmuhsin asarlarida bu so'zga bir necha o'rinlarda duch kelish mumkin.

Korfarmo Ahmad Chalabiy yalvillab, Boysunqur huzuriga tez-tez borib bu bino bitishini tantanavor o'tkazib zarbof choponlar kiyishni mo'ljallab yurardi. Yoki boshqa o'rinda:

Buxoro Hirot emas, qizim bu yerda ochilib, sochilib yalvillab yurib bo'lmaydi.

Birinchi misolda ham, ikkinchi gapda ham berilgan yalvillab so'zi, asosan, ijobiy ma'no berishdan ko'ra salbiyroq mazmuni ifodalashga xizmat qilmoqda.

Bizning qipchoq lahjasida bu soʻz asosan **jalpillab** yoki **jolpillab** degan leksemaga variantdosh. Umumiy mazmunda oʻrinsiz joyda, oʻrinsiz qilingan harakatga nisbatan ishlatiladigan soʻzdir. Yoki “...*Nojins, attang qochibdi, lekin qoʻlimizga tushmay iloji yoʻq. Men bu xoinning Afrosiyobdek qaddi-qomatiga, murtiga qarabman-u yuragiga qaramabman.*

Berilgan gapdagi **nojins** soʻzi salbiy semantik leksemadir. Bu soʻzni qoʻllashni yozuvchining oʻzining individiga xosdir. Nojins soʻzi **pastkash, jinsi nomaʼlum, ikkala jins vakili ham hisoblanmaydi** degan mazmuni ifodalaydi. Tilimizda bu soʻzning **narmoda, hezalak** kabi variantlari ham mavjud.

Hozirgi kunda isteʼmoldan chiqib ketayotgan soʻzlarning asosiy qismini ot turkumidagi soʻzlar tashkil qiladi. Chunki bunday soʻzlar oʻzi ifodalayotgan mazmun bilan birga nutqda isteʼmoldan chiqadi. Masalan:

*Mashq shovqini ancha uzoqda boʻlishiga qaramay, qiyqiriqlar xoʻjandga, bozor-u **kappon**larga eshitilib turardi* (Xoʻjand qalʼasi) ushbu gapdagi kappon soʻzi ham huddi shunday vaziyatdagi soʻzdir. “**Kappon**” soʻzi bugʻdoy bozoridagi ogʻir yuklarni va bugʻdoylarni oʻlchaydigan tarozi boʻlib, hozirda bunday tarozilar va bozorlarning alohidalanishi kuzatilmaydi. Shu sababdan oʻzi ifodalagan mazmun bilan birga qoʻllanish doirasi cheklanib qolmoqda.

Ayniqsa, “Meʼmor” romanida uchraydigan meʼmorchilikka va boshqa oʻlchov birliklariga oid soʻzlarning qoʻllanish darajasi ham taqsiqga sazovordir. Bugungi kundagi meʼmorchilikda ham ushbu soʻzlarning qoʻllanilishini targʻib qilolsak, koʻzlagan maqsadi, izga yetgan boʻlardik. Unga koʻra **Morpech, angop, shikofta, peshtoq, ravoq, gulchambar, gumbaz, ganchxok, kitiba, qanos, timnauv, koshin, qubba, ganch, tim, ...** kabi leksik birliklarnidavom ettirishimiz mumkin. Quyida esa asarda ushbu soʻzlarning keltirilgan matn parchasini oʻqiymiz:

Hazrati Sayfiddin Boharziy, Bayonqulixon, Ismoil Somoniy maqbaralari haqida bahslashishdi, morpech, angob, shikofta, peshtoq, ravoq, “gulchambar” gumbazlar, morpechga ganchxok quyruq qilinishi va uning handasaviy tuzilishi haqida, oʻlchovlar, muvozanat hamdamadrasaning kitiba, qanostimnauvlari toʻgʻrisida gaplashishdi.

Bunda keltirilgan *sangob*³⁹ soʻzi ohak yoki qum eritmasi boʻlib, undan hayvon terisin oshlash uchun ham foydalanilgan. **Morpech** esa forscha mor – ilon soʻzi asosida qurilgan soʻz boʻlib, uni meʼmorchilikda ilon izi shaklidagi, sirti yumaloq boʻlib kesish uchun ishlatilgan. Baʼzilar “ilon izi” deb ham nomlashgan. **Peshtoq** esa madrasa, maqbara, masjid, yoki karvonsaroy kabi binolarning asosiy kirish qismi hisoblanib, baland, bazakdor va hashamatli qilib qurilgan boʻlagidir. **Ravoq**⁴⁰ - binoning deraza yoki eshik qismining yuqorisiga oʻrnatiladigan yoysimon qurilma Ravoq sunʼiy yoki tabiiy toshlardan, temir, beton yogʻoch singari materiallardan ishlanadi. **Ganchxok** – ganchning bir turi boʻlib, opsiy ganch bilan soz tuproq aralashmasidan hosil boʻladigan qorishma, asosan, bino gʻishtini terishda, qora suvoq sifatida ishlatiladi.

Qanos yoki **koʻkrak** deb ham nomlanadigan meʼmoriy qism peshtoq ravogʻining tepa qismida joylashadigan bir juft tumorsimon shakl.

Tim usti yopiq bozor yoki karvonsaroy kabi joy.

Qubba yarimshar shakldagi gumbaz.

Andava somon bilan qoʻshib qorilgan loy, ganch, sement kabi massalarni silliqlash uchun ishlatiladigan meʼmoriy asbob. Ushbu soʻzlar qatorini uzoq davom ettirish mumkin. Baʼzi asbob nomlari fors-tojik tilidan olingan chunki asar qahramoni Meʼmor janoblari asli Buxorolik edi. Bizga maʼlumki Buxoroliklarning aksariyat qismi fors-tojik tilida gaplashadi.

“Meʼmor” asarida ham “Xoʻjand qalʼasi” asarida ham biz koʻplab tarixiy mansab yoki qaysidir maʼnoda kasb atamalarini uchratishimiz mumkin. Ushbu kasb, mansab oʻz davrining muhim va ahamiyatli kasblaridir. Ammo hozirgi kunda bu kasblarning baʼzilari saqlanib qolganboʻlsa baʼzilari mutlaqotimizda va jamiyatimizda mavjud emas. Xususan, **Korfarmo** mansabi oʻsha davrning qurulish ketayotgan bino taʼminotchisi hisoblangan va barcha moliyaviy masalalarni hal qilish vazifasini bajargan. Masalan:

³⁹ <https://izoh.uz/word/sangob>

⁴⁰ <https://izoh.uz/word/peshtoq>

Koshinpazlar ishida qusur ko‘p bo‘layotgani, lojuvard bilan zard qo‘rg‘oshin gullarini vaqtida yetkazib berilmayotgani haqida korfarmo Ahmad Chalabiy ustodga xabar qilgan edi.

Yuqoridagi gapda keltirilgan **koshinpaz** so‘zini ham hozirgi kunda ishlatilmayotgan leksik birliklar qatoriga kiritishimiz mumkin. Koshin chinniga o‘xshatib ishlangan yaltiroq tUSDagi naqshinkor g‘isht to‘shamasidir koshinpaz esa o‘sha yaltiroq to‘shamalarini pishiruvchi insonlardir. **Zard qo‘rg‘oshin** sariq qo‘rg‘oshin bo‘lib, “zard” so‘zi fors-tojikchada sariq degan ma‘noni ifodalaydi, **lojuvard** so‘zi ham forschadan kelib chiqqan bo‘lib moviy degan ma‘noni bildiradi. Ushbu kimyoviy element darhaqiqat to‘q ko‘k rang , binafsha yoki ko‘kimtir yashil tUSDagi yaxlit va zich ko‘rinishda bo‘ladi. Uning boshqa tildagi rang bildiruvchi leksemasi ikkinchi tilda butun boshli kimyoviy element nomi vazifasini bajargan. “Me‘mor” asaridan olingan yana bir parchaga e‘tibor qaratsak:

*Koshinpaz uchun **Qarnob** tuprog‘i , oq qum, angob loyi, luh, jo‘sha hamda tog‘ jismlari bo‘lmish – malgash, magil ham, mis to‘poni, qo‘rgoshin to‘poni, kerak.*

Qarnob Samarqand viloyatiga qarashli hudud tuprog‘ini asosini och tusli bo‘z tuproq, oq-qo‘ng‘ir tusli taqir-taqir va qumoq tuproqlar tashkil qiladi. **Angob** yoki **golvata** deb ham atash mumkin, esa qizil kesakdan tayyorlanadi, sopol idishlar olovda pishirilgach unga botiriladi.

Magil yoki **mag‘il** esa qizil tuproq bo‘lib tarkibida bentonit deb atalgan kimyoviy element mavjud. To‘pon so‘zi esa kukun ma‘nosida ishlatilayapti.

Mirmuhsin ijodida tarixga oid talaygina siz avval uchratmagan so‘zlarga ham duch kelishingiz mumkin.

U sochilib yotgan bordonlardan birini tortib kelib, yo‘l chetida vabodan o‘lib qolgan kimsani quchoqlab ko‘tarib, bordonga yotqizdi-da, yuqoriga, qabriston yaqinidagi chuqurlik tomon tortib ketdi (Xo‘jand qal‘asi).

Keltirilgan gapda berilgan **bordon** so‘zi qobig‘idan tozalanmagan qamishdan bo‘yraga o‘xshatib to‘qiladigan silliqatlanmagan to‘shama bo‘lib, ushbu materiallar asosida xuddi qopdek yoki idishsifat qilib to‘qilgan shakllari ham bordon deb atalgan. Hozirgi kunda bordaonlarning takomillashgan variantlari talaygina va u

hozirda zambil deb ataladi. Yoki bu parchada qo‘llangan, *dorulumk*, *ko‘ramta* so‘zlariga to‘xtalsak.

U biron navkarga ko‘ramta o‘rnida ham kerak bo‘lmay qoldi. Agar ish shunday davom etsa dorulumkni ham tashlab boshqa tomonga bosh olib ketmog‘i lozim bo‘ladi (Me‘mor).

Parchadagi *ko‘ramta* bu askarlarning o‘qdoni, *dorulumk* esa poytaxt so‘zining tarixda muomilada bo‘lgan variantidir. Me‘mor o‘g‘li Nizomiddinning hisga olinganidan keyingi ichki kechinmalarini tasvirlagan adib go‘yo o‘zini hech narsaga yaramay qolgan eski buyumdek hisoblayotgan kekxa me‘morni shu o‘qdonchalik ham nafi tegmaydigan arzimas matohdek his etayotganini tasvirlaydi. Ajratilgan so‘zlar asar nutqining tabiiyligini oshirishga xizmat qilgan. Navbatdagi misolga qarasak:

O‘g‘limning fojiasi el uchun mohak toshi bo‘ldi. Endi men bunda me‘mori – malik bo‘lganimdan ko‘ra, o‘sha o‘z yurtimda naddof bo‘lganim Afzal (Me‘mor).

Gapda berilgan shunday *mohak toshi* shunday mineral toshki, u tilla bilan jezni bir-biridan ajratib olish uchun ishlatiladi. Adib bunday qiyoslashdan foydalanganini sababi esa, kim podsholar uchun jex-u kim tilla ekanligini ajartish uchun xizmat qilganini ta‘kidlamog‘da. Keyingi so‘z esa *naddof* so‘zi arabcha taramog‘, titmog‘ degan ma‘noni anglatadi. Naddoflar paxta savab, jun titib ulardan ip tayyorlab, ip yigirishgan. O‘rta asrlarda aholining eng kambag‘al, quyi qismini naddoflar tashkil qilgan bo‘lib, ularning mahallari boshqa hunarmandlar mahallaridan alohida yashashgan. Naddoflik kasbning zahmati og‘ir bo‘lishiga qaramay, tirikchilik uchun arzimas chaqa topishgan. Me‘mor shohlarga xizmat qilgandan ko‘ra shu ishni qilishni afzal va foydalirog‘ deb hisoblaydi. Xuddi shunday o‘zi foydalanishdan chetda qolgan va u ifodalagan mazmun ham istiorizm sifatida qaraladigan ot turkumiga mansub *las* so‘zidir.

Noma kichik, shildiroq chiniy qog‘ozga las bilan yozilgan bo‘lib, “darvish” jandasiga tumor shaklida uchburchak qilib chatilgan (Xo‘jand qal‘asi). Anglaganingizdek *las* so‘zi bu gapda arxaik so‘zdir. Las deb chitga o‘xshash mato, ammo chitga qaraganda zichrog‘ to‘qilgan sirti silliq ip gazlamaga aytiladi Hozirgi

kunda usbu soʻzning oʻrniga **satin** soʻzi ishlatilmoqda. Bundan tashqari gapdagi **chiniy** soʻzi ham hozirgi kunda isteʼmolda emas. Bu soʻz sifat turkumiga oid soʻz hisoblanadi va “xitoyda ishlab chiqarilgan” degan mazmuni ifodalan. “Meʼmor” asaridan olingan navbatdagi parchaga eʼtibor qaratamiz:

Men bilardim keyingi paytalarda nuktadonlar emas, xushomadgoʻylar aziz boʻlib qoldi.

Gap tarkibidagi **nuktadon** soʻzining hozirgi kundagi muomaladagi muqobili “**olim**” leksemasidir. Soʻzning asl maʼnosi nukta asosidan olingan boʻlib, oʻtkir, chuqur mulohaza va donolik bilan aytilgan soʻz degan maʼnoni bildiradi.

Ammo nevara ota-bobolariga nisbatan ancha majmagʻil, koʻngli boʻsh, irodasiz, laqma boʻlib oʻsdi (Xoʻjand qalʼasi).

Keltirilgan gapdagi **majmagʻil** soʻzi *oʻsishdan va rivojlanishdan orqada qolgan, nimjon* degan mazmuni ifodalab koʻpincha bolalarga nisbatan qoʻllaniladi. Usbu taʼrif esa buyuk sarkarda Jaloliddinning otasi Muhammad Xorazmshoh haqida edi. Adib ushbu qahramonni koʻp oʻrinlarda qilgan nohaqligi-yu irodasizligini tasvirlab bergan. Shu jasoratsizligi tufayli moʻgʻillar butun Movaraunnahrni bosqichma-bosqich bosib oladilar. Majmagʻil soʻzini yana ham sizlarga oydinlashtirish uchun qipchoq lahjasida ushbu soʻz oʻrniga **nimkala** dialekti maʼnodosh sifatida qoʻllanishi kuzatilishini aytib oʻtishimiz joiz.

Mirmuhsin asarlarida qoʻllangan tarixiy va arxaik soʻzlarni tahlil qilishda davom etar ekanmiz ularning oʻrinliliigi va dolzarbligini eʼtirof etmaslikning iloji yoʻq. Chunki har bir asarning yozilishida, unda qoʻllangan soʻzlarning oʻrinli boʻlishi asar sifatini belgilasa, uning dolzarbligi qiymatini belgilaydi. Adibning “Meʼmor” hamda “Xoʻjand qalʼasi” tarixiy romanlarining dozarbligi shundaki ularning negizida madaniyatimiz, maʼnaviyatimiz, ajdodlarimizning zahmatli va sharafli hayot yoʻli, hozir bizga shunchaki qadimiy bino boʻlib koʻrinayotgan meʼmoriy obidalarning bunyod boʻlish jarayoni, moʻgʻillar istilosi davrida ota-bobolarimizning vatan uchun toʻkkan muqaddas qoni evaziga bunyod boʻlgan hur vatanimiz tarixi yotganligidadir.

Asarning umrboqiyliigi uning soʻzlaridadir. Chunki soʻzlar bino qurilishidagi gʻishtlar kabidir. U xoh tarixiy soʻz boʻlsin, xoh neologizm boʻlsin, oʻrinsiz ishlatilgan har bir soʻz ish sifatining buzilishiga olib keladi. Endi quyidagi gapga eʼtibor qaratsak:

*Hali sening muzaffar **tugʻ**ing sinmagan, u **Kayxon** burjidek olamni qoplaydi . botil va habis soʻzlarga quloq solma....*

– *Mazdak- **Botil**, soʻfiylar – botil. Chin xaqiqatni Ollo biladir...(Xoʻjand qalʼasi).*

Keltirilgan namunadagi **tugʻ**, **kayxon**, **botil**, **habis**, **mazdak** kabi tariga oid soʻzlarni izohini keltiradigan boʻlsak, avvalo **tugʻ** soʻziga eʼtibor qarataylik.

Tugʻ – qadimda Sharq mamlakatlarida hukmdorlik beklik, boshliqlik belgisi hisoblangan ammo uning bayroq degan maʼnosi ham yoʻq emas.

Kayxon – Orion yulduzlar burji boʻlib, bu burj, asosan, ekvatorial yulduzlar turkumiga kiradi.

Botil – soxta degani, habis, pastkash degan maʼnoni ham ifodalab keladi.

Mazdak – tarixiy shaxs boʻlib, oʻrta asrlarda Zardushtiyulik diniga sigʻingan va tarixdagi ilk siyosatchilardan boʻlgan. Gap Temur Malikning kuch gʻayratiga yanayam kuch qoʻshib, uni oʻziga boʻlgan ishonchining ortishiga sababchi boʻlgan asar qahramonlaridan biri Jayhuniy ota nutqidan olingan. Bu dunyoda Yaratganda oʻzga abadiy va bilguchi emasligini taʼkidlamoqda.

Sarkardaning omon – eson kelib qoʻshinga doxil boʻlishi sharafiga oʻz borgohida ziyofat berdi (Xoʻjand qalʼasi).

*Borgoh va **doxil boʻlmoq** soʻzlarini mazmunini yoritamiz. **Doxil boʻlmoq** arxaik soʻz hisoblanadi uni ikki xil maʼnoda qoʻllash mumkin. 1. *Kirmoq* , *qadam qoʻymoq*, *yetmoq*. 2. *Daxldor*, *aloqador*, *tegishli boʻlmoq* kabi. Ushbu gapda qoʻshinga javobgar boʻlish degan mazmunda ishlatilmoqda.*

Borgoh soʻzi “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da – podshoh, bek, yoki mansabdor shaxslarning maxsus ijozat bilan kiriladigan joyi deya taʼriflangan. Adib bu soʻzni qoʻllanish doirasini kengaytiradi. “*Keksalar oʻz borgohlari tomon yurib, ickariga kirib ketishdi*”. “Endi bu gapda borgoh faqat podsho yoki aslzodalarning

maxsus joyi emas balki, yashash uchun boshpana ma'nosida qo'llangan. "Xo'jand qal'asi" romanida:

Halok bo'lganlar orasida sulton Jaloliddinning eng yaqin do'stlaridan Shamsiddin sarxang, Diyoriddin Ali Elchibek pahlavonlar ham bor edi.

Parchasidagi **sarhang** so'zi 500 otliqqa bosh bo'lgan sardorlarga nisbatan qo'llaniladigan mansab nomi sifatida qo'llanilgan. Ushbu leksema tarixiy so'z bo'lib hozirgi kunda ushbu so'zning muqobili mavjud emas va o'zi ifodalagan mazmun bilan birga eskirgan.

Adibning tarixiy mavzudagi asarlarida davr muhitiga mos so'zlar qo'llangan yuzlab birliklarni uchratish mumkin.

Andaluziya va Bahri muhitdan qaytgan arab sayyohlari Bog'dodda kunchiqar tomondan ya'juj-ma'jujdek bostirib kelayotgan majusiylar Movaraunnahr va Xurosondan tashqari Rusiya yerlariga ham hujum boshlanganini xabar qilishdi... Movaraunnahr –Xuroson emas, Rusiya sultoni Vali Amirshohning Novgorod, Kiy, Maskop, Piskop...qal'alari yengilsa! (Xo'jand qal'asi).

Yuqoridagi parchada keltirilgan shahar nomlari o'sha davr tili bilan ifoda etilgan. Bunda Andalusiya, Bahri muhit deganda esa Tinch okeani nazarda tutilgan, Kiyev, Moskva, Rossiya, Pskov kabi shaharlarni nomi keltirilgan. Ushbu fikrlar Temur Malikka tegishli va adib individulidan hosil bo'lgan.

Bob bo'yicha xulosa

Xulosa qilib aytganda, badiiy matnda til vositalaridan mahorat bilan foydalanish badiiy matnnin tahlil qilayotgan har bir tilshunosuchun muhim va masuliyatli vazifadir. Badiiy matn tarkibidagi til vositalarining qo'llanilishidagi yutuq va o'ziga xos xususiyatlarni o'rganish yoki uni tahlil qilish tilshunoslik muhim obyektlaridan biridir. Ushbu bobda Mirmuhsin asarlarining o'ziga xos til xususiyatlari hamda uning asarlarida qo'llangan o'ziga xos so'zlarning tahlili yoritildi. Unga ko'ra, Mirmuhsinning tarixiy romanlari bo'lmish "Me'mor" hamda "Xo'jand qal'asi" romanlarida qo'llangan hozirgi kunda kam istemolda bo'lgan so'zlarning lug'aviy ma'nolari va badiiy tahlili yoritildi. Ushbu asarlarda yozuvchi

tomonida qoʻllangan “tesha tegmagan” badiiy tasviriy vositalar, ularning badiiy matnda tutgan oʻrni, adib asarlarida eng badiiy did bilan qoʻllangan soʻzlariga misollar va ularga lingvopoetik tahlillar kiritildi.

Adib asarlarida foydalanilgan oʻz davriga soʻzlar, iboralar yoki leksik birliklarning mohirona qoʻllanilishiga misollar hamda tahlillar ushbu bobimizning muhim jihatlaridan biridir.

Mirmuhsin asarlarining eng ajoyib namunalari boʻlmish yuqorida takidlangan ikki romanda muallif har bir tasvirni va soʻzni oʻsha davr bilan bogʻlashga erishishda qoʻllangan soʻzlarning asardagi ahamiyati va uning asoslari keltirilgan oʻrinlar mavjud.

Mirmuhsin soʻz tanlash va uni badiiy nutqda qoʻllashda oʻziga xos talablari mavjud ijodkordir. Uning asarlarida ifodalamoqchi boʻlgan fikrning personaj xarakteri va shaxsiyatiga mutlaqo mukammal tarzda mos ekanligiga urgʻu beradigan, badiiy boʻyoqdorlikni ham oʻz meyorida ishlata oldigan hassos ijodkordir.

III BOB MIRMUHSIN ASARLARIDA O‘ZIGA XOS O‘XSHATISHLAR VA BARQAROR BIRIKMALARNING LINGVISTIK TAHLILI

3.1. Mirmuhsin asarlarida o‘xshatishlarning turli xil shakllari tahlili.

Badiiy matn tuzishdan maqsad estetik ta’sir etishdan iborat. Shunga ko‘ra, badiiy matnni lingvopoetik jihatdan tadqiq etayotganimizda, avvalo matnning mazmunan shakllantirishdagi yozuvchining qanday bayonlardan foydalanganligiko‘rsatish. Ya’ni yozuvchi matn mazmunidan ko‘zda tutgan maqsadini ochib bera olishi tadqiqotchining vazifasi hisoblanadi⁴¹.

O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tili tahlili ustida juda ko‘plab ilmiy amaliy ishlar amalga oshirilgani ma’lum ammo shu bilan birgalikda, qariyb bir asrlik tarixga ega bo‘lgan yangi o‘zbek badiiy adabiyoti tilining o‘rganilishiga bag‘ishlangan bugungi kungacha mavjud tadqiqotlarni yetarli deb baholay olmaymiz. Bunga sabab o‘zbek adabiyotimizda ko‘pgina yetakchi ijodkorlarimizning ishlari tadqiqot obyektiga aylangan emas⁴². Shunday yetuk namoyondalarimizdan biri Mirmuhsin Mirsaidovdir. Adib asarlari va uning lingvopoetikasi, lingvistik xususiyatlari bamisoli hali kashf etolmagan xazinadir. Shuning uchun ham mirmuhsin ijodini o‘rganishni boshlash bizning oldimizda turgan lingvistik sifatidagi burchimizdir.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matnni lingvopoetik jihatdan tadqiq etish prof. N.Mahmudovning ushbu mavzu talqiniga bag‘ishlangan asarida n maqolasidan keyin sezilarli darajada jonlandi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi⁴³. Ushbu maqolalarda Proffesor o‘xshatish tasviriy vositasining lingvistik xususiyatlari haqida keng fikr yuritadi. Uning badiiy qimmatini asosini o‘xshatish etaloni belgilab berishini ta’kidlab o‘tadi. Unga ko‘ra o‘xshatish etalonining originalligi, takror emasligi, yangi va noodatilyligi tasviriy vositaning eng dolzarb qismi ekanligi ta’kidlanadi, obrazlilikning ta’minlanishi, tasvirning jonli chiqishining va o‘quvchi qiziqishining

⁴¹ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоетикаси. – Тошкент, 2008.

⁴² Ҳамидов А. Мурод Муҳаммад Дўст асарлари лингвопоетикаси. – Тошкент, 2021. – Б. 27.

⁴³ Махмудов Н. Абдулла Қахҳор ҳикояларининг лингвопоетикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. №6. – Б. 48-50.

oshishiga o‘xshatish etalonining originalligi asos bo‘ladi deyiladi. Shu boisdan N.Mahmudov o‘xshatish etaloni va subyekti bir biriga mos kelishiga alohida e’tibor beradi⁴⁴. Shu o‘rinda o‘xshatish etaloni va subyekti nimaligiga bir to‘xtalsak. O‘xshatish subyekti bu qiyoslanayotgan predmet yoki shaxs, etalon esa, o‘sha shaxs yoki predmet o‘xshatilgan qismdir. Masalan:

“Sichqon dumidek ingichka sariq mo‘ylabi asabiylikdan likkilay boshladi (Xo‘jand qal’asi). Keltirilgan o‘xshatishda mo‘ylab subyekt, sichqon dumi esa etalondir, dek vosita hisoblanadi. Etalonlar o‘xshatishning eng muhim jihati bo‘lib, u o‘xshatishda asosiy rol o‘ynab, o‘xshatishning boshqa unsurlari uning atrofida uni to‘ldirishga xizmat qiladi.

O‘xshatishlar asosan ikki katta guruhga ajratiladi.

1. Individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar.

2. Umumxalq tilidan olingan yoki turg‘un o‘xshatishlar.

Tilshunoslikda turg‘un o‘xshatishlar asosan qotib qolgan qolib asosida qo‘llaniladi. O‘xshatish etalonini esga olganimizdan uning subyekti beixtiyor yodga tushadi. Masalan: *qoqqan qoziqdek tikka, musichadek beozor, oyday go‘zal. Bo‘ridek och* kabi o‘xshatishlarini qo‘llaganimizda birikmaning birinchi qismini aytishimiz bilan uning ikkinchi qismi beixtiyor tilimizga keladi. Chunki bunday turg‘un o‘xshatishlar bizning ongimizda allaqachon yaxlit bir birikma sifatida o‘rin olgan.

Individual o‘xshatishlar esa hali biz uchun yangi, u yozuvchining tassavuri badiiy ifodalash mahoratiga bog‘liqdir.

Hamma yoq jim, lekin mo‘g‘il bosib olgandan buyon shaharda doimo bir qo‘rquv, qandaydir xavfkuz shamolidek ko‘chama-ko‘cha izg‘irdi (Xo‘jand qal’asi).

Ushbu o‘xshatish esa individual o‘xshatish hisoblanadi. Bu o‘xshatish etaloni kuz shamoli, subyekti esa qo‘rquv. Albatta, tilimizda har ikkala o‘xshatishning o‘rni beqiyosdir. Ammo individual o‘xshatishlarning ta’sir maydoni turg‘un

⁴⁴ Махмудов Н. Абдулла Қаххор ҳикояларининг лингвопоетикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. №6. – Б. 48-50.

o'xshatishlarga qaraganda kengroq. Ular o'quvchi uchun yangicha ifoda va tassavvur uyg'onishi asosidir.

Tilshunoslikda, ayniqsa, lingvopetikada mavjud adabiy davrlarnig muhim va e'tiborga loyiq ijtimoiy masalalarining ilmiy, nazariy asoslari va muommolarining o'rganilishi bilan tilshunoslik sohalarida muhim rol tutadi. Shu bilan bir qatorda boy adabiy merosimiz va uning o'rganilishi muhim hisoblangan bebaho durdonalari, lingvopoetikaning tahlil qilishi kerak bo'lgan zalvorli burchlaridan biridir.

Badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirishda, asarning o'qilishida jonli misollarning keltirilishida, o'quvchi tomonidan qabul qilinayotgan personajningi ramzi bo'lib xizmat qilishda asarda o'xshatishlarning o'rni beqiyosdir. U asarda ekspressivlikni oshirib va taasuvvurni kengaytiribgina qolmay, asar qimmatini ta'minlovchi va yozuvchi nutqining sifatini belgilab beruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Albatta, o'xshatishlar tasvirlashdan farqli. Chunki, ko'pincha, o'xshatishda obrazlilik bo'lsa, tasvirlashda esa badiiylik yetakchi rol o'ynaydi.

Oy ham qoramtir, quyuuq bulutlar orasidan ba'zan Temur Malik sarkardaning Dimishqiy qilichidek yarqirab ko'rinib qolardi. (Xo'jand qal'asi).

Ushbu gapda **qoramtir quyuuq bulutlar** sifatlash bo'lsa, **“Dimishqiy qilichdek yal tiragan Temur Malik”** esa o'xshatish hisoblanadi. Kuzatganingizdek ko'z o'ngingizda qilichning yoki sizga ma'lum biror metal buyumning quyosh yoki oy nuri tushib yarqirab ketganligi gavdalanadi. Adabiy asarda o'xshatilayotgan subyekt va etalon bir-biriga mos tushishishidan tashqari, asar qahramonlari yashayotgan davrga ham mos tushishi asar mohiyatini yanada mukammallastiradi.

Mirmuhsin asarlarini o'qish davomida unda betakror o'xshatish va sifatlash namunalarini uchratish mumkin. Ular asar jozibadorligini oshirish va o'quvchiga yanada zavq ulashadi. Salbiy qahramon yoki ijobiy qahramon bo'lishiga qaramasdan ularga mos holati va tashqi ko'rinishidan kelib chiqqan holda o'xshatishning ajoyib namunalaridan keltiradi. Masalan adib “Me'mor” asari qahramonlaridan biri Najmiddin Buxoriyning shogirdi Xudodadbekni bir necha o'rinlarda salbiy manodagi o'xshatishlar bilan Badiya yoki boshqa asar qahramonlari orqali ta'riflaydi. Masalan: 1. *“Unga qarang shoshiy yumronga*

o‘xshab qaqqayib turibdi”. 2. *“Bir tub tut bir tub turpni tutib turibdi, turp tutni tutib turibdi*”. 3. *Anavi ho‘kizni qarang, anavi parini dedi Zavrak ancha narida turgan Xudododbekni ko‘rsatib, - biri javohir, - biri xarsang tosh, “uzumning sarasini it yeydi — bu biyron va shaddod qiz o‘shaning qo‘liga tushyapdi*”. 4. *Xudododbek bo‘shashib qolgan tanbur toridek ikki uch xil tovush chiqarib — xa qarashyapman dedi*. 5. *Xudododbek otining jilovidan ushlagancha xuddi xoda yutganday g‘odayib turar edi*. Ushbu o‘rinlarda asar qahramoni Xudododbek bir necha o‘rinlarda salbiy mazmundagi o‘xshatishlar bilan holati, tashqi ko‘rinishi, vaziyatidan kelib chiqqan holda ta’riflangan. Undagi *it* va *xoda yutganday* kabi o‘xshatishlar turg‘un, *turp, yumron, tanbur toridek, xarsangtosh* kabi o‘xshatishlar esa individual xarakterdagi o‘xshatish etelonlar bo‘lib, Xudododbek xarakteri va shaxsiyatini ochib berishga xizmat qilgan. Masalan, *“bir tup tut”* deganda Xudododbekni bo‘y-basti nazarda tutilayotgan bo‘lsa, *“bir tup turp”* etalonida esa uning gavdasining turpga o‘xshash dumoloq va qorindor ekanligi nazarda tutilayapti. Personajlarni xarakterlashda unga yozuvchini munosabatini ifodalashda va bu munosabatni kitobxonga ham yuqtirishga o‘xshatishlar muhim rol o‘ynaydi. *“Uzumning sarasini it yeydi”*, maqolini keltirish orqali ham ijodkor aynan Badia va Xudododbek juftligining qanchalik bir-biriga mos emasligini dalillash uchun keltirgan. Keyingi o‘rinlarda yozuvchi har bir kishi yoki voqeani boshqa bir narsa yoki voqeaga qiyoslayotganda uning har bir kichik detaligacha e’tibor berib yondashgan holda so‘z qo‘llay olgani ham taqsiqga sazovordir. Unda nafaqat tashqi ko‘rinishni e’tiborga oladi, balki uni ko‘chma ma’noda ham qo‘llab mukammallashtiradi.

Erkaklab ketgan piyozdek bu novcha, yosh bek og‘zidan hech qachon shirin gap chiqmagan, doimo dimog‘i osmonda, yosh bo‘lsa ham qorni tarvuzdek yumaloq oyoqlari ingichka yelkalari tor bir kimsa edi (Me‘mor).

Adib parchada Maymana begini ta’riflar ekan, unga nisbatan *“erkaklab ketgan piyozdek”* o‘xshatishini qo‘llaydi bunda adib uning ham tashqi ko‘rinishi hamda ichki dunyosiga mos tusha oladigan ajoyib o‘xshatishini keltiradi. Erkaklagan piyozning ichi g‘ovak bo‘lgani kabi uning siyrati ham bo‘sh ekanligiga ishora qiladi hamda *“yosh bo‘lsa ham qorni tarvuzdek yumaloq”, “oyoqlar ingichka, yelkalari*

tor” ekanligi bizga birdan multfilm qahramonlaridagi hasis boy yoki tanqidiy ruhda chizilgan karikaturalarni eslatadi va ushbu tasvirning o‘zidanoq sizda o‘sha qahramon haqidagi tasavvur xosil bo‘lishga sabab bo‘lgan **qorni tarvuz, ingichka oyoq, tor yelka** kabi sifatlashlarni qo‘llash adib so‘z qo‘llash mahoratining yana bir ko‘rinishidir.

Asarda sodir bo‘layotgan voqealarni o‘quvchi ruhiga ta’sir etadigan tarzda bayon etish undagi tasvirlar va o‘xshatishlar bir-biriga mos tushmog‘i lozim.

“Me’mor” asaridagi me’mor og‘li Nizomiddinning qatli hukmi amalga oshirilayotgan vaziyatdagi oy tasviri quyidagicha beriladi.

Mahbus yigitlar orasida turgan Nizomiddin oyga qarar, ilgari qanchalab zavqu-shavq xursandchilik baxsh etgan oy bu gal qonga belanganday, yuz ko‘zlari momataloq bo‘lib, shishib chiqqanday ko‘rinardi. U hamma ishning sababchisi shoshqaloq Ahmadlarga o‘xshardi.

Berilayotgan oy tasviri orqali go‘yo Nizomiddinning ruhiyati keltirilayotgandek, qanchalik og‘ir va yechimsiz vaziyatining yagona sababchisi Ahmad Lur emas, go‘yoki mana shu oydek uning nazarida, yuz ko‘zlari momotaloq bo‘lgan oy emas aslida Nizomiddin ekanligi haqidagi haqiqat kitobxonning ongida bir zumda milt etib paydo bo‘ladi va bu aslida oy tasviri emas, Nizomiddinning yuzlariningi tasviridek tuyuladi. Hayotining so‘nggi onlarini yashayotgan yigitcha ko‘zi o‘ngida oy emas butun dunyo shunday gavdalanadi va bu tasvirni adib o‘ziga xos lingvistik vositalar bilan yoritadi. Mirmuhsin ijodida bunday o‘xshatishlarni minglab o‘qishimiz mumkin va ijodkor tabiat yoki biror predmetning tasviri orqali qahramon ruhiyatini ochib berishni uddalagan quyidagi misolga e’tibor bersak.

*Hammaga qo‘rquv solib turuvchi Ixtiyoriddin qal’asi baland va xo‘mraygan bino... Tunda u yana ham dahshatliroq bo‘lib o‘tgan-ketganlarga qo‘rquv soladi. U bir ulkan **ahraman devdek** Hirotning mashhad yo‘lida qo‘qqayib turibdi. Uning sovuq quchog‘ida qanchalab mahbuslar azob chekmoqda. U Memor nazdida kulcha bo‘lib yotgan ulkan bir ilonga o‘xshardi, qancha odamni o‘rab olib yutishga hozirlanayotgandek.*

Asar avvalida yozuvchi ushbu qal'a haqida "Xudo bu yerga hech kimni keltirmasin... Bu so'z keksalar tilida "lohovladan ..." dan keyin aytiladigan duoga o'xshab qolgan edi", - deya keltirib o'tadi. Ushbu parchalar orqali yozuvchi davr vaziyatini ham uning ziddiyatli va keskin choralarga boy bo'lganini ham ochib bergan. Bu so'z muqaddas duo darajasiga chiqqan ekan, demak, bunday xunrezlik Ibrohim sulton zamonida ko'p sodir etilganini anglashimiz mumkin. Ixtiyoriddin qal'asiga nisbatan qo'llangan **"Xo'mraygan bino"**, **"Ahramon dev"**, **"Sovuq quchoq"**, **"Ulkan ilon"** o'xshatishlari qal'aning mahobati va sovuq sifatlarini ochishga xizmat qilgan. *Xo'mraygan bino* — johillik, *ahramon dev* — yovuz qudrat, *sovuq quchoq* — shavqatsizlik, *ulkan ilon* — azob kabi ifodalarni anglatadi. Bundan tashqari, unda shunday o'xshatishlar borki, bunda bir shaxs yoki buyumni emas, balki butun jamiyat va podshohlar asos qilib olinadi. Masalan:

Bazi hukmdorlar Musaylima qabilasiga o'xshaydi Ular xurmo danagidan sanam yasadilar, och qolgach o'z xudolarini chaqib yeb qo'ydilar.

Yana bir buyuk tarixiy hodisani xam bunga misol qilsak bo'ladi. Islom dini ustuni bo'lgan buyuk Umar Ibn hattob raziyallohu anho ham ushbu voqea haqida ajoyib rivoyatni keltirganlar: *"biz o'z qo'llarimiz bilan xurmoldan o'zimiz butlar yasardik. Kuni bilan unga sig'inardik va qachonki och qolsak, ularni yeb qo'yardik. Men ham tabriziy, ham qavom, ham xurmo danagi edik, avval bizga sig'indilar, qal'alar qurib berdik. Endi ular och qolgan edilarki, bizni bitta bitta chaqib yemoqdalar.*

Bunda qo'llangan Musaylima qabilasi haqidagi voqelik qomusiy olim buyuk Beruniyning "Qor-ul-boqiya" asaridagi musaylima hikoyasidan keltirilgan. Adib me'morning boshiga tushgan og'ir tashvishlarni ko'rsatish maqsadida podshohlarni avom qabilaga, xalqning ko'zga ko'ringan vakillarini xurmo danagidan yasalgan sanamlarga qiyoslaydi. Bu bilan adib memorni sig'inish darajasidagi buyuklikga chiqarib qo'ymoqchi emas, balki inson qanchalik ulug'lanmasin yuksaltirilmasin baribir u omonat va ertaga abadiy qolmaydigan mavjudod ekanligini aytmoqchi. Badiyani g'ordagi avliyo erkakcha kiyinib yurganiga qaramasdan "sen yaxshi xonadonga kelin bo'lib tushasan "deganiga adib quyidagi o'xshatishni ishlatadi:

Badiya siri fosh bo'lib, qilichi sinib, qalqoni teshilib, qolgan sarbozdek lol bo'lib qoldi.

Yuqoridagi misolda Badianing holatiga ko'ra o'xshatish shakl va mazmun jihatdan mos qo'llangan, chunki u o'zini xuddi mahoratli sarbozlardek tutayotgan va bo'lg'usi qaylig'i Xudododbekga past nazar bilan qarayotgan bir paytda unga qarata aytilgan bashorat uni xuddi shu ahvolga solgan edi. Qizning holatini ochib berishda, uning vaziyatini aniqroq anglash uchun ajoyib o'xshatish namunasi keltirilgan, bunday vaziyatda unga bundanda munosib o'xshatish mos kelmasdi, nazarimda.

Adib asarlaridagi o'xshatishlarning xilma-xilligi o'quvchi ishtiyoqini oshiradi va zavqlantiradi. Uning "Ona qabridagi gul" hikoyasi qahramoni Ra'no og'ir dardga giriftor bo'lgan. U go'zal va zebo ayol. Adib uni, ya'ni Ra'noni gulag, undagi og'ir kasallikni esa gulni chirmab olib, kun sayin uni o'sishiga, rivojlanishiga barq urib yashnashiga xalal beradigan va oxir-oqibat uni ado etadigan zararkunanda o'simlikka o'xshatadi.

Ra'no vrachlar aytadigan barcha yomon narsalardan qochar edi, u dono vrachlar o'ylagan sog'lom kishi edi. Buni qarangki bu dard shu gulga yopishib uni xazon qildi.

Darhaqiqat, Ra'no saraton kasaliga chalingan edi va bu dard uning vujudi bo'ylab o'sayotgan va uni ahvolini o'g'irlashtirib bug'ayotgandi. Ra'no esa latiflikda gul singari nozikligi ham haqiqat. Ushbu parchadagi **gul** va **xazon** kabi bir biriga zid ma'noli so'zlarni yonma-yon qo'llash orqali sodir bo'lgan og'ir ziddiyatni ochib bergan. Ushbu hikoyaning asosiy qahramoni Ekinjon Ra'noning yakka-yu yagona, yolg'izgina 4 yoshli murg'akkina o'g'ilchasi bo'lib, u onasi vafotidan keyin uni sog'inib, unga gul olib ketayotganda, yo'lda bir otaxon to'xtatib uning qayerga yo'l olganligini so'rashi va ayni damda uning yo'lidan chiqqan va unga savol bergan otaxon go'yoki uning yo'lini to'suvchi insondek ko'rinishi va shu payt "*chol ushlab qolishidan qo'rqib, qushdek uchishga tayyor turgan Erkinjon birdan chopib o'zini odamlar orasiga uradi*", deya bolakayning holatini tasvirlaydi. Kitobxon bu jarayonni o'z ko'zi bilan ko'rgandek bo'lib ketadi. Bu parchada ham shakl va

mazmunning muvofiqligidan hosil bo'lgan birikmadir. Mazmunga ko'ra aynan **qush** leksemasi qo'llangan, burgut yoki mayna so'zlarini qo'llash orqali emas. Buni qarangi, qush leksemasi himoyasiz beozor mittigina Erkinjondek, uning manzili tomon shoshilayotgan holati ham ayni o'sha qushchadek. Navbatdagi parchada yozuvchining "Surat" nomli hikoyasida yosh juvon Xayriniso va uning turmush o'rtog'i Mirjalil haqida. Hikoyada quyidagi o'xshatishning ajoyib namunasini o'qishingiz mumkin

Yo'l-yo'lakay Xayrinisoning boshini xayollar guvillab talay boshladi, ba'zan jizillatib chaqib ketishardi.

Parchani o'qigan zahotingiz Xayrinisoning xayollari shirin xayol yoki entiktiruvchi xayol emasligini anglash mumkin. Chunki bu ma'no "**jizilatib chaqib ketishardi**" birikmasi orqali ifodalanib, xayollar beomon va achchiq ekanini ifodash uchun qo'llangan. Adib mahoratini qarangi, ushbu uchta birikmalar orqali Xayrinisoning boshi berk ko'chadagi o'ylari va kelgusida kelishi mumkin bo'lgan tashvishlarini o'qishingiz mumkin. "Sur'at" hikoyasida keltirilgan yana bir go'zal o'xshatishga e'tiboringizni qaratmoqchimiz:

Uning jiqqa yosh to'lgan ko'zlari men haligacha sizni yaxshi bilmas ekanman degandek minnatdorchilik bilan Mirjalilga tikildi. Xayrinisoning ikki dona qora ko'zi suvda yotgan ikki dona charosga o'xshardi.

Ayol latofati, fusn-u ko'rki uning ibo-hayosidadir. Ibosi esa ko'zlarda namoyon bo'ladi. Shoir va adiblar tomonidan ayol ko'zlari ne-ne go'zalliklarga qiyoslanmagan va madh etilmagan. Suvda yotgan "ikki dona charos" esa betakror va original o'xshatish bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Nega aynan "suvda yotgan" leksemasidan foydalandi? Adib Xayrinisoning holatini shunday yoritganki, uni ortiqcha bitta so'z ishlatmasdan aniqlab bergan. Ko'z o'ngingizda eriga mamnun tikilayotgan, qop-qora xumor ko'zlariga jiqqa yosh to'lgan va bu yosh yuziga hali oqib ulgurmagan, demakki, kiprik qoqishga ham majoli yo'qdek, bir zumda ko'zlariga yosh to'lgan go'zal ayol gavdalanadi. Adib yana "**ikki dona qora ko'z**" birikmasini ham qo'llaydi. Aslida ko'zga nisbatan dona yoki hisob so'zi qo'llanilmaydi. Ammo uning ikki dona charosga o'xshashligini yanada yaxshiroq

ta'kidlash maqsadida ushbu so'zni qo'llagani ifodani lingvistik hamda badiiy qimmatini ochishga xizmat qilgan. Mirmuhsin ijodida bunga o'xshash beqiyos o'xshatishlarni ko'plab uchratish mumkin. Uning *“Sozanda”* hikoyasida keltirilgan ***“Qassobdan shoir chiqmaganidek behis chalingan g'ijjak arra tortishdan farq qolmaydi”*** o'xshatishiga ham e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu yerda adib biror narsani ikkinchi narsaga qiyoslayotganda shunchaki boshqa narsaga o'xshatib qo'yibgina qolmay uni dalillab bergan.

Mirmuhsin ijodida o'xshatishlarning shu darajada original variantlariga duch kelish mumkinki, ularni o'qib zavq olmaslikning iloji yo'q. Misol uchun;

“Nizom al Mulk Xorazmshoh ro'parasida bir so'z deyoymay yog'ochdek qotib qoldi”, deya berilgan bo'lsa navbatdagi gapda *“Zukko onadan bu gapni eshitgan Xorazmshoh taxtida shamdek qotib qoldi”* yoki *“Charchab uxlab qolgan sulton tush ko'rdi. Juldur teri kiyim kiygan xo'ppa semiz, ko'zlari qisq, shavqatsiz Chingiz yosh nevaralari go'daklarnin oyog'i ostida – buti bilan siqib, tomog'iga pichoq tortayotgan emish. ular bedanadek pitilab jon berisharmish* (Me'mor).

Keltirilgan birinchi parchada «yog'ochdek qotib qoldi» navbatdagsida ***“shamdek qotib qoldi”***, undan keyingi parchada ***“bedanadek pitirlab”*** o'xshatishlarini olishimiz mumkin. Adabiyotimizda ***“taxtadek qotib qoldi”*** iborasini ko'p marotaba uchratganmiz. Bu ibora Mirmuhsin ijodida ham mavjud. Ammo keyingi o'rinda adib o'xshatishlarni takror qo'llamaslik uchun ***yog'ochdek*** leksemasini qo'llagan. ***“Shamdek qotdi”*** o'xshatishi hali birorta yozuvchi asarida kuzatilmagan, bu birikmada obrazlilik kamroq ammo originallik yetakchi o'rinda, ikkinchi namunamizda esa ya'ni ***“bedanadek pitirlab”*** birikmasida esa obrazlilik yuqori darajada. Yosh go'daklar bilan bedanalar o'rtasida ham tashqi ko'rinishining kichikligi hamda ularning xususiyatiga ko'ra *betinim* va *beozorligida* umumiy mutonosiblik kasb eta oladi. Bunday o'xshatish shakl va mazmun jihatdan mosligi bilan e'tirof etishga arzigulikdir.

Adib asarlarida keltirilgan o'xshatish namunalari betakrorligi bilan diqqatg a sazovordir. Ularda, avvalo, makon-zamondagi moslik, yozuvchi so'z qo'llashdagi o'ziga xos individual ifodalardan foydalanish mahorati yaqqol sezilib turadi.

Ayniqsa, biror voqeani tabiatdagi biror hodisaga qiyoslash go‘zal tarzda qiyoslash adib mahoratiga bog‘liq. Demak, quyudagi namunaga e‘tibor beramiz:

Uning bu ojiz tomonidan foydalangan saroydagi xushomadgo‘ylar sultonni o‘rgimchakdek o‘rab, maqtov iplari bilan tamom chirmab tashlagan edilar.

Mana yana bitta adib qalamiga mansub go‘zal o‘xshatish namunasi adibning “Xo‘jand qal‘asi” romanidan olingan bo‘lib, gap Muhammad Xorazmshoh haqida ketmoqda. Xushomadgo‘y saroy a‘yonlari bamisli o‘rgimchak bo‘lib irodasiz podshohni karaxt holga keltirib, keyin esa maqtov iplari bilan chirmab tashlashidek original o‘xshatish namunasi yaratish uchun adib tasavvurining naqadar keng bo‘lishi kerakligini anglash qiyin emas. Tilda tayyor holda mavjud bo‘lmagan yangi ifodalarni tilga kiritish boshqa fanlar uchun arzimas tuyulsa-da lingvistik uchun kashfiyot darajasiga ko‘tarishga arziydi.

O‘xshatishlarni asarda qo‘llanilayotganda, albatta, mantiqan ham, mazmunan ham mutonosiblik kasb etish kerak. Salbiy qahramonni ijobiy obrazga qiyoslasak, mantiq buziladi. Yoki tarixiy obrazni zamonaviy biror predmet yoki kishiga o‘xshatish ham mazmun kasb etmaydi.

Daryo yoqasida chumoliday o‘rmlagan, o‘lgan-tirilganiga qaramay shahar devorlari sari intilayotgan mo‘g‘illarning hisobi yo‘q edi. Ular shu darajada sorbet chigirtkaga o‘xshardilarki, bosib-yanchib o‘ldirganing bilan hech tugashmasdi (Xo‘jand qal‘asi).

Ushbu parchada esa mo‘g‘illarni chumoliga o‘xshatishi ularning son jihatidan bo‘lsa, chigirtka obrzi orqali ochofatligiga dalil sifatida keltirilgan.

Prof. S.Karimov badiiy asarni yaratishda yozuvchi uchun eng muhim narsa bu individuallik xususiyatidir deya ta‘rif beradi. Olimning fikriga ko‘ra “Ijodkor moddiy olamni o‘ziga xos tarzda idrok qiladi, tabiatdagi, jamiyaddagi narsa va hodisalarning hali hech kim payqamagan, ilg‘ay olmagan qirralarini ko‘ra oladi, binobarin, hamma uchun iste‘molda umumiy deb aytadiganimiz – til yozuvchi qalamida individual tasvir quroliga aylanadi. Shuning uchun har bir badiiy asar

chinakam ma'noda xususiydir⁴⁵. Shunga ko'ra, ijodkor ahlining yaratayotgan har bir satri o'zgacha ko'z bilan baholangan so'zlar jamlanmasidan bunyod bo'lgan qalb gavharlaridir.

Oshnasining bunday dimog'dor va mansabparast fe'lini bilgan Najmiddin Buxoriy ba'zan undan nariroqda yurardi. U bilan yaqinlashgan chog'larida darranda yonida turgan jonivordek o'zini ehtiyot saqlardi.

Adib mansabparast va dimog'dor kishilarni qandaydir bir yirtqich hayvonga qiyoslaydi. Bunday shaxslar oldida ularning tabiati tufayli ehtiyotkorroq bo'lishni afzal ko'rishiga ishora qiladi.

Hasad – zanglagan xanjardirki, jarohati maddalab ketadi. Odamzodning sirtidan hech narsani payqab bo'lmaydi – derdi Me'mor ba'zan o'ziga –o'zi.

Yuqoridagi parchada go'zal, purma'no o'xshatishni "Me'mor" asarida keltiradi. Ushbu ikki parchada yozuvchi yillar bo'yi kuzatgan hayotiy tajribasidan olgan xulosalarini tanlashdagi mahoratini namoyish etadi. Adib aynan bitta hayvonni nomini keltirmaydi, chunki ularning ham yaxshi xislati bordek. Shuning uchun *darranda* so'zi orqali mavhumroq tushuncha ifodalaydi. Keyingi o'xshatish namunasida esa hasad zanglagan qilichga o'xshatiladi. Darhaqiqat, zanglagan qilichdan yaralanganda avvaliga arzimas yara deb hiosoblaganimiz jismimizni ich-ichidan yaroqsiz qilib, uni jirkanch suyuqlik bilan to'ldirib boradi. Uning og'rig'i ham shu darajada kechadi. Inson kimgadir hasad qilganda ham, uning yutuqlaridan xuddi shunday og'rinib, o'z-o'zini yemirib boradi. Oxir-oqibat ikkalasiyam bir kun yuzaga chiqadiki, ammo oqibati ayanchli bo'lishi mumkin. Demak, har jihatdan bir-biriga mos tusha oladiga o'xshatish subyekti va etalonini yarata olish uchun yozuvchida so'zlarni o'rnida qo'llay olish xususiyati oliy darajada shakllangan bo'lishi kerak. Quyidagi misolga e'tibor qarataylik:

Inson dunyoga kelib hech nima bilmay dunyodan ketsa, u kavakdagi bir kalamushmonand.

⁴⁵ Каримов С. Ўзбек тилининг стили. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. – Б. 26.

Umumiylik shundaki, kemiruvchilar zararkunanda, dardi to‘g‘ri kelgan narsani kemirish va yana o‘z ininiga berkinish. Unda boshqa mashg‘ulot yoki zarurat yo‘q. Insonda esa burch va farz atalmish buyuk tuyg‘ular mavjud. Ularni inkor etib yashash esa, insonlik darajasidan tushishni belgilaridan biridir.

3.2. Adib asarlarida frazeologik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari

Maqollar xalqning urf-odati, tajribasi, kechmishlari natijasida vujudga kelgan pand nasihat turidagi turg‘un birikmalardir. Ular orqali xalq madaniyati ham ochiq lanadi. Badiiy adabiyotda maqollarning qo‘llanishi yozuvchi tomonidan qahramonning keltirgan fikrini dalillash maqsadi yotadi. Maqollarning muhim xususiyati xalq hayoti, xalqning turmush-tarzi, urf –odatlari, orzu-niyatlari ma’naviy olamining tajribalariga tayangan holda axloq-odob berish ruhida ifoda etilishdir. Har bir xalq maqolida shu xalqning axloqiy, ma’naviy –ma’rifiy qarshlari o‘z ifodasini topadi. Maqollar shu jihatidan xalq ruhining ifodachisi sifatida namoyon bo‘ladi. Maqollar xalq tomonidan yaratilar ekan unda hayotning barcha jabhalari o‘z ifodasini topgan bo‘ladi⁴⁶.

Maqollarning xalqning hayotiy tajribasidan kelib chiqqan badiiy hamda obrazli mulohazalardan tarkib topganligitadqiqotchilar tomonidan e’tirof etib o‘tilgan. “Hikmatnoma” (O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati)da maqollar quyidagicha tariflanadi: “Maqollarni – hayot qomusi. Og‘zaki ensiklapediya, o‘ziga xos badiiy ijodiy solnoma deyish mumkin.ular kishilarning aqlini o‘tkirlashtiradi, nutqini ravon va tasirchan qiladi, hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlay olishda, hayotiy muammolarni to‘g‘ri yechishga o‘rgatadi. Turmushning jamiki katta-kichik masalalari xususida maslahat beradi⁴⁷. Maqollar turg‘un birikmalar bo‘lib kishilar undan nutqda tayyor holda foydalanishadi. Ular nech asrlardan buyon og‘izdan-og‘izga o‘tib o‘zining haqiqatini takror-takror isbot etib ketib kelmoqda. Shuning uchun ham uning iste’molda doimiy ravishda faol ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

⁴⁶ Хамидов А. М.М.Дўст асарлари лингвopoетикаси. – Тошкент: 2021, - Б. 129.

⁴⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 569.

Hech kim uni yozib olib “ertaga ana shu yerda ishlataman” demaydi. U tabiiy ravishda nutq ekspressivligini hosil qilish uchun yuzaga chiqadi. Ular xotiramizda allaqachon o‘z o‘rnini egallagan.

Maqollar nutqdagi ma’lum bir voqea hodisaga nisbatan qo‘llanilgan qisqa hamda dalil hojat bo‘lmagan hukmdir. Chunki maqollar ifodalagan mazmun yillar, mumkin bo‘lsa asrlar davomida ifodalagan mazmuniga ko‘ra o‘z isbotini topgan.

Maqollarning tarixiy shakllari masallar deyish mumkin. Chunki lirikada baytlarga maqollar kiritib fikrni dalillash san’ati *irsoli masal* bo‘lsa, nasrdagi tarixiy shakllaridan biri Gulxaniyning “Zarbulmasal” asaridir. Badiiy asarlarda maqollardan foydalanishda keltirilgan fikrning mantiqliligini ochib berish, so‘zlovchi fikrini go‘zal ifodalar bilan boyitish, o‘quvchida zavq uyg‘otish, nutqni ta’sirchanligini oshirib, uni obrazli tarzda ifodalash kabi maqsadlar yotadi.

Maqollarning lingvokulturalogiyada tutgan o‘rni beqiyosdir. Ular lingvokulturalogiyaning muhim obyektlaridan biridir. Maqol xalq turmush tarzi va madaniyatini o‘zida mujassam etgan murakkab nutqiy birlikma hisoblanadi. Har bir maqolda tugal fikr va xulosa mavjud. Ushbu xulosalar esa hayot tajribalariga tayanilgan holda vujudga kelgan. Badiiy matnda maqollarni qo‘llash orqali yozuvchi ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni mazmunini dalillash va yanada mustahkamlash vazifasi yotadi. Maqollar barqaror birikma hisoblanadi va asosan nutqqa tayyor holda kiritiladigan ma’no ifodalovchi bir butun hukmdir. Asosan, ular nutqqa o‘zgarishsiz kiritiladi. Ammo ba’zan so‘zlovchi nutqida yoki badiiy asarda yozuvchi tomonidan qo‘llanilgan maqollarda leksik o‘zgarish o‘sha so‘zning sinonimi asosida sodir etilishi mumkin, lekin bu maqolning semantikasiga ta’sir qilmaydi. Mirmuhsinning “Jiblajibon” hikoyasida:

Karimov xalqni oldiga solib, tashqariga ketishayotganida eshitar-eshitilmas ha bukrini tobut to‘g‘irlar ekanda, dedi

Ushbu parchada qo‘llangan maqolda ham shunday holat kuzatiladi. Aslida ko‘p hollarda *“bukrini go‘r tuzatadi”* shaklida qo‘llaniladi. Maqol mazmuniga ko‘ra ko‘chma ma’no yetakchilik qilib, ahloqsiz odamlarni qay darajada to‘g‘ri yo‘lga boshlasang ham ularning tabiatida ahloqiy qusurlar o‘zgarishi qolaverishi haqidagi

xulosa mavjud. Adib asarlarida maqollarni o‘ziga xos o‘rni bor. Umuman badiiy adabiyot uchun maqol va hikmatli so‘zlar muhim obyektidir. Yana asarlardagi misollarga yuzlansak.

Janob Nishopuriy sal eslarini yig‘ib olsinlar! – dedi Badia aslida bunday hazillar yoqsa ham sharm-u hayo yo‘l bermagay.

– Til yugurigi. Boshga, – dedi Zavrak Nishopuriy darhol.

Aslida **“Qo‘l yugurigi oshga, til yugurigi boshga”** maqolining ikkinchi qismi qo‘llangan. Ushbu maqol biror so‘zni aytib qo‘ymoqlik boshga turli tashvishlarni keltirib chiqarishini ifodalaydi. Ushbu maqol yozuvchi aytmoqchi bo‘lgan fikrini obrazli tarzda asoslanishiga xizmat qilgan. Bundan tashqari parchada iborasi ham keltirilgan bo‘lib, usbu frazeologik birlik gapni ta’sirliroq va dadilroq yangrashi asosi sifatida xizmat qilgan bo‘lib, unda ko‘chma ma’no mavjud. Chunki es yoki aql predmet emaski, uni biror joyga to‘plashning ham imkoni yo‘q. Aslida ushbu iboraning mazmuni ham yuqoridagi maqol bilan sinonimlik hosi qila oladi. Ikkala turg‘un birikmalarda ham biror ish qilishdan oldin o‘ylab ko‘rib keyin bajarish kerak degan hukm ifodasi mavjud. Adib ushbu ikki turg‘un bog‘lamalarni bir gapda mohirlik bilan keltirganki, biri ifodalashga oqsagan mazmunni ikkinchisi orqali to‘ldirgan. Ushbu maqol va iboralr xalq bilimdonligi mevasi bo‘lib, badiiy asrda ularni qo‘llash orqali nutqqa zeb berish, o‘quvchiga zavq ulashish, aytmoqchi bo‘lgan fikrini chiroyli dalillash uchun xizmat qilgan. Maqollar o‘zi ifodalagan mazmunga ko‘ra o‘z ma’nosidagi hamda ko‘chma ma’no ifodalaydigan maqollarga ajratish mumkin.

*Me‘mor izidan uch shogirdi: Zavrak Zulfiqor, G‘avvoslar kelardi. **Ish bilganga bir tanga, gap bilganga ming tanga bo‘libdi, - dedi me‘mor Zulfiqor bilan zavrakka qarab, kor-farmo janoblari tushunib bo‘lmaydigan odamda!***

Ushbu maqol esa matnda o‘z ma’nosida qo‘llanilmoqda. Gap bilgan ish odam ish bilgan odamlarni ishlatishini hayotimiz ko‘p martalab guvohi bo‘lganmiz. Shunday maqollardan yana “Me‘mor” romanidan olingan parchani keltirsak:

Dil buy or-u dast ba kor naqlini mashoyiqlar emas, me‘morlar aytganlar. Mehnat qilgin – saodat topasan, deydi xalq.

Darhaqiqat, mehnat kishini komillikka eltadi, tanballik, biror ishga havsalasizlik bilan yondashish oxir-oqibat kishini qadrsizlikka olib keladi. Albatta, o‘rinli qo‘llangan maqol va hikmatli so‘z nutqni yoki badiiy matnni bezaydi, ammo har qancha purmano so‘z bo‘lishidan qat’iy nazar, makon va zamon, shakl va mazmun mutanosibligiga javob bermasa, u nutqda xavfsizlikka uchraydi. Shunday ularni o‘inli qo‘llash ham badiiy matnning bezagidir. Ko‘rinadiki, maqollar matn mazmuni bilan hamohang holda fikrning yorqinligini tamlash lozim. Yaniy u berilgan fikrni yorqin dalillashi personajlar nutqida qo‘llanilganda esa voqea-hodisaga munosabatini ifodalash vazifasini bajaradi⁴⁸.

“Yomonning kuchi yapaloqqa yetar” deyishardi. Gap bilmas mo‘min usta Abdug‘ofirga birov kelib “Usta endi kech bo‘ldi uyga borish kerak” – demagunicha ishlayverardi (Me‘mor).

Parchasida ham personaj orqali adib vaziyat uchun munosib maqolni keltirgan. Maqol mazmuniga ko‘ra **“yapaloq”** deb nazarda tutilayotgan shaxs bechorahol, ojiz kimsa, salbiy sifatli inson esa uning ojizligidan foydalanib, unga zulm qilishi nazarda tutiladi. Maqollar yordamida fikrlar va tasvirlarni ifodalash badiiy matndagi obrazlarni yanada jonlantiradi. Masalan:

U faqat yo‘ldoshlari ruhini ko‘tarish, kandak kulish niyatida bu hazilni o‘rinsiz qilgan edi.

“Otmagan sopqon ham boshga tegar, ham oyoqqa” maqoli ham vaziyatni oydinlashtirish uchun keltirilgan. Bundan tashqari, maqol mazmuni matnda har jihatdan mos. Chunki sopqondan ham qadimda ichiga tosh solib otish quroli foydalanishgan va ushbu maqol hozirgi kunda insonlar nutqida ko‘puchramaydi. Chunki uning mazmuni hammaga yaqqol ayon bo‘lmaydi. Demak, shundan ma‘lum bo‘ladiki, maqollarning hamma uchun bir xil tushunarli bo‘lishi ham uning qo‘llanilishdagi talablaridan biridir. Keltirilgan maqol nojoiz, o‘rinsiz, qilingan harakat nafaqat kishining o‘ziga balki atrofdagilarga ham zarar yetqazishi mumkinligi haqida ifodalangan. Bundan keyingi maqolda esa nasihat berish, to‘g‘ri

⁴⁸ Xamidov A. M. *МДўст асарлари лингвопостикаси*. – Тошкент: 2021, - Б. 137

yo'lni ko'rsatish mazmunidagi fikrni bayon qilish maqsadida maqoldan foydalanilgan. **“Yaxshi niyat – yarim mol”** maqolida katta hikmat bor bo'lganidek kishi o'zining doimo sog' ekanini aytishi unga xushkayfiyat va shu bilan birgalikda uzoq umr bag'ishlaydi. Maqolda aytilganidek yaxshi niyat qilishning o'zi ham davlat ekanligi va u insondan yomonliklarni uzoqlashishidan va doimo qalban va ruhan tetik salomat yashashi takidlangan.

Maqollar aniq hukm va xulosa borligi sababli ular ba'zan personaj aytmoqchi bo'lgan gapning asosiy mazmunini lo'nda ifodalovchi birlik sifatida xizmat qiladi. Bu esa badiiy matnda so'zlarning iortiqcha qo'llanilmasligi uchun ahamiyatlidir.

Jamshidbek keyingi yillarda pulni po'choqcha ko'radigan bo'lib qolgan. Suzong'ich ho'kizning oldidan, tepong'ich otning orqasidano'tish xavfli deydilar (Ilon o'chi).

Keltirilgan maqolda insonning fe'liga qarab odam ehtiyotini qilgani ma'qul, degan xulosani anglashimiz mumkin. Shunday didaktikasi sababli maqollar xalq donishmandligi va tajribasining oltin fondidir. Iboralar ham xuddi maqollar singari yaxshilikka chorlaydi, unda ham tarbiyaga chaqirish kabi xususiyatlar mavjud. *Yo'q endi uxlash yo'q! –dedi Badia o'rnidan turib.*

– *Kemaga tushganning joni bir!* (Me'mor). Ushbu iborada biror ishni birga bajarish uchun bosh qo'shgan bir necha shaxslar o'zlaricha harakat yoki qaror qabul qilmasligi, uning bu harakati oqibati boshqalarga ham salbiy yoki ijobiy ta'sir etishi mumkinligi ifodalangan xulosa mavjud. Navbatdagi mmaqol ham badiiy asar tilini bezash biln birga unga mazmunan zarur bo'lgan ma'no ifodalovch isemantik birlik sifatida keltirilgan.

– *Ha bekam sal-pal surbetroqmiz.*

– *Ha-ha-ha – Betimning qalini jonimning huzuri –dedi yana Zavrak ko'z qisib G'avvosga ishora qildi* (Me'mor).

Berilgan parchadagi maqolda esa andishasiz kishilarhayoti davomida o'zining hayosizligi orqasidan rohatda kun kechirishni odat qilib olganligi ifodalangan. Ammo matnda esa maqol kesatiq hamda kinoyasifatida qo'llangan. Unda beg'araz hazil mavjudligini *sal-pal surbetroqmiz* birikmasi orqali anglashimiz mumkin, unda

qo‘llangan *sal-pal* ravishi hamda *-miz* kesimlk shakllari matnga shunday mazmun yuklagan. Chunki birinchi shaxs birlik olmoshiga *-miz* shakli qo‘shilganda unga kamtarlikni ba’zi o‘rinlarda esa kinoyali mazmuni ifodalsh uchun qo‘llaniladi.

Badiiy matnlarda lingvistik vositalardan badiiy maqsadlarda foydalanilar ekan, uning nutq yo‘nalishiga mosligiga alohida ahamiyat qaratiladi. Maqollar qo‘llanishida esa bu hol yana ham yaqqol kuzatiladi. Chunki maqollarning kommunikativ va badiiy estetik vazifalari doirasida maqoldan kelib chiqadigan mazmunva matn ma’nosining bir-biriga mosligi yozuvchi ifodalamoqchi bo‘lgan fikrni yorqin gavdalantirishi kabi nutqiy imkoniyatlar ham mujassamlangan bo‘ladi⁴⁹. Bundan tashqari, personaj maqollarni yoki boshqa leksik birikmalarni o‘z nutqiga moslashtirgan holda ham qo‘llashi ham maqolning nutq yo‘nalishiga moslashtiririlishiga misol qilib olish mumkin. Odatda bunday vaziyatlarda maqollarda morfemik yoki leksik o‘zgarishlar ham sodir bo‘lishi mimkin. Badiiy matn tarkibida qo‘llangan turg‘un birikmalarda bu jarayonning sodir bo‘lishi tabiiy holdir, chunki ular jonli so‘zlashuv nutqi sifatida matnga olib kirilgan. Masalan:

Baribir nafis adabiyotga bo‘lgan cheksiz ehtiromi ba’zi past-u balandliklardan yuqori turardi, guruchning yonida kurmak ham suv ichadi, - deb qo‘ya qolardi (Yasama gul).

Yuqoridagi matnda qo‘llangan maqolda ham leksik ramzlar saqlanadi ammo mazmun boshqacha. Guruch va kurmak ramzlari orqali *guruch kurmaksiz bo‘lmaydi* maqoli hammaga ma’lum. Adib esa o‘sha so‘zlar dominantligidagi ikkinchi maqolni keltiradi. Aslida bu ikki maqolning mazmuni bir-biridan farq qilsada ammo guruch ijobiy kurmak esa salbiy mazmun aks etishi o‘zgarmaydigan holatdir. Maqolda yaxshi insonga atalib qilingan yaxshi amallar ortidan yomon kishilar ham bahramand bo‘lishi ifodalangan. Adibning “Zanglagan qilich” hikoyasida maqolga murojaat qilgan o‘rinlarni uchratishimiz mumkin.

– *Xo‘jayin tuzukmisiz (Qilichev o‘tirgan yeridan bosh chayqadi). Osh tayyorlagan edim.*

⁴⁹ Хамидов А. Ко‘rsatilgan manba: -Б. 135.

- *Eee azizim, qassobga go'sht, echkiga jon qayg'usi*

Mening ichimdan nima o'tyapti-yu gapingizga qarang, bodringga o'xshab tagidan taxiri chiqadi-ya... (Zanglagan qilich).

Hikoyada qo'llangan maqolda har kimga o'z dardi muhim. Boshqalarning tashvishi bilan hech kimning ishi yo'q degan mazmun ifodalanadi. Hamd a yozuvchi maqol orqali ham vaziyatni oydinlashtiradi. Chunki maqollarning ta'sir etish doirasi so'zlarga qaraganda ancha ta'sirliroqdir.

Qani hammangiz xonadan chiqib ketinglar – dedi Karimov masalagatushungach qush tilini qush biladi, deydilar. Odamlar chiqib ketgach, Karimov Fuzailxonovga qaradi.

– *Hoy xalfa turing o'rninggizdan uyat bo'ladi, uyat-e (Jiblajibon).*

Midoldagi **“qush tlini qush biladi”** birikmasi ham ko'chma ma'no kasb etadigan xalq og'zaki ijodi ijodi namunasi sanaladi. Ushbu hikmatli so'zda bir xil xarakterdagi yoki holatdagi shaxslar bir-birini boshqalarga qaraganda yaxshiroq tushunishi nazarda tutilmoqda. Adib ushbu maqolni keltirish orqali matn mazmunini yanada ochiqroq ifodalashga intilgan ya'ni parchadagi Karimov obrazi ham xuddi Fuzailxonov kabi xarakterga ega personaj yoki uni boshqalarga qaraganda ko'proq biladigan shaxs sifatida tasvirlanishiga erishgan.

Muzeydan chiqishgach oshing halol bo'lsa ko'chada ich, deganday Habib Nigorani uyigacha kuzatib qo'ydi (Ilon o'chi).

Anglab turganingizdek halollik haqidagi maqol keltirilgan. Maqol xususiyatlaridan biri bo'lgan tugal fikr hamda hukm ushbu maqolda ham bor. Ushbu hukmni *ich* so'zi ifodalab, u pand nasihat va buyruq istak mayli shaklida berilgan. Bundan tashqari maqollar bizning ongimizda shu qadar chuqur o'rin egallaganki, birinchi qismini aytganimizda ikkinchi qismi beixtiyor tilimizga keladi. Shuning uchun ham ularni yarmini aytganimizda ham maqol orqali anglatmoqchi bo'lgan mazmunni yuzaga chiqara olamiz. Adib ijodida ham bunday holatga duch kelishingiz mumkin. Masalan:

“Gul yetim” bo'lgani bilan shu yoshigacha ancha qiyinchiliklarni ko'rdi, o'rta maktabni tamomlagandan keyin otasining orzusi bo'yicha vrach bo'lishga intildi.

Endigi hikoya oshnaning oshnaga muhabbati, “ishonmagin do‘stingga...” degan gapning hayotiyligi xususidadir (Ilon o‘chi).

Mazkur maqollarning to‘liq shakli “Otali yetim qul yetim, Onali yetim gul yetim”, “Ishonmagin do‘stingga, somon tiqar po‘stingga”dir. Yozuvchi so‘zning o‘rinsiz qo‘llanishi bo‘lmasligi, ular shundog‘am o‘quvchi ongida mavjudligi uchun ham ularning ayni matnga aloqador qismini qo‘llaydi, qolganini esa kitobxon idrokiga havola qiladi.

Maqollar, asosan, badiiy asarlarda qo‘llanilganda, o‘quvchi ifodalanmoqchi fikrning butun va borligicha qabul qilishiga erishish maqsadi yotadi. Bundan tashqari, maqoldagi ruhiyatga ta’sir eta olish imkoniyati odiiy ifodalangan so‘zda mavjud emas. Masalan:

O‘tniki o‘tga, suvniki suvga... bo‘lgan hech vaqosi qolmagan, yeyish-ichishining ham mazasi qochgan bu yo‘lovchilarga karvonsaroy xizmatkorlari ham uncha iltifot ko‘rsatishmadi.

Mazku maqol mazmuniga ko‘ra kishi to‘plagan boylik qay yo‘l bilan topilsa, shu yo‘lga sarflanadi, ya’ni zahmat bilan topilgan mol-dunyo zahmat uchun, yengil orttirilgan davlatning sarflanishi shu qadar oson bo‘ladi degan xulosa keltirilmoqda. Aslida bu maqolni ikkinchi ma’nosi ham mavjud ya’ni halol topilgan boylik halol yo‘lga har harom yo‘l bilan topilgan boylik harom yo‘lga sarflanishi haqida. Ammo asar qahramoni Najmiddin Buxoriy haromdan hazar qiladigan taqvodor kishi bo‘lganligi sababli ikkinchi tahlil unga joiz bo‘lmas edi.

Tilimizda idiomalar hamda iboralarning hayotimizdagi nutq jarayonida va badiiy adabiyotimizda matn yaratilishida tutgan alohida o‘rni mavjud. Ular orqali ifodalangan fikrlar tinglovchi qalbiga tezroq kirib boradi. Tilshunos sifatidagi bizning vazifamiz esa ularni badiiy matnda uchragan shakllarini bir-biridan ajratish va tahlil qilishdir. Ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro barqaror munosabatlaridan tashkil topgan, nutq jarayonida tayyor holda kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklari barqaroq birikmalar deyiladi⁵⁰.

⁵⁰ Нурманов А., Собиров А., Юсупова Сх. Ҳозирги Ўзбек адабий тили. – Тошкент: Схарк, 2002. –Б. 103.

Iboralar, maqol, matallar va hikmatli soʻzlar barqaror birikmalar hisoblanadi. Voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon koʻzi oʻngida aniq va toʻla gavdalantirishda frazeologik iboralarning oʻrni, ahamiyati beqiyosdir. Iboralar hayotdagi voqea hodisalarni kuzatish, jamiyatdagi maqbul va nomaqbul harakat holatlarini baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqarganxulosalarning oʻziga xos ifodasidir. Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qoʻllash bilangina kifoyalani qolmaydilar. Balki, qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab oʻzgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi maʼnonozikliklari bilan toʻyinib boradi. Xalq iboralarni qayta ishlashning usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha maʼno talqini berishning yoʻllari juda xilma-xildir. Bunga “umumtil iborasi zamiridagi maʼnoning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini oʻzgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli maʼnolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin”⁵¹. Frazeologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B.Yoʻldoshev tomonidan keng oʻrganilgan⁵². Ammo Mirmuhsin asarlaridagi iboralar, hatto boshqa jihatlari ham shu vaqtga qadar lingvopoetik tahlilga olinmagan.

Badiiy asarda qoʻllanilgan iboralarni oʻrganishda bir asar doirasidagi⁵³ frazemalar miqdorini (fondini) aniqlash va xarakterli xususiyatlariga qarab tasniflash, ularni struktural-semantik jihatdan tavsiflash hamda matndagi vazifasini tekshirish lingvopoetik tahlil talablaridan hisoblanadi. Ana shunday tahlilda yozuvchining imkoniyat sifatida mavjud boʻlgan til birliklaridan foydalanish mahorati ham namoyon boʻladi⁵⁴.

Xususan, atoqli adib Mirmuhsinning “Gʻurbatdagi odam” hikoyasining leksik fondini tahlil qilinganda, uning kichik hajmli asar boʻlishiga qaramasdan gʻoyatda rang-barang va boy ekanligining guvohi boʻlamiz. Jumladan, *Hamal kirdi amal*

⁵² Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1998. – 200 б.

⁵⁴ Йўлдошев М., Исақов З., Ҳайдаров Ш. Бадий матннинг лисоний таҳлили. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2010. – 112 б.

kirdi..., **“Quyoshni oyga alishtirib, xursand bo‘lma”** – g‘urbatda oh-voh urib yurgan onasi ham ozib-to‘zib kasalga chalindi;

Otdim oshiq-gard keldi, ro‘zg‘orimga dard keldi.... bo‘ldi, Lutfulla qal‘a devoridan sakrab, oyog‘i chiqdi; **O‘limdan bo‘lak hamma yaxshilikning barvaqt kelgani ma‘qul**, deb ona-bola izg‘iy berdi kabi maqol va matallar, shuningdek, eskirgan va tarixiy so‘zlar, varvarizmlar, shevaga oid so‘zlar, ma‘nodosh va ko‘chma ma‘noli so‘zlarning o‘ziga xos mahorat bilan ishlatilganini ko‘rish mumkin. Eng e‘tiborlu jihati esa asar tilining iboralarga g‘oyat boyligidir. Uni o‘qir ekansiz har qadamda obrazli tasvirlashlar, barqaror birikmalarning har turli, iboralarning topib qo‘llanilganligidir. *“Endi omadimiz kelib, ishimiz yurishib ketadi...”*, degan kampir **yana tilini tishlab qoldi. Lutfulla hangu-mang bo‘lib qoldi. Tumov odamning g‘o‘ngillashidek-inglizlarning sergapligi juda me‘dasiga urgan. ... Lutfullaning ko‘nglini ko‘tardi**”, *“baqoxo‘jani bizga Xizr yubordi...”* deb *xursand bo‘lardi, ...xursand bo‘lib ketganidan bosar-tusarini bilmay qoldi. Baqoxo‘jani bergan kitobga ham xayoli ketdi; bu kitobni o‘qib, juda ta‘bi tirriq bo‘lib, boshi qotgan edi. Lutfullaga muruvvat ko‘rsatib turgan ba‘zi dehqonlar ham yuzini teskari qildi* (G‘urbatdagi odam).

Asardan olingan yuqoridagi misollarning barchasida qahramonlarning harakat va holatlari, ruhiy kechinmalari oddiy so‘z bilan ifoda etish mumkin bo‘lganidan ancha ta’sirliroq va obrazli tarzda ifodalangan. Bu esa yozuvchining lug‘at fondi va tildan foydalanish, so‘z qo‘llash mahorati tahsinga sazovor ekanini isbotlaydi. **“Jim bo‘lib qoldi”** deyish o‘rniga **“tilini tishlab qoldi”** iborasida shunchaki gapirmasdan qolish emas, personajning ilojsizligi, g‘oyat og‘ir ahvoli ta’sirliroq ochib beriladi. Yoki hayron bo‘lib qoldi deyish o‘rniga *hangu-mang bo‘lib qoldi*, parvo qilmadi, bepisandlik qildi deyish o‘rniga *yuzini teskari qildi* iborasini ham huddi shunday bo‘yoqdorlik va o‘ziga xoslikni ta‘minlash uchun qo‘llaydi. Ammo hali atoqli yozuvchimizning asarlari o‘z bag‘rida ne-ne marvaridlarni yashirib yotgan ulkan xazina singari, o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda. Kelgusida tilshunoslar bu xazinani lingvopoetik jihatdan mufassal tadqiq etishlari mumkin.

Idiomalar inson tafakkur tarzining mahsuli sifatida vujudga keladigan obrazli lingvistik vositalardir. Ular frazeologik birliklarning bir ko‘rinishi sifatida talqin qilingan bir qancha manbalar mavjud.⁵⁵ Idiomalarda, asosan ko‘chma ma’no yetakchilik qilib, u biror voqeani yoki holatni til egasi tomonidan yangicha yoki noodatiy shaklda tasvirlash, joiz bo‘lsa yetkazishdir. **Idioma** grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “*xususiyat*”, “*o‘ziga xoslik*” degan ma’noni anglatadi. Idiomalar muayyan bir tilga xos bo‘lib, boshqa tilga tarjima qilganda o‘z badiiy tasirchanligini yo‘qotadi. Ko‘pgina hollarda ularni so‘zma so‘z tarjima qilganda idioma mazmuniga mutlaqoaloqasi yo‘q bo‘lgan mazmun kelib chiqadi. Idioma ma’nosi tarkibidagi komponentlardan kelib chiqmaydigan frazeologik birlikdir. Unda til egasining madaniyatini o‘zida saqlaydi va idiomalar asoasan bir millatga tegishli kishilargina anglaydigan leksik birliklardir. Shunday xususiyatlari bilan ular iboradan farq qilinadi. Mana necha davrdan beri ibora va idiomaning farqli jihatlari haqida tilshunos olimlar o‘z qarashlarini bayon etib kelmoqda. Lekin ko‘p hollarda ularning bir-biriga juda yaqin xususiyatlari sababli, ba’zi ikkilanishlarga duch kelinmoqda. A.Yo‘ldoshevning mulohazalariga ko‘ra shunday yozilgan. “Idiomatik qo‘shma so‘zlar va frazeologik birliklar farqi faqat struktur jihatdan emas, semantik-funksional, uslubiy jihatdan ko‘zga tashlanadi. Idiomatik qo‘shma so‘zlarning leksik ma’nosi obraz orqali emas, balki bevosita ifodalanadi. Frazeologik birliklarda esa voqelik ko‘chma ma’no orqali gavdalantiriladi⁵⁶. Sh.Rahmatullayev esa iborani tarkibli til birligi, ammo uning ifodalagan ma’nosi, tarkibidagi so‘zning ma’nosi bilan taeng emas deya baholaydi⁵⁷. Iboralar tilda so‘zlarning birikuvidan yangi ma’no hosil qiladigan, alohida olinganda esa iborada ifodalayotgan ma’noga mazmunan yiroq bo‘lgan ifodani anglatuvchi til birligi sifatida ma’lumdir. Ya’ni **“ingichka bo‘lib jo‘nab ketmoq”** frazeologik birligida bir shaxsning tashqi ko‘rinishi haqida gap ketayoygani yo‘q. Aslida uning biror kishining oldidan o‘rinsiz harakati uchun hijolatli tarzda ketish ma’nosini ifodalaydi. Demak, undan

⁵⁵ Хамидов А. Мурод Мухаммад Дўст асарлари лингвопоетикаси. – Тошкент: 2021. – Б. 109.

⁵⁶ Йўлдошев А. Идиоматик қўшма сўзларнинг лингвокогнитив тадқиқи. – Тошкент, 2016. – Б. 42-186.

⁵⁷ Раҳматуллаев. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. –Тошкент: Ўқитувчи, 1978 –Б. 4.

anglatilayaotgan ma'noni birlik tarkibidagi qaysidir so'z orqali anglashimiz mumkin bo'lganligi sababli bu frazeologik birikmani ibora sifatida qabul qilamiz. Iboralar ham nutqda ham badiiy asarda beqiyos rol o'ynaydigan turg'un birikmalardan biridir. Aslida har bir xalq og'zaki ijodiga taaluqli bo'lgan til birliklarining o'z vazifasi, ular ifodalashi lozim bo'lgan xususiyati mavjud. Masalan, matallar ko'pincha ma'juziy ma'no kasb etadigan muayyan voqea hodisani aniq ifodalanishi uchun obrazli tarzda o'xshatish, kinoya, qochiriq, taqqoslash kabi badiiy vositalardan foydalaniladigan xalq ijodi namunasidir. Unda ko'pincha hayvonlar yoki narsa –predmet matalning asosiy obyektini sifatida xizmat qiladi. Masalan, **“Tuya elakka qolganda bo'kirdi”** ushbu turg'un birikma idioma sifatida tahlil qilinishni taqozo etadi. Chunki sabri qolmadi degan mazmuni ifodalayotgan ushbu frazeologik birlikning tuyaning elakka qolganda baqirgani o'rtasida ma'noviy jihatdan bog'liqlik hosil qilishning imkoni yo'q. Ushbu idiomaning hosil bo'lishi haqida ba'zi etimologik qarashlar ham mavjud. Unga ko'ra bir oila boshqa bir joyga ko'chmoqchi bo'ladi. Ularning tuyasi yagona ulovi edi va uydagi barcha narsalarni tuyaning ustiga ortaveradi tuya yuki og'irlashgandan og'irlashib oxirgi buyum elakni ortayotganda baqirib yuborgan degan etimologiya mavjud. Idiomaning balki ana shunday etimologik kelib chiqishlari mavjud bo'lganligi sababli unda faqat bir millat vakillari tomonidan anglanish xususiyati yetakchidir. Ushbu idiomaning sinonimi sifatida **sabr kosasi to'ldi** iborasini olishimiz mumkin. Idiomalar “Ma'nosi, tarkibidagi so'zlarning ma'nosidan kelib chiqmaydigan hatto unga zid ma'no ifodalaydigan frazeologik birlik⁵⁸ deya ta'rif bergan prof. A.Hojiyev. Iborada **sabr** hamda **to'ymoq** leksemalari ibora mazmunini ochish uchun yordam bermoqda. Idiomada esa bunday imkoniyat bo'lmaydi. Maqollar esa ko'pincha didaktik ruhda bo'lib, tarbiyaga va odob ahloqqa chaqiradigan, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan turgun birikmadir. U maqollardan farq qiladigan jihatlari so'zlar ko'proq o'z ma'nosida qo'llaniladi va odatda ular qofiyalar orqali bog'lanadi. Masalan, **Yer haydasang kuz hayda, Kuz haydamasang yuz hayda**. Maqolda yerni asosan kuz

⁵⁸ Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – Б.41.

oyida haydash kerakligi nasihat qilinmoqda hamda kuz va yuz soʻzlari orqali qofiya shakllantirilib, maqolning badiiyligi oshib, ravon oʻqilishi taʼminlanishiga olib kelgan. Iboralar esa biror tushuncha yoki gapning bir soʻz yoki soʻz birikmasi orqali obrazli tarzda ifodalanishidir. Masalan, *qovun tushirdi* frazeologik birlik rejalashtirilgan ish kimdir sababli barbod boʻlganligini anglatuvchi leksik barqaror birikmadir. Va bu birlik idioma sifatida qabul qilinishiga sabab uning tarkibidagi soʻzlarning butunlay barqarorligi va boshqa soʻz bilan almashtirib boʻlmasligi, boshqa tilga soʻzma-soʻz tarjima qilganda ibora sifatida anglatayotgan mazmunga aloqasiz boʻlgan maʼno kasb etadi. Masalan, *Ular oxirida yigʻlab ketishmapdi, eskicha irim-sirimlarga ishonmasalar ham, kishi hayoti qil ustida turganida toʻrt tomonga termilarkan... Gʻarq boʻlayotgan kishi so mon parchasiga osilar ekan...* (Ilon oʻchi) Hayoti qil ustida turmoq turgʻun birikmasida koʻchma maʼno mavjud. Zero inson hayoti oʻzi mavhum otdir uni qil ustiga qoʻymoqlik esa mutlaqo imkonsizdir. Ushbu frazeologik birlik butunlay koʻchma maʼno hosil qilgani uchun ham idiomaga misol boʻladi. Gʻarq boʻlayotgan kishi somon parchasigayam osiladi frazemasi ibora hisoblanib, asl maʼnosida qoʻllaniladi. Ibora ifodalayotgan mazmun tabiiy hodisadir.

Frazeologizmlar oʻzlariga oʻxshash sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda nutqda soʻzlarni erkin tanlash, almashtirish yoʻli bilan yuzaga kelmaydi. Yozuvchilar oʻz asarlarida frazeologizmlarda unumli foydalanish bilan birga, mavjudlarini asar ruhiga moslab qoʻllaydilar⁵⁹.

Kishilarning shundoq koʻz oʻngida tabiat birdan oʻzgarib, goʻyo toʻnini teskari kiydi. (Ilon oʻchi) Ushbu frazeologizm idioma deb olinishi uchun, undagi koʻchim, mavhumlikning aniq ish harakatni bajara olmasligidadir. Aynan idiomalar tarkibidagi soʻzlarni boshqasiga almashtirib boʻlmaydi. Iboralar esa badiiy matnlarda yoki soʻzlashish jarayonida soʻz boshqa maʼnodoshi bilan almashinishi mumkin.

⁵⁹ Бегматова Г. Ўзбек миллий корпусида идиомалар базасини яратиш. Дессертатсия.

Badiiy nasr jarayonida obrazlilikni kuchaytirish jihatidan frazeologizmlar alohida ajralib turadi Frazeologizmlarning nutq jarayonida biror lug‘aviy vositaga sinonim bo‘lib kelishi frazeologik sinonimlarni vujudga keltiradi⁶⁰. Masalan, *Bundan tashqari ko‘nglingizga har narsani olmang, zo‘rlab uyga olib kirganimga hayron bo‘lmang*. Ko‘ngliga olmoq iborasi xafa bo‘lmoq birikmasi bilan sinonimlik hosil qilmoqda.

Frazeologizmlar badiiy nutqni badiiy tarzda bezaydi hamda unga obrazlilik, emotsional bo‘yoqdorlik baxsh etadi. Matn yoki nutqda iboralarni qo‘llash nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Harakat yoki holatni baholashda turli hayotiy tajribalarning yig‘indisi sifatida iboralar so‘zlarga qaraganda ancha xulosaga va obrazga boydir. Shuning uchun ham ularni asosan badiiy yoki so‘zlashuv jarayonidagi nutqni dalillash sifatida ham qo‘llaymiz.

Axir, bu saltanatning siri-ku hadeb vaqillayverma, har xil odamlar bor, hatto menga ham gapirma, anavi devorning ham qulog‘i bor; ustod Husayn Domog‘oniy voqeasini eshitgandirsan! Mazkur parchadagi iborada hayotiy tajribani ifodalovchi, ogohlantiruvchi, shu bilan birga nutqni obrazliroq bo‘lishini taminlovchi sifatlar mavjud. Badiiy nutqni o‘rganishning muhim usullaridan biri lug‘aviy-uslubiy tahlil bo‘lib, bu usulda badiiy nutqning lug‘at tarkibi va frazeologiyasi, bu vositalarning o‘ziga xos qo‘llanishi masalalari o‘rganiladi⁶¹. Shunga ko‘ra, Mirmuhsin asarlarida qo‘llangan frazeologizmlar tahlilida ham ularning qo‘llanilishidagi o‘ziga xoslik hamda til uchun ahamiyat kasb etadigan muhim xususiyatlarini o‘rganish vazifasi yotadi. Mirmuhsin asarlaridan iboralarning rang-barang varintlariga duch kelish mumkinki, iboralar orqali badiiy matnni boyitish mahorati uning asarlarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan: *Mana shu masala ayniqsa Patining oromini buzdi; kastyumidan bo‘lak hech vaqosi yo‘q Habib bir nimali bo‘lib qolay degan niyatda baland dorga osilayotir* (Ilon o‘chi).

Berilgan parchada *baland dorga osilmoq* iborasi o‘zi munosib bo‘lmagan, qurbi yetmaydiagn narsaga intilish ma’nosini anglatmoqda. Ushbu iboraning ma’no

⁶⁰ Умркулов Б. Бадий наср жозибаси. – Тошкент. 2021. – Б. 4.

⁶¹ Умркулов Б. Бадий наср жозибаси. – Тошкент. 2021 – Б. 3.

anglatuvchi tarkibiy qismi sifatida *baland* leksemasini olishimiz mumkin. *Qurbi yetmaslik* bilan *baland* soʻzi orasida maʼnoviy yaqinlik mavjud. Navbatdagi qoʻllangan iborada “*Beshavqat sarbozlarni koʻrib, Muhammad Faqiriyning yuragi orqasiga tortib ketdi*” (“Xoʻjand qalʼasi”) qoʻrqib ketdi yoki daxshatga tushdi kabi maʼnolarni *yuragi orqasiga tortib ketdi* iborasi orqali tasvirlangan. Koʻrinadiki ibora orqali yoritilgan tasvir soʻzga qaraganda badiiy jihatdan boʻyoqdor va taʼsirliroqdir. Har bir ibora yoki frazeologik birikmalar turli nutqlarda qoʻllangan sari ularning umri uzayib, yangicha tusda gavdalanishi uchun asos boʻlib boraveradi. Yana adib asarlariga murojaat qilsak *Karimberdi aka oʻpkasi yoʻqlik qilib oʻzining chinakam baynalmilalchi qalbi shu ruh bilan tepishini aytgan* (“Ilon oʻchi”).

Mazkur parchada “*oʻpkasi yoʻqlik qilib*” sintaktik birligi ibora boʻlib, u shoshma shosharlik qilish, hovliqish degan mazmunda qoʻllangan. Oʻpkasi yoʻq va shoshish oʻrtasida maʼnoaviy aloqadorlik mavjud emas. Yoki *Oʻsha kezlarda Sotvoldiyevning baʼzi “ogʻziga kuchi yetmagan” ogʻaynilari “Omading kepti tarasha!” deb ketgan vaqtlari ham boʻlgan*. (“Hayotga qaytish”).

Ushbu gapda “*ogʻziga kuchi yetmagan*” iborasi har qanday gapni ham oʻylamasdan gapiraverish maʼnosida qoʻllanilgan. Ibora tarkibidagi soʻzlarni alohida-alohida tahlil qilsak ushbu ifodalagan mazmunan uzoqlashib ketadi. Ammo ogʻiz leksemasi maʼno ifodalash uchun asosiy soʻz sifatida berilmoqda. Ogʻziga kuchi yetmaslikni oʻz maʼnosida tahlil qilsganimizda unda bizga kulguli holat yaʼni kimningdir ogʻziga jismoniy jihatdan kuch ishlatish mazmuni kelib chiqadi. Shuning uchun ham frazeologizmlar leksik jihatdan soʻzma-soʻz emas, semantik jihatdan tahlil qilinishi ustuvor vazifa boʻlsa, uning tarkibidagi soʻzlarning qay darajada birikma mazmuniga yaqin ekanligini tahlil qilish yana bir muhim tomonidir. Chunki aynan keltirilgan ikkinchi jihati uni ibor va idiomadan farqlanishiga asos boʻladi. Mirmuhsin asarlarida uchragan yana bir ibora “*Buning ustiga otalarining hech qachon bu masalada chuvi chiqmagan, ehtiyotkor, hatto bu borada “taqvodor” ekani ham koʻplarga maʼlum edi* (Ilon oʻchi).

Matn tarkibidagi ushbu frazeologik birlikda ham yuqorida taʼkidlab oʻtganimiz kabi jihatlar mavjud. *Chuvi chiqmoq* idiomasi boʻlib, biror ishni yashirincha qilishga

uringanda uning qing'ir oqibati yuzaga chiqib qolish holatida qo'llanadigan frazeologik birlikdir. Navbatdagi parchaga e'tibor bersak:

Bo'yi yetgan nozanin qizlar, yigitning mana shunaqangi mardini yoqtiradi, ammamning buzog'i bo'lib yurganlarni xush ko'rmaydi, - derdi u o'ziga-o'zi. Mazkur parchada **ammamning buzog'i** frazeologik birikmasi idiomaning namunasiga misol bo'la oladi. Chunki ushbu birikmada mazmun kasb etayotgan lapashang, landavur kabi ma'nolar va "*ammamning buzog'i*" leksik birikmasi o'rtasida hech qanday ma'no yaqinligi mavjud emas.

Idiomalar garchand tilda mavjud ikki yoki undan ortiq so'zlarning birikuvidan tashkil topsa-da tarkibidagi so'zlar anglatgan ma'nodan butunlay farq qiladigan yangi ma'no ifodalashi mumkin bo'lgan so'zlardir. *Quruq qoshiq og'iz yirtadi, degan maqol juda to'g'ri! Karmon to'lami, bel baquvvat degan gap.* Ushbu gap tarkibidagi bel baquvvat birikmasini o'xshatishga asoslangan frazeologik birlik lug'aviy jihatdan anglatgan mazmuni bilan frazeologik tomondan anglatgan ma'nosi bir-biridan farq qiladi. Frazeologik birlik sifatida anglatgan ma'nosiga ko'ra boy-badavlat, lug'aviy ma'nosiga ko'ra-sog'lom degan mazmuni ifodalamoqda. *Yigitlar xamir uchidan patir – chiroyli tillo tangalarni kaftlariga qo'yib tomosha qilishdi (Me'mor).* Berilgan parchada tarkibidagi turg'un birikma ham idiomaga misol bo'ladi. Uning tarkibidagi leksemalar. u ifodalagan semadan farq qiladi. Idioma mazmuniga ko'ra, biror kattaroq ulushdan olishi kerak bo'lgan mo'may daromadning arziyas qismi degan ma'no mavjud.

Iboralar esa ko'pincha badiiy asarlar tilini shirali hamda yanada badiiylik kasb etishi uchun qo'llanadi. Ular tarkibidagi ba'zi so'zlar o'rniga ba'zan ma'nodoshi qo'llansa ham uning mazmuniga ta'sir etmaydi. Idiomalarning yana bir farqli jihati ham shuki, ular tarkibiga so'z qo'shib bo'lmaydi, bu so'z uning ma'nodoshi bo'lsa ham idioma ma'nosiga va badiiy sifatiga ta'sir etadi. *Kutish xonasoining derazasi tagidagi stulda o'tirgan Nigoraning yuragini qo'rquv g'ijimlardi.* Berilgan parcha tarkibidagi iboraning mazmuniga ko'ra ko'chma ma'no mavjud. Chunki aslida qo'rquv yurakni g'ijimlashi sodir bo'ladigan hodisa emas. Iborani leksik jihatdan tarjima qilganimizda uning umumiy ma'nosidan uncha uzoq bo'lmagan mazmun

hosil bo‘ladi. *Yoki Nigora onasining yuragidagi xavotirlarni haydardi* (Ilon o‘chi). Mazkur iboradagi sifatlar ham yuqorisidagi kabidir. Navbatdagi parchada esa *Bu yaramas atayin kelib, shu ig‘voni qilayotganini ichi kuyib, o‘rtaga sovuqchilik solish maqsadida bu “iliq muloqotni” cho‘zayotganini shundoq payqab turardi.* Ushbu gapdagi frazeologik birliklar mazmunan matn tilini jonlantirib unga badiiylik bag‘sh etgan. *Ichi kuyib*-ko‘rolmaslik, *sovuqchilik solish* -munosabatni buzish, kabi mazmunlarni ifodalamoqda. Gap tarkibidagi *iliq muloqot* birikmasi qo‘shirnoqqa olingani sababli bu birikma kinoya va kesatiq mazmunida qo‘llanilib, yoqimsiz muloqot degan mazmunni anglatmoqda. Navbatdagi parchada esa *“toshdan sado chiqmoq”* va *“dardi yo‘q kesak”* kabi ibora va idiomalarni qo‘llaydi.

Toshdan ham sado chiqdi, - dedi qah-qah urib Badia, - Nishopuriy, men sizni dardi yo‘q kesak derdim. Bu Buxorolik kelishi bilan taajjub, sizning ham tovushingiz chiqib qoldi.

Ushbu parchada qo‘llangan *dardi yo‘q kesak*, *toshdan ham sado chiqdi* yozuvchi tomonidan qo‘llangan obrazli birlik sifatida olishimiz mumkin. Chunki frazalar tarkibidagi komponentlar qisman lug‘aviy mazmunidan farq qilmoqda hamda ushbu frazeologik birlikning ko‘chma ma‘noda kelayotganidadir. *Toshdan sado chiqdi* deganda odatda loqayd va shijoati past kishilar biror ishni qilishga jazm etganda, xarakterida keskin o‘zgarish sodir bo‘lganda qo‘llaniladi. *“Dardi yo‘q kesak”* esa loqayd va ma’suliyatsiz kishilar hech narsa uchun jon kuydirmaydigan insonlarga nisbatan ishlatiladi. *Tovushi chiqib qolmoq* leksik birikmasi esa yozuvchi tili *chiqib qolmoq* iborasiga nisbatan qo‘llangan yozuvchi individualiga xos ibora bo‘lib unda indamas, fe’li yumshoq kishilarning biror vaziyatga munosabat bildirganda qo‘llaniladigan frazeologik birlikdir.

Frazeologik birliklarning avvalo turg‘un bo‘lmog‘i, ikki yoki undan ortiq kampanentga ega bo‘lishi, obrazli holda ongimizda tayyor holda mavjud bo‘lishi va yana eng muhim elementi ko‘chimning mavjudligidir. Frazeologik birliklarning idioma shaklida milliy xoslik yetakchi bo‘lib, u faqat bir tilga xos bo‘lishi uning muhim xususiyatlaridan biridir. Navbatdagi parchada ham adib frazeologik birliklardan mahorat bilan foydalangan.

Nahotki uzumning sarasini it yeydi. Pul-u davlat, obro' nimalarga qodir emas!
Ey sen Buxorolik chuchvarani xom sanabsan (Me'mor).

Gapda **uzumning sarasini it yeydi** – individual ibora hisoblanadi, chunki tilimizda uning *qovunni sarasini it yeydi* frazeologizmi mavjud. **chuchvarani xom sanabsan** – idiomaga. Uzumning sarasini it yeydi birikmasining mazmuni shundan iboratki yaxshi narsalar odatda uni qadrlamaydigan odamlarga nasib etishi, ikkinchi qo'llangan birikmada esa hali yakunlanmagan ishga xovliqmaslik yoki o'ziga haddan ortiq ishonmaslik kerak degan ifoda mavjud. Ikkala idiomaga tarkibidagi leksemalar butunlay ko'chma ma'no kasb etayotganligi bilan ham idiomaga xos xarakterlidir. Frazeologik birliklar gap, so'z birikmasi va so'z shaklida bo'lishi mumkin. Ammo ularning ko'pchiligi birikma holida. Ijodkorlar o'z asarlarida maqollardan foydalanishda turli xil maqsadlarni ko'zda tutadi. Bular kommunikativlik, dalillash, obrazlilik, go'zal tasvir ishora, ko'rgazmalilik, qiyoslash va h.k. Bundan ko'rinadiki frazeologik birliklarning badiiy nutqdagi o'rni beqiyos. Nafaqat badiiy nutqda, balki og'zaki nutqda ham ular yuqorida keltirgan vazifalarni o'z bo'yniga oladi. Masalan, *Kishi insofli bo'lishi kerak, uzumini yegin-u bog'ini surishtirma qabilda ish tutish insofdan emas- dedi u o'ziga o'zi.* (Xo'jand qal'asi).

Bob bo'yicha xulosa

Ushbu bobda Mirmuhsin asarlarida qo'llangan o'xshatishlar, tasviriy vositalar, ibora va idiomalar kabi frazeologik birliklarning ajoyib namunalarini keltirildi va tahlil qilindi. Umuman olgan bu ikkalayo'nalishning ham bog'liqlik nuqtasi mavjud. Bu ulardagi barqarorlikdir. To'g'ri, o'xshatishlarni barqaror deyaolmaymiz, chunki u adib tomonida ko'pincha original tarzda bunyod etiladi. Ammo tilimizda shunday o'xshatishlar borki ular ramz darajasiga chiqib brogan. Masalan, *ayyor tulki, laqma ayiq, kumush qish, kelinchak bahor* kabi. Bu birikmalarning asosi o'xshatilishdan kelib chiqqanini inkor etish mumkin emas. O'xshatishlar har bir adibning tasavvurining kengligi va so'zdan foydalanish iqtidoriga ko'ra o'zini namoyon etadi.

Frazeologik birliklar millatning madaniyatini, dunyoqarashini anglashda xizmat qiladigan, tadqiqot qilishga arziydigan muhim lingvistik omildir. Ularni inkor etish millatni inkor etish bilan barobardir. Bitta frazeologik birlik hosil bo'lishi uchun biror voqelik kamida besh yoki o'n nafar kishining boshidan o'tmog'i lozim. Adib asarlarida qo'llanilgan maqol, ibora va idiomalarning lingvistik tahlili va ularning mazmunan anglatayotgan ma'nosini ushbu bobda tahlil qilishga urindik.

XULOSALAR

Badiiy asarni lingvopoetik jihatdan tahlil qilishning til uchun muhim xususiyatlaridan biri shundaki, asar tarkibidagi o'ziga xos so'zlarning, birikmalarning, tasviriy vositalarning, turg'un birikmalarning o'ziga xos shaklda qo'llanilishi, ularni so'zlashuv nutqida ham jonlantirish, tilning nozik tomonlarini yana bir bor kashf qilish demakdir. Badiiy asar yaratish yangi dunyo, yangi taqdir, yangicha dunyoqarash demakdir. Biror qahramonga xarakter, shaxsiyat va tabiat ato etayotgan yozuvchilar zimmasida ushbu qahramonni o'quvchiga ushbu qahramonni qabul qildirish olish mas'uliyati ham ikkinchi ustuvor masaladir. Badiiy adabiyotda rang-rang dunyoqarash nutqi, monolog, dialog ifodalarini jonlantirish uchun avvalo yozuvchi so'z bahrining eng go'zal javohirlari bilan asarlarini to'yintirmog'i, boyitmog'i lozim. Shunday kuchl tarkibidan tashkil topgan asargina asrlar davomida mangu barhayotdir. O'zbek nasrida shunday zabardast yozuvchilar borki ularning orasida Mirmuhsin Mirsaidovning o'rni alohida tahsinga loyiqdir. Uning asarlarida o'ziga hos uslub, til, shakl va ifoda mavjud bo'lib, olib borgan kuzatishlarimiz quyidagi xulosalarga kelishimizga imkon beradi:

1. Mirmuhsin asarlarida o'ziga xos so'zlar tahlili, tarixiy asarlaridagi arxaizm va istorizmlar, frazealogik birliklarning rang-barang namunalari va o'xshatishlar tahlili ushbu magistrlik dissertatsiyada o'rin olgan.

2. Ma'lumki har bir adibning so'zga munosabati turlicha bo'ladi, kimdir jimjimador ifodani ma'qul ko'rsa, kimdir xalqchil va sodda ifodani qo'llaydi. Mirmuhsin bu ukki uslubning markazida turishni afzal ko'radi. U qo'llangan so'zlar badiiy asar syujetini tasvirlanishi va o'quvchi yuragidan qay darajada joy olishi uchun muhimrol o'ynaydi. Adib asarida badiiy jihatdan go'zal tasnifetilishiga loyiq so'zlaryetarlicha va ishning birinchi bobida aynan shunga to'xtaldik.

3. Tarixiy asarlarda davr ruhiga mos so'zlar va dialektlarning munosib ravishda qo'llanilishi asar qiymatini belgilaydigan muhim omillardan biridir. Tarixiy

asarlarda davr ruhiga mos bo'lmagan so'zlarni qo'llash uslubiy g'alizlikni keltirib chiqaradi. Adib tarixiy asarlardagi istiorizmlar va arxaizmlarning qo'llanishi va ularning leksik-semantik tahlilini qilayotganingizda adib asarida bunday so'zlar talaygina ekanligiga guvoh bo'lasiz.

4. Asarlarda muhim tasviriy vosita hisoblangan o'xshatishlardan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Ular tasvirlanayotgan voqelikni jonli va obrazli tarzda aks ettirilishida o'ziga xos o'rinlidir. O'xshatishlarda nafaqat badiiy matnda, balki so'zlashuv jarayonida ham murojaat etiladi va o'xshatishlar qo'llanga nutq birliklari og'zaki yoki yozma bo'lsin doimo o'zini oqlaydi. O'xshatishlar bilan tasvirlanayotgan personaj salbiy yoki ijobiy xarakterga ega ekanligini shunday ma'nodagi so'zlarni qo'llamasdan ham ifodalash usulidir. O'xshatish yoki sifatlash badiiy adabiyotning eng muhim obyektidirki, ular orqali tasvirlangan personaj o'quvchi xotirasida chuqurroq iz qoldiradi.

5. Mirmuhsin barqaror birikmalardan o'z asarlarida unumli foydalangan yozuvchilardan biridir. Xalq donishmandligi inikosi bo'lmish maqol, matal, ibora va idiomalar shunday tasviriy vositalarki, ular uyg'otgan taassurot boshqa til birliklarida namoyon bo'lmaydi. Yozuvchi asarlarida qo'llangan frazalarning leksik va semantik jihatdan tahlili ushbu uchinchi bobdan o'rin olgan. Frazologik birliklar asarda emotsional ekspressivlikni ta'minlaydigan go'zal vositalar hisoblanadi. Ular asar ruhini jonlantirib, mazmuniy jihatdan yanada boyishiga xizmat qiladi.

6. Frazologik birliklar bilan ifodalangan gaplar, muallif ifodalomoqchi bo'lgan xulosa, qiyoslash, hukm, ishora, kinoya, o'xshatish, salbiy yoki ijobiy munosabatini lo'nda va obrazli gavdalantirishning ajoyib namunasi. Uning o'rnin boshqa til birliklari bilan to'ldirmoqchi bo'lish, doim ham o'zini oqlayvermaydi. Umuman olganda badiiy adabiyotdagi har bir personaj taqdirini ochib berishga xizmat qiluvchi leksema adib mahoratini aks ettiruvchi ko'zgu demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga

molik nashrlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. [www.http://prezident.uz/uz/lists/view/137](http://prezident.uz/uz/lists/view/137)

II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar

1. Milliy nashrlar:

2. Дониёров Х., Йўлдошев Б. Адабий тил ва бадиий стил. – Тошкент: Фан, 1988. – 207 б.
3. Ёриев Б. Бадиий асар тилини ўрганиш. – Термиз. 1999. – 88 б.
4. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий стили. – Самарқанд: Зарафшон, 1992. – 140 б.
5. Йўлдошев А. Идиоматик қўшма сўзларнинг лингвокогнитив тадқиқи. – Тошкент, 2016. – 190 б.
6. Йўлдошев Б. Фразеологик услубият асослари. – Самарқанд, 1998. – 200 б.
7. Йўлдошев М. Бадиий матн лингвопоетикаси. – Тошкент, 2008. – 160 б.
8. Йўлдошев М., Исақов З., Ҳайдаров Ш. Бадиий матннинг лисоний таҳлили. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти. 2010. – 112 б.
9. Самадов Қ. Ойбек сўз санъаткори. – Тошкент, 1965.
10. Тўрабекова С. Тил ва услуб. – Тошкент: 1963;
11. Умрқулов Б. Бадиий адабиётда сўз. – Тошкент, 1993.
12. Шомақсудов А. ва бошқалар. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983.
13. Қиличев Э. Бадиий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент, 1982;
14. Қодиров П. Халқ тили ва реалистик проза. – Тошкент: 1973;

15. Қуронов Д. Чўлпон насри поетикаси. – Тошкент, 2004. – 288 б.
16. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент, 1977;
17. Қўчқортоев И. Бадиий нутқ стилистикаси. – Тошкент, 1982;
18. Ҳамидов А. Мурод Муҳаммад Дўст асарлари лингвопоетикаси. – Тошкент, 2021.
19. Nurmanov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Sharq, 2002. –B. 103.

2. Xorijiy nashrlar:

20. Будагов Р.А. Филология и культура. – М.: МГУ, 1980. – С. 78-80.
21. Виноградов. В.О. О языке художественной литературы. – М.: 1959.
22. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – М.: 1991.
23. Григорьев В. Поэтика слова. – М.:1979.
24. Ефимов А.О языке художественных произведений. – М.: 1962.
25. Закиев М.З. Хэзерге татар әдәби теле синтаксиси хәм пунктуатсиясе. –Казан: Татарстан китап нәшрияти, 1984. – 261 с.
26. Зәкиев М.З. Хэзерге татар әдәби теле (Синтаксис). – Казан, 1974. – 257 с.
27. Новое в зарубежной лингвистике. Вип. 8. Лингвистика текста. –М.: Прогресс, 1978.
28. Современный татарский язык. –М.: Наука, 1971. – С. 237.
29. Стилистика художественной речи. – М.: 1961.

III. Diniy manbalar, adabiyotlar:

IV. Lugʻatlar

30. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 407 б.
31. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: 2006-2007. I жилд. – 680 б.
32. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 158 б.

V. Badiiy adabiyotlar

33. Мирмуҳсин. Илон ўчи. – Тошкент: Тафаккур қаноти, 2011. – 224 б.
34. Мирмуҳсин. Меъмор. Тарихий роман. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 416 б.
35. Мирмуҳсин. Хўжанд қалъаси (Темур Малик). – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1991. – 344 б.
36. Мирмуҳсин. Tanlangan asarlar. 4 jild. Hikoyalar, qissalar. – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1983. <http://www.ziyouz.com/>

VI. Dissertatsiya va avtoreferatlar:

37. Абдуллаев К.М. Теоретические проблемы синтаксиса азербайджанского языка: Автореф. дис. ...д-ра филол. наук. – Баку, 1984. – 356 с.
38. Боймирзаева С. Ойбек прозасининг лингвистик тадқиқи Филолог. Фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент: 2007.
39. Жалолова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи Филол.фан.номз.дисс.автореф. – Тошкент, 2007.
40. Кучкартаев И. Фразеологическое новаторство А. Каххара. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1965.
41. Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари. Фил.фан. номз...дисс. автореф. – Тошкент, 2000.
42. Самадов К. Некоторые вопросы языкового мастерства Айбека. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1967.
43. Умуркулов Б. Ўзбек бадиий насрининг лингво-услибий шаклланиш асослари. Фил.фан.док (DSc). дисс. – Тошкент, 2020.
44. Юлдашев Б. Язык и стиль произведений Саида Ахмада. Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Тошкент, 1979.

VII. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar

45. Маҳмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоетикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. №6. – Б. 34-38.
46. Всесоюзная тюркологическая конференция // Советская тюркология. -Баку, 1981.

47. Йўлдошев Б. Мустақиллик йилларида ўзбек фразеологияси: эришилган ютуқлар ва навбатдаги вазифалар. // Хорижий филология. №1. 2017. 8-б.

VII. Internet saytlari

48. <https://izoh.uz/word/sangob>

49. <https://izoh.uz/word/peshtoq>